Davlat o'z aholisini himoya qila olgan taqdirdagina insonparvar hisoblanadi.

* * *

Insonga munosib hayot sharoiti, uning o'zini namoyon qila olishi uchun imkoniyatlar yaratish – iqtisodiyotimizni va butun jamiyatni rivojlantirishning oliy maqsadidir.

Mavzu bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. Inson huquqlarini himoya qilishda Yevropa Kyengashining o'rni.
2. Inson huquqlari va asosiy erkinliklari himoyasi to'g'risidagi Yevropa Konvyentsiyasi.
3. Yevropa konvyentsiyasida byelgilangan implyemyentatsiya myexanizmi.
4. Inson huquqlari bo'yicha Yevropa Komissiyasi va Inson huquqlari bo'yicha Yevropa Sudi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. "Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir" 3-tom, T.: O'zbekiston .
2. O'zbekiston Ryespublikasi Konstitutsiyasi. Toshkyent.: o'zbekiston , 2008.
3. A.Saidov. "Xalqaro huquq. "Adolat", 2001.
4. Qayumov R. "O'zbekiston Ryespublikasining Konstitutsiyaviy huquqi" T.:Adolat, 1998, 82- 112 byetlar.

6. Mavzu: Inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini sud tomonidan himoya qilinishi.

Reja:

1. Odil sudlov - sudning asosiy faoliyati.
2. Davlat fuqarolarning qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi.
3. O'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqining kafolatlanganligi.

Tayanch iboralar: Odil sudlov, sudning asosiy faoliyati, davlatning fuqarolar huquqlari va erkinliklarini ta'minlashi, o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish, huquqning kafolatlanganligi.

Dars maqsadi: Odil sudlov - sudning asosiy faoliyati. Davlat fuqarolarning qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi. O'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqining kafolatlanganligi bo'yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish.

Dars o'tish vositalari: Lazerli proyektor, vizual materiallar, tarqatma materiallar.

Dars o'tish usullari: Kichik guruhlarda ishlash, Veyer texnologiyasi, Ajurli arra metodi.

Odil sudlov - sudning asosiy faoliyati. Davlat fuqarolarning qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi. O'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqining kafolatlanganligi.

Islom ta'limotida inson huquqlari g'oyasi.

Qur'oni Karim suralaridan oyatlar

17. Al-isro surasi

32-oyat. Zinoga yaqinlashmanglar! Chunki (bu) buzqlikdir – eng yomon yo'ldir.

33-oyat. Oллоh (o'ldirishni) harom qilgan jonni (ya'ni, qatl etilishga mustahiq bo'lmagan jonni nohaq o'ldirmangiz, magar haq shar'iy qonun) bilangina o'ldirishlaringiz mumkindir.

34-oyat. Yetimning moliga to u balog'at yoshiga yetgunicha yaqinlashganlar, magar eng chiroyli yo'sinda (unga biron ziyon yetkazmasdan yaqinlashinglar – tasarruf qilinglar). Ahdga vafo qilinglar.

35-oyat. (O'rtalaringizdagi oldi-berdi, savdo-sotiqdan biron narsani) o'lchagan vaqtlaringizda o'lchovni to'la-to'kis qilinglar va to'g'ri tarozidan tortinglar!

36-oyat. (Ey inson), o'zing aniq bilmagan narsaga ergashma!

37-oyat. Yer yuzida kibr-havo bilan yurmagin!

22. Haj surasi

5-oyat. ... Biz (sizlarni) O'zimiz xohlaganimizcha – muayyan muddatgacha (onalaringiz) qornida qoldirib, so'ngra chaqaloq holingizda (yorug' olamga) chiqarurmiz, so'ngra voyaga yetgunlaringizgacha (ham O'zimiz tarbiya qilurmiz).

28-oyat. Ular o'zlari uchun bo'lgan (diniy va dunyoviy) manfaatlarga shohid bo'lish uchun va ma'lum kunlarda (ya'ni Qurbon hayiti kunlarida Oллоh) ularga rizq qilib bergan chorva hayvonlarini (qurbonlik uchun so'yish) ustida Oллоh nomini zikr qilish uchun (kelurlar).

29-oyat. So'ngra (qurbonlik qilganlaridan keyin) ular kirlarini ketkazsinlar (ya'ni ehromdan chiqib, sochlarini oldirib, toza liboslarini kiysinlar), nazrlarini (ya'ni zimmalaridagi haj majburiyatlarini) to'la ado qilsinlar va «Eski Uy»ni tavof qilsinlar!

40-oyat. ... Agar Oллоh odamlarning ayrimlarini ayrimlari bilan daf' qilib turmas ekan, shubhasiz Oллоh nomi ko'p zikr qilinadigan (rohiblarning) uzlatgohlari, (nasroniylarning) butxonalari, (yahudiylarning) ibodatxonalari va (musulmonlarning) masjidleri vayron qilingan bo'lur edi.

Tafakkur gulshani

Allomalarning inson huquqlari haqidagi fikrlari

Artur Shopengauer. Mukammal davlatga asos solish uchun avvalo shunday mavjudotlarni yaratish kerakki, toki ular hamma yerda va har doim o'z manfaatlarini jamiyat farovonligi yo'lida qurbon qilishga qodir bo'lsinlar.

* * *

Uylanish huquqlarning yarmini kamaytirish, majburiyatlarni esa ikki baravar oshirish demakdir.

* * *

Forobiy. Fuqarolar bilan muloqot usullari va ularga ta'sir o'tkazish yo'llari soda va tushunarli bo'lmog'i lozim. Aks holda odamlar hukmdorni tushunmaydilar yoki uning talabini bajarolmaydilar. Hukmdorlar dorini bemorning sevimli va ko'p tanovul qiladigan taomiga qo'shib ichiradigan mahoratli tabibga o'xshamoqlari lozim. Zero, mehru muhabbat va rag'batlantirishlar fuqarolar bilan muomalaning eng asosiy usulidir.

* * *

Hukumat rahbarida quyidagi 12 ta tug'ma sifatlar jam bo'mog'i joiz: xushbichimlik, fahm-farosatlilik, o'tkir xotira, idroklilik, so'zga chechanlik, ilmga chanqoqlik, har bir ishda me'yorni saqlay bilish, halollikka muhabbat va yolg'onga nafrat, olijanoblik, boylikka nafrat, olijanoblik, boylikka nafrat, adolatparvarlik, qat'iylik.

* * *

Odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang'ich asos insoniylikdir, shuning uchun ham, odamlar insoniyat turkumiga kirganliklari tufayli o'zaro tinchlikda yashamoqlari lozim.

* * *

Agar saltanat har qanday talabga javob bersa-yu, ammo uni donishmandlik tark etsa, mamlakat hukumatsiz qoldi, deyavering. Bu mamlakatni boshqaruvchi hukmdor ham o'z mavqeyini butkul yo'qotadi. Mamlakat esa halokatga yuz tutadi.

Prezident Islom Karimovning inson huquqlari haqidagi fikrlari

Fuqarolarning huquq va erkinliklari borasida Konstitusiyamiz Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasining barcha asosiy g'oya va qoidalarini o'ziga singdirgan. O'zbekistonda yashovchi har bir shaxs fuqarolik huquqiga ega. Hyech kim fuqarolikdan yoki fuqarolikni o'zgartirish huquqidan mahrum etilishi mumkin emas.

* * *

O'zbekiston fuqarolari, o'zlarining nasl-nasabi, irqi, millatidan va boshqa holatlaridan qat'i nazar, teng huquqqa egadir.

Mavzu bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. Odil sudlovning asosiy faoliyatlari.
2. Fuqarolarning qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini davlat tomonidan ta'minlanishi.
3. Fuqarolarning o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish.
4. Davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008
2. O'zbyekiston Ryespublikasi Konstitutsiyasi. Toshkyent.: O'zbyekiston , 2008.
3. "O'zbyekistonning milliy istiqlol mafkurasi". T.: O'zbyekiston , 1993 yil.

4. Xalqaro gumanitar huquq. Toshkyent, “Adolat”, 2000.

7. Mavzu: Ayol huquqlari.

Reja:

1. Ayol va erkaklarning tyeng huquqliligini ta'minlash.
2. Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham byerish.
3. Ayollar uchun eng yaxshi hayot tarzini ta'minlash.
4. O'zbyekiston Ryespublikasida ayollar huquqlarini tadbiq etuvchi davlat hokimiyatining vakolatli organlari.

Tayanch iboralar: Ayol, erkaklar, tyeng huquqliligi, myehnat qilish huquqi, ishsizlikdan himoyalanish, kamsitishning barcha shakllariga barham byerish, xalqaro hujjatlar, yaxshi hayot tarzi, hamma qonun oldida barobar, jinsi, irqi, dini, ijtimoiy kyelib chiqishi, tyeng imkoniyatlar, tyeng himoyalanish huquqi, O'zbyekiston Ryespublikasida ayollar huquqlari.

Dars maqsadi: Ayol va erkaklarning tyeng huquqliligini ta'minlash. Myehnat qilish huquqi va ishsizlikdan himoyalanish. Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham byerish. Ayollar huquqlariga oid xalqaro hujjatlar. O'zbyekiston Ryespublikasida ayollar huquqlarini tadbiq etuvchi davlat hokimiyatining vakolatli organlari haqida tushuncha berish.

Dars o'tish vositalari: Ma'ruza matni, auditoriya doskasi, darslik, ko'rgazmali qurollar.

Dars o'tish usullari: Ma'ruza, muloqot, aqliy hujum, insert

Ayol va erkaklarning tyeng huquqliligini ta'minlash. Myehnat qilish huquqi va ishsizlikdan himoyalanish. Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham byerish. Ayollar huquqlariga oid xalqaro hujjatlar. Ayollar uchun eng yaxshi hayot tarzini ta'minlash. hamma qonun oldida barobardir va jinsi, irqi, dini va ijtimoiy kyelib chiqishidan qat'iy nazar tyeng imkoniyatlar va tyeng himoyalanish huquqiga egadirlar. O'zbyekiston Ryespublikasida ayollar huquqlarini tadbiq etuvchi davlat hokimiyatining vakolatli organlari.

Islom ta'limotida inson huquqlari g'oyasi.

Qur'oni Karim suralaridan oyatlar

22. Haj surasi

41-oyat. Ularni (ya'ni musulmonlarni) agar Biz yer yuziga g'olib qilsak ular namozni to'kis ado etadilar, zakotni (haqdorlarga) ato etadilar, yaxshilikka buyuradilar, yomonlikdan qaytaradilar.

23. Mo'minlar surasi

8-oyat. Ular (ya'ni mo'minlar) o'zlariga ishonilgan omonatlarga va (o'zgalarga) bergan ahdu-paymonlariga rioya qilguvchi kishilardir.

24. Nur surasi

2-oyat. Zinokor ayol va zinokor erkak – ulardan har birini yuz darradan uringlar.

3-oyat. Zinokor erkak faqat zinokor ayolga yoki mushrikaga uylanur. Zinokor ayolga faqat zinokor erkak yoki mushrik uylanur.

4-oyat. Pokiza ayollarni (zinokor) deb badnom qilib, so'ngra (bu da'volariga) to'rtta guvoh keltira olmagan kimsalar(ni) ularni sakson darra uringlar va hyech qachon ularning guvohliklarini qabul qilmanglar!

22-oyat. Sizlardan fazl va keng-katta mol-davlat egalari qarindoshlarga, miskinlarga va muhojirlarga Olloh yo'lida infoq-ehson qilmaslikka qasam ichmasin, balki ularni afv qilib, kechirsinar!

26-oyat. Nopok ayollar nopok erlar uchundir (ya'ni loyiqdir), nopok erlar nopok ayollar uchundir. Pokiza ayollar pokiza erlar uchundir, pokiza erlar pokiza ayollar uchundir.

27-oyat. Ey mo'minlar, o'z uylaringizdan boshqa uylarga to'z so'ramaguningizcha va egalariiga salom bermaguningizgacha kirmangiz.

28-oyat. Endi agar u (uylarda) hyech kimni topmasangizlar u holda to sizlarga izn berilmaguncha ularga kirmangiz!

29-oyat. (Birov uchun) maskan bo'lmagan (mehmonxona, karvonsaroy kabi) foydalanadigan uylarga (izn so'ramasdan) kirishlaringizda sizlarga gunoh yo'qdir.

Tafakkur gulshani

Allomalarning inson huquqlari haqidagi fikrlari

Bahouddin Naqshbandiy. Xalq huzurida rioya qilinadigan adabga xilvatda ham rioya qilish lozim.

* * *

Amir Temur. Podshoh har ishda qarorida qat'iy bo'lsin, ya'ni har qanday ishni qilishga qasd qilar ekan, to bitirmagunicha undan qo'l tortmasin.

* * *

Millatning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangizdir. Zaifalarni ko'ring, yo'qsullarni boylar zulmiga tashlamang. Adolat va ozodlik – dastingiz, rahbaringiz o'lsin.

* * *

Podsho saltanat ishlarida har kimning so'zini eshitsin, har kimdan fikr olsin. Qaysi biri foydaliroq bo'lsa, uni ko'ngil xazinasidan saqlab, vaqtida ishlatsin.

* * *

Yusuf Xos Hojib. Kambag'al, tul, yetimlarning hollaridan xabardor bo'lib tur, ularni avaylasang, adolat mana shu bo'ladi.

* * *

Bolani bilimli qilmoqchi bo'linsa, unga yoshligidanoq bilim o'rgatib borish kerak.

Prezident Islom Karimovning inson huquqlari haqidagi fikrlari

Islahot islohot uchun emas, avvalo, inson uchun.

* * *

Inson, uning manfaatlari, huquq va erkinliklari so'zda emas, amalda eng oliy qadriyat.

Mavzu bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. Ayol va erkaklarning tyeng huquqliligi.
2. Myehnat qilish huquqi va ishsizlikdan himoyalanish.
3. Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham byerish.
4. Ayollar huquqlariga oid xalqaro hujjatlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. "Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir" 3-tom, T.: O'zbyekiston.
2. O'zbyekiston Ryepublikasi Konstitutsiyasi. Toshkyent.: O'zbyekiston , 2008.
3. O.A.Karimova. Inson huquqlari. TDPU. 2001.
4. Qayumov R. "O'zbyekiston Ryepublikasining Konstitutsiyaviy huquqi" T.:Adolat, 1998, 82- 112 byetlar.

8. Mavzu: Bola huquqi.

Reja:

1. Bola huquqi to'g'risidagi Konvyentsiya.
2. Diskriminatsiyaga yo'l qo'yilmasligi.
3. Ism va fuqarolikka ega bo'lish huquqi.
4. Byepul ta'lim va tibbiy yordam olish huquqi.

Tayanch iboralar: Bola huquqi, Konvyentsiya, Diskriminatsiyaga yo'l qo'yilmasligi, ism va fuqarolikka ega bo'lish, tibbiy yordam olish, oila muhitida tarbiya olish, rangi, jinsi, dini, tilidan qat'iy nazar tyeng, YuNISYeF, Jyenyeva Dyeklaratsiyasi, xalqaro tashkilotlar.

Dars maqsadi: Bola huquqi to'g'risidagi Konvyentsiya. Diskriminatsiyaga yo'l qo'yilmasligi. Ism va fuqarolikka ega bo'lish huquqi. Byepul ta'lim va tibbiy yordam olish huquqi. BMT Bosh Assamblyeyasining 1989 yil 20 syentyabrdagi Bola huquqi to'g'risidagi Konvyentsiyasi. Bola huquqlari to'g'risidagi Konvyentsiya va YuNISYeF. 1924 yilgi Bola huquqlari to'g'risidagi Jyenyeva Dyeklaratsiyasi. Bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro tashkilotlar haqida ma'lumotlarni talabalar ongiga singdirish.

Dars o'tish vositalari: Proyektor, vizual materiallar, tarqatma materiallar.

Dars o'tish usullari: Kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara.

Bola huquqi to'g'risidagi Konvyentsiya. Diskriminatsiyaga yo'l qo'yilmasligi. Ism va fuqarolikka ega bo'lish huquqi. Byepul ta'lim va tibbiy yordam olish huquqi. Bolalar oila muhitida tarbiya olish yoki unga eng yaxshilarning qaramog'ida bo'lish huquqiga egadirlar. Hamma bolalar rangi, jinsi, dini, tilidan qat'iy nazar tyengdirlar. BMT Bosh Assamblyeyasining 1989 yil 20 syentyabrdagi Bola huquqi to'g'risidagi Konvyentsiyasi. Inson huquqlari bola huquqlaridan boshlanadi. Bola huquqlari to'g'risidagi Konvyentsiya va YuNISYeF. 1924 yilgi Bola huquqlari to'g'risidagi Jyenyeva Dyeklaratsiyasi. Bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro tashkilotlar.

Islom ta'limotida inson huquqlari g'oyasi.

Qur'oni Karim suralaridan oyatlar

24. Nur surasi

32-oyat. O'z oralaringizdagi tul-bevalarni hamda qul va cho'rilaringizni yaxshilarini uylantiringlar.

33-oyat. Nikoh (uchun lozim bo'lgan mol-davlatni) topa olmagan kishilar to Oллоh ularni O'z fazlu-karami bilan boy-badavlat qilgunicha o'zlarini (haromdan, zinokorlikdan) pok tutsinlar! (Ey mo'minlar) qo'l ostingizdagi qullardan bitim tuzishni istaydigan kishilar bo'lsa, u holda agar sizlar ularda yaxshilikni (ya'ni diyonat, iymonni) bilsangizlar ular bilan bitim tuzinglar va ularga Oллоhning sizlarga ato etgan molidan ato etinglar!

58-oyat. Ey mo'minlar, qo'l ostingizdagi (qul va cho'rilaringiz) hamda o'zlaringizning balog'atga yetmagan (bolalaringiz) uch vaqtda (huzuringizga kirish uchun) sizlardan izn so'rasinlar – bomdod namozidan ilgari, peshin vaqtida (issiqdan) kiyimlaringizni tashlagan paytingizda va xufton namozidan keyin.

59-oyat. Qachon go'daklaringiz balog'atga yetsalar, bas ular ham xuddi ulardan ilgari (balog'atga yetganlar) kabi izn so'rasinlar!

30. Rum surasi

38-oyat. Bas qarindosh-urug'ga, miskin va musofirga (xayru-ehson qilish bilan) haqlarini ato eting!

39-oyat. Sizlar odamlarning mollari ichida ziyoda bo'lib (qaytishi) uchun bergan sudxo'rlik-foydaxo'rlikdan iborat bo'lgan pul-mollaringiz (ya'ni sovg'a-salomlaringiz) Oллоh nazdida ziyoda (savob) olishingizga sabab bo'lmas.

31. Luqmon surasi

6-oyat. Odamlar orasida shunday kimsalar ham borki, ular bilimsizlik bilan (o'zgalarni) Oллоhning yo'lidan ozdirish uchun va u (yo'lni) masxara qilish uchun behuda so'z(lar)ni sotib olur.

14-oyat. Biz insonga ota-onasini (ya'ni ularga yaxshilik qilishni) amr etdik. Onasi unga ojizlik ustiga ojizlik bilan homilador bo'ldi (ya'ni qornidagi homila kattargan sari onaning holi qurib, zaiflasha borur) uni (ko'krakdan) ajratish (muddati) ikki yilda (kelur). (Biz insonga buyurdikki), «Sen Menga va ota-onangga shukr qilgin!».

15-oyat. Agar ular (ya'ni ota-onang) seni o'zing bilmagan narsalarni Menga sherik qilishga zo'rласalar u holda ularga itoat etma! Ularga (garchi kofir bo'lsalar-da), dunyoda yaxshi muomalada bo'lgin va o'zing menga ijobat-tavba qilgan kishilarning yo'lga ergashgin!

18-oyat. Odamlardan (mutakabbirlik bilan) yuzingni o'girmagin va yerda kibru-havo bilan yurmagin.

Tafakkur gulshani

Allomalarning inson huquqlari haqidagi fikrlari

Abduxoliq G'ijduvoni. Ota-onaning haqqini hamisha ado et.

* * *

Faxrulbanot Sulaymoniy. Ayollar ham erlar kabi iste'dodga ega kishilar bo'lib, hurmat va ehtiroimga loyiq bo'lishlaridan tashqari, oilaning asosiy tarbiyachilaridir. Shunday ekan, ular ham zarur ilm bilan qurollanishlari kerak.

* * *

Fitrat. Vatan mening jonu tanim sajdagohimdur.

* * *

Vatan bizning valine'matimiz va murabbiyimizdir, har bir valine'mat va murabbiyga xizmat qilish lozim, bas, vatanga xizmat burchdir.

* * *

Xotinlar barcha huquq va vazifalarda bizlar bilan barobardirlar.

* * *

Bolalarning tarbiyasi bu farzandni jismonan, fikran va axloqan tarbiya qilib, kamolga yetishtirish demakdir.

Prezident Islom Karimovning inson huquqlari haqidagi fikrlari

Хар қандай миллатнинг равнақи, умумбашарият тарихида тутган ўрни, мавқеи ва шухрати бевосита ўз фарзандларининг ақлий ва жисмоний етуқлигига боғлиқдир.

* * *

Биз соғлом авлодни тарбиялаш, вояга етказишимиз керак.

Mavzu bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. Bolalar oila muhitida tarbiya olish yoki unga eng yaxshilarning qaramog'ida bo'lish huquqiga egadirlar.
2. Hamma bolalar rangi, jinsi, dini, tilidan qat'iy nazar tyengdirlar.
3. BMT Bosh Assambleyasining 1989 yil 20 syentyabrdagi Bola huquqi to'g'risidagi Konvyentsiyasi.
4. Bola huquqlari to'g'risidagi Konvyentsiya va YuNISYeF.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008
2. O'zbyekiston Ryepublikasi Konstitutsiyasi. Toshkyent.: O'zbyekiston , 2008.
3. O.A.Karimova. Inson huquqi - bola huquqi. TDPU. 2002.
4. Xalqaro gumanitar huquq. Toshkyent, "Adolat", 2000.

9. Mavzu: Inson huquqlari bo'yicha xalqaro institutlar.

Reja:

1. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarning shakllanish jarayoni.
2. 1948 yil 10 dyekabrda qabul qilingan Inson huquqlari Umumjahon Dyeklaratsiyasi.
3. Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlari to'g'risidagi Xalqaro pakt. Fuqarolik va siyosiy huquqlari to'g'risidagi xalqaro pakt.
4. Inson huquqlarini himoya hilishda Yevropa sudining o'rni.

Tayanch iboralar: Xalqaro standartlar, BMTning tashkil etilishi, Nizomi, 1948 yil 10 dyekabr, Inson huquqlari Umumjahon Dyeklaratsiyasi, Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlari to'g'risidagi Xalqaro pakt, Fuqarolik va siyosiy huquqlari to'g'risidagi xalqaro pakt, Yevropa konvyentsiyasi, Yevropa amaliyoti, Yevropa sudi.

Dars maqsadi: Inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarning shakllanish jarayoni. BMTning tashkil etilishi va uning Nizomining qabul qilinishi. Inson huquqlari Umumjahon Dyeklaratsiyasi. Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlari

to'g'risidagi Xalqaro pakt. Fuqarolik va siyosiy huquqlari to'g'risidagi xalqaro pakt. Yevropa konvyentsiyasida Yevropa amaliyotida inson huquqlari masalasi. Inson huquqlarini himoya hilishda Yevropa sudining o'rni haqida tushuncha berish.

Dars o'tish vositalari: Ma'ruza matni, auditoriya doskasi, darslik, ko'rgazmali qurollar.

Dars o'tish usullari: Ma'ruza, muloqot, aqliy hujum, insert

Inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarning shakllanish jarayoni. BMTning tashkil etilishi va uning Nizomining qabul qilinishi. 1948 yil 10 dyekabrda qabul qilingan Inson huquqlari Umumjahon Dyeklaratsiyasi. Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlari to'g'risidagi Xalqaro pakt. Fuqarolik va siyosiy huquqlari to'g'risidagi xalqaro pakt. Yevropa konvyentsiyasida Yevropa amaliyotida inson huquqlari masalasi. Inson huquqlarini himoya hilishda Yevropa sudining o'rni.

Islom ta'limotida inson huquqlari g'oyasi.

Qur'oni Karim suralaridan oyatlar

31. Luqmon surasi

19-oyat. Yurganingda o'rtacha yurgin va ovozingni past qilgin.

33. Ahzob surasi

4-oyat. Olloh biron kishining ichida ikki yurak qilgan emasdir, shuningdek, sizlar zihor qiladigan xotinlaringizni ham sizlarga ona qilgan emas va asrandi bolalaringizni o'z bolalaringiz qilgan emasdir. Bu (ya'ni xotinlaringizni «ona» deyishlaringiz, asrandilaringizni «bola» deyishlaringiz) sizlarning og'izlaringizdagi so'zingizdir.

5-oyat. Ularni o'z otalari (ismi) bilan chaqinglar.

6-oyat. Payg'ambar mo'minlarga o'zlaridan ham haqdorroqdir, uning ayollari esa ularning onalaridirlar. Ollohning Kitobida qarindosh-urug'lar (merosxo'rlikda) bir-birlariga (qon-qarindosh bo'lmagan) mo'minlardan va muhojirlardan ko'ra haqdorroqdirlar.

49-oyat. Ey mo'minlar, qachon sizlar mo'minalarni nikohlaringizga olsangizlar-u, so'ngra ularga qo'l tegizishdan – yaqinlashishdan ilgari ularni taloq qilsangizlar, u holda sizlar uchun ularning zimmasida sanaydigan idda bo'lmas.

46. Ahqof surasi

15-oyat. Biz insonni ota-onasiga yaxshilik qilishga buyurdik. Onasi unga qiynalib homilador bo'lib, qiynalib tuqqandir. Unga homilador bo'lish va uni (sutdan) ajratish (muddati) o'ttiz oydir. Endi qachon u voyaga yetib, qirq yoshga to'lganida: «Parvardigorim, meni Sen menga va ota-onamga in'om etgan ne'matingga shukr qilishga va O'zing rozi bo'ladigan yaxshi amallarnigina qilishga muvaffaq etgin va O'zing men uchun zurriyotimda ham yaxshilik qilgin (ya'ni farzandlarimni ham ahli solih bandalaringdan qilgin)».

49. Hujurot surasi

11-oyat. Ey mo'minlar, (sizlardan bo'lgan) bir qavm (boshqa) bir (mo'min) qavmdan masxara qilib kulmasin – ehtimolki, (o'sha masxara qilingan qavm) ulardan yaxshiroq bo'lsalar.

12-oyat. Ey mo'minlar, ko'p gumon(lar)dan chetlaninglar! Chunki ayrim gumon(lar) gunohdir! (O'zgalarning ayblari ortidan) josuslik qilib yurmanglar va ayrimlaringiz ayrimlarni g'iybat qilmasin!

57. Hadid surasi

7-oyat. (Ey insonlar), Olohga va Uning payg'ambari (Muhammad alayhis-salom)ga iymon keltiringlar hamda U zot sizlarni xalifa qilib qo'ygan narsalardan(ya'ni vaqtincha qo'llaringizda turgan erta bir kun sizlar istasangiz-istamasangiz o'zgalarning qo'llariga o'tib ketadigan Oloh bergan mol-davlatdan) infoq-ehson qilinglar!

18-oyat. Albatta sadaqa qilguvchi erkaklar va sadaqa qilguvchi ayollar hamda Olohga qarzi xasana berganlar uchun (bergan xayru sadaqalari) bir necha hissa qilib qaytarilur va ular uchun ulug' ajr-mukofot bordir.

Tafakkur gulshani

Allomalarning inson huquqlari haqidagi fikrlari

Fitrat. Millat har bir vakilida sharafu e'tibor bo'lsa, o'sha millat sharafu e'tiborga loyiq bo'ladi.

* * *

Aholi o'rtasidagi munosabat va muomalalarni tartibga soladigan qonunlar lozim, toki o'rtamizda tushunmovchilik paydo bo'lib jamiyatimiz parishon bo'lmasin.

* * *

Odamlar qaysi din, qaysi qavm, qaysi millatda bo'lmasinlar, bir otaning farzandlari, bir jinsning avlodlari, boshqacha qilib aytsak, bir-birlriga birodardirlar.

Shunday ekan, bir-birlariga shart qo'ymay, muhabbatli va shafqatli bo'lishlari kerak. Ya'ni o'rtalarida «umumiy birodarlik»ni barpo etishlari kerak.

* * *

Chustiy. Qul bo'lib nomardga kun ko'rgan kishi inson emas,
Erk uchun, xalqi uchun qiynalmagan jon-jon emas.

* * *

Abdulla Qahhor. Inson hamma yerda ulug' ... Uning ulug'ligi qo'lidan kelgan ishlarda, yaratuvchiligida ko'rinib turadi.

* * *

Oybek. Xalqqa xizmat qilish – katta baxt.

Prezident Islom Karimovning inson huquqlari haqidagi fikrlari

Oila sog'lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqaror.

* * *

Oila qo'rg'onining ham chiroyi, ham charog'boni bo'lgan ayol zoti.

Mavzu bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarning shakllanish jarayoni.
2. BMTning tashkil etilishi va uning Nizomining qabul qilinishi.
3. Inson huquqlari Umumjahon Dyeklaratsiyasi.

4. Yevropa konvyentsiyasida Yevropa amaliyotida inson huquqlari masalasi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. "Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir" 3-tom, T.: O'zbekiston.
2. O'zbekiston Ryespublikasi Konstitutsiyasi. Toshkyent.: O'zbekiston , 2008.
3. X.Boboyev va boshqalar. "Inson huquqlari" "Adolat", 1995.
4. Qayumov R. "O'zbekiston Ryespublikasining Konstitutsiyaviy huquqi" T.:Adolat, 1998, 82- 112 byetlar.

10. Mavzu: Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar va ularning inson huquqlarini himoya etishdagi o'rni.

Reja:

1. O'zbekiston Ryespublikasida konstitutsiyaviy nazorat tizimining rivojlanishi.
2. Milliy institutlarning maqsad va vazifalari.
3. Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman).
4. Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti.

Tayanch iboralar: Konstitutsiyaviy nazorat tizimi, Milliy institutlarning maqsadi, vazifalari, Ombudsman, Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti, Milliy Markaz, Nodavlat tashkilotlar, tizimi, jamiyatni dyemokratlashtirish jarayoni.

Dars maqsadi: Konstitutsiyaviy nazorat tizimining rivojlanishi. Milliy institutlar. Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili. Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti. Milliy Markazi. Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatining asosiy yo'nalishlari. Nodavlat tashkilotlar tushunchasi va ularning tizimi to'g'risida bilimlarni shakllantirish.

Dars o'tish vositalari: Ma'ruzalar tizimi, ko'rgazma material-lar (Ma'ruzachilarning slayd-taqdimoti), lazerli proyektor.

Dars o'tish usullari: Ma'ruza – konferensiya, munozara, blis – so'rov.

O'zbekiston Ryespublikasida konstitutsiyaviy nazorat tizimining rivojlanishi. Milliy institutlarning maqsad va vazifalari. O'zbekiston Ryespublikasida milliy institutlar. Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman). Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Ryespublikasi Milliy Markazi. O'zbekiston Ryespublikasidagi inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatining asosiy yo'nalishlari. Nodavlat tashkilotlar tushunchasi va ularning tizimi. Jamiyatni dyemokratlashtirish jarayonida nodavlat tashkilotlarining o'rni.

Islom ta'limotida inson huquqlari g'oyasi.

Qur'oni Karim suralaridan oyatlar

65. Taloq surasi

1-oyat. Ey payg'ambar, qachon sizlar (ya'ni mo'minlar) ayollaringizni taloq qilsangizlar ularning iddalarida (ya'ni poklik paytlarida) taloq qilinglar va idda sananglar!

2-oyat. Endi qachon (taloq qilgan ayollaringizning idda) muddatlari bitib qolsa, bas, ularni yaxshilik bilan olib qolinglar (ya'ni qayta nikohlaringizga olinglar) yoki yaxshilik bilan (ya'ni, haqqi mahrlarini berib) ajrashinglar.

4-oyat. Ayollaringiz orasidagi (keksayib qolgani sababli) hayz ko'rishdan umid uzganlari, agar sizlar (ularning iddalari qancha davom etishi xususida) shubhalansangizlar, bas (bilingizki), ularning iddalari uch oydir, yana (hali-hanuz) hayz ko'rmagan (ayollar)ning (iddalari ham uch oydir). Homilador (ayol)larning (idda) muddatlari homilalarini qo'yishlari (ya'ni ko'z yorishlaridir).

6-oyat. Ularga (ya'ni taloq qilinib, idda saqlayotgan ayollaringizga) o'zlarinigiz maskan tutgan – qudratingiz yetgan joydan maskan beringlar va ularni (turgan joylaridan) qisib chiqarish uchun ularga ziyon yetkazmanglar. Agar ular homilador bo'lsalar, u holda to homilalarini qo'ygunlaricha ularga nafaqa berib turinglar! Endi agar (taloq qilgan ayollaringiz) sizlar uchun (bola) emizsalar (ya'ni o'zlarining sizlardan bo'lgan bolalarini emizsalar), u holda ularning (emizganliklari uchun) ajr-haqlarini beringlar! Va (emizish, hamda uning haqqi xususida) o'zaro yaxshilik bilan kelishib olinglar!

7-oyat. Boy-badavlat kishi o'z boyligidan (ya'ni boyligiga yarashadigan) nafaqa bersin. Kimning rizqi tang qilingan (kambag'al) bo'lsa, u holda Oллоh o'ziga ato etgan narsadan (ya'ni o'z holiga yarasha) nafaqa bersin!

90. Balad surasi

14-15-16-oyat. Yoki ocharchilik kunida biron qardosh yetimga yo muhtoj bechora-miskinga taom bermoqdir.

93. Vaz-zuha surasi

8-oyat. U zot sizni kambag'al holda topib, boy qilib qo'ydi-ku!

10-oyat. So'rovchi gadoni esa (biron narsa bermasdan) haydamang!

Tafakkur gulshani

Allomalarning inson huquqlari haqidagi fikrlari

Oybek. O'qing, o'rganing, turmushni biling, mehnat nash'asini, zavqini to'ying va qadriga yeting.

* * *

Komil Yashin. Insonning eng buyuk baxti jonajon xalqiga beminnat xizmat qilishdir.

* * *

Ibrohim Mo'minov. Inson aqlining qudrati va inson mehnat faoliyati mo'jizalariga ham qoyil qolamiz, ham tahsinlar deymiz.

* * *

Ozod Sharafiddinov. Odam erkin ekanman deb og'ziga kelgan narsani valdirashi, ko'ngliga kelgan noma'qulchilikni qilishi mumkin emas.

* * *

Tilni mensimaslik millatni mensimaslik, vatanni mensimaslikni ko'rsatadigan o'ta noxush holdir.

* * *

Ijod degani odamning fikr va hissiyot bobidagi ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish deganidir.

* * *

Nafaqat amaldor, balki har bir fuqaro uchun qonun chizib bergan yo'ldan bir qadam ham chetga chiqmaslik – eng muqaddas qonun bo'lmog'i kerak.

Prezident Islom Karimovning inson huquqlari haqidagi fikrlari

Ongi, tafakkuri, e'tiqodi mustahkam bo'lgan, o'z mustaqil fikri bilan yashayotgan odamni chalg'itib ham, kimlardir xohlagan tomonga og'dirib ham bo'lmaydi.

* * *

Oila bor ekan, hayot abadiyligi, bebaho ne'mat bo'lmish farzand bor. Farzand bor ekan, odamzod hamisha kelajagini o'ylab, ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi.

Mavzu bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. O'zbyekiston Ryespublikasida konstitutsiyaviy nazorat tizimining rivojlanishi.
2. Milliy institutlarning maqsad va vazifalari.
3. Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman).
4. Inson huquqlari bo'yicha O'zbyekiston Ryespublikasi Milliy Markazi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008
2. O'zbyekiston Ryespublikasi Konstitutsiyasi. Toshkyent.: O'zbyekiston , 2008.
3. "O'zbyekistonning milliy istiqloq mafkurasi". T.: O'zbyekiston , 1993 yil.
4. Qayumov R. "O'zbyekiston Ryespublikasining Konstitutsiyaviy huquqi" T.:Adolat, 1998, 82- 112 byetlar.

INSON HUQUQLARI KURSINI O'QITISHDA QO'LLANILGAN BA'ZI HUQUQIY TERMINLAR VA IBORALAR IZOHI

ABSENTIZM (lot. absentia – qatnashmaslik, bosh tortish - 1) saylovchilarning vakillik organlari yoki mansabdor shaxslarni saylashda, yig'ilishlarda va hokozalarda qatanashishdan bosh tortishi; aholining o'z fuqarolik huquqlarini amalga oshirishga befarq qarashi. A. saylov tizimi nodemokratik ko'rinishga qarshi aholi noroziligining bir shakli.

AVTOKRATIYA (yunoncha, autos – o'zim, kratos - hokimiyat) – yakka shaxsning hech qanday qonun, huquqiy me'yorlar bilan cheklanmagan yagona hokimligi.

AVTORITARIZM (lot. auctoritas – hokimiyat, obro', nufuz va e'tibor) – davlatni idora qilish usuli. A.da siyosiy hokimiyat hukmdor shaxsning yoki yetakchining siyosiy irodasi va qarorlari asosida amalga oshiriladi. Yakka shaxsning davlatni o'z ta'siri, obro'si, tashkilotchiligi, shijoati, jamiyatni yaxshi bilish asosida boshqarish.

AGRESSIYA (lot. aggressio – hujum qilish), tajovuz – bir davlat (davlatlar guruhi) tomonidan boshqa davlatning yoki xalqning (millatning) suvereniteti, hududiy daxlsizligi yoki siyosiy mustaqilligiga qarshi BMT Ustavi nuqtai nazaridan g'ayriqonuniy bo'lgan har qanday kuch ishlatish.

ADO ETISH – arabcha, to'ladi, bajardi kabi ma'nolarini anglatadi. Arab tilida to'lash, bajarish ma'nosini, o'zbek tilida tugash, yo'q bo'lish ma'nosini anglatadi.

ADOLAT – (arabcha, adolat – odillik, to'g'rilik) arabcha, asli to'ppa-to'g'ri shaklga ega bo'ldi ma'nosini anglatuvchi so'zdan hosil qilingan bo'lib, adolatli bo'ldi, ma'nosidan hosil qilingan va haqqoniylik ma'nosini anglatadi. A. – ijtimoiy-falsafiy, axloqiy va huquqiy tushuncha. Kishilar ijtimoiy-siyosiy ongida katta rol o'ynaydi. A. – axloq va huquqning me'yoriy kategoriyalaridan biri bo'lib, mavjud ijtimoiy voqyelik inson mohiyatiga va huquqlariga mo'syoki mos emasligini ajratishda mezon bo'lib xizmat qiladi.

AYB – arabcha, asli biror kamchilik topib urishdi ma'nosini anglatuvchi so'z bo'lib, tahqirlashni anglatadi; o'zbek tiliga kamchilik, nuqson kabi ma'no bilan o'zlashgan, keyinchalik qonun-qoidaga xilof uyatli ish, xatti-harakat ma'nosini anglatadi boshlagan. A. – javobgarlikka tortishning zarur sharti. Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxs qonuniy tartibda aybi suda oshkora ko'rib chiqilib, aniqlanmaganiga qadar A.li emas, deb hisoblanadi.

AYB E'LON QILISH – aybdor sifatida javobgarlikka tortish haqidagi qarorni ayblanuvchiga e'lon qilish.

AYBINI BO'YNIGA OLISH TO'G'RISIDAGI ARZ – ariza beruvchining o'zi sodir etgan jinoyat to'g'risida u shu jinoyat sodir etishda gumon qilinmasdan va unga ayblov e'lon qilinmasdan oldin bergan xabari.

AYBLANUVCHI – A. tariqasida jinoyat ishida ishtirok etishga jalb qilinishi haqida ayblov qarori chiqarilgan shaxs.

AYBLOV – muayyan jinoiy qilmishni sodir etganlikda ayblanib, jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilingan shaxsning aybdorligini isbotlash maqsadida qilingan harakat.

AYBSIZLIK PREZUMPSIYASI – aybdorning jinoyat qonuniy tartibda isbot qilinmaguncha, uni aybsiz deb faraz qilish.

AKKREDITLASH – xalqaro huquqda davlatning diplomatik vakolatxona boshlig'i yoki biron-bir xalaqro tashkilotda doimiy vakili lavozimiga tayinlanishi va lavozimni bajarishga kirishish bilan bog'liq xatti-harakatlar majmui.

AKS – arabcha, orqa tomoniga o'girdi ma'nosini anglatib, qaytardi ma'nosidan hosil qilingan. Arab tilida orqa tomon, o'zbek tilida biror silliq sathda ko'ringan tasvir teskari, zid, o'jar kabi ma'nolarni anglatadi.

ALIBI (lot. alibi – boshqa yerda) – biror jinoyatda ishtiroki bor deb gumon qilingan yoki ayblanayotgan shaxsning jinoyat sodir bo'lgan joyda bo'lmaganidan va uning aybsizligidan dalolat beruvchi dalolat.

ALTERNATIVA (fransuzcha alternative, lotincha alternas – bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan) – ikki nomzod, vaziyat, fikr yoki narsadan birini tanlash yoki tanlashga majbur bo'lmoq.

AMAL QILISH – arabcha, qiladi, faoliyat ko'rsatadi ma'nosini anglatib, ish, faoliyat kabi ma'nolarni anglatadi. O'zbek tilida mansab, iloj kabi turli ma'nolarni anglatadi.

AMALDAGI QONUN HUJJATLARI MONITORINGI INSTITUTI – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis huzuridagi amaldagi qonun hujjatlarini kuzatish, o'rganish, baholash va istiqbolni belgilash instituti. 1996-yil 3-dekabrda Toshkentda tashkil etilgan. U jahonda birinchi parlament institutidir. A. q. h. m. i. qonun hujjatlarini tahlil etib, demokratiya va inson huquqlari sohasidagi xalqaro mezonlarga muvofiqlashtiradi, qonuniylik ishi mexanizmini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar beradi, qonun loyihalarini ilmiy ekspertizadan o'tkazadi.

AMNISTIIYA (yunoncha, amnestia – kechirish, gunohidan o'tish; amnistiya) – oliy davlat hokimiyati organining xususiy akti, jinoyat sodir qilgan ayrim shaxslarni jinoiy jazodan ozod qilish, jinoyat ishini bekor etish yoki jazoni yengillashtirish to'g'risidagi qarori. Ilgari sud tomonidan belgilangann jazoni o'tab bo'lgan majlislardan sudlanganligini olib tashlash.

ANIQLASH – aniq – noaniqlikdan holi, ochiq-oydin. Qadimiy turkiy tilda ochiq-oydin bo'l ma'nosini anglatadi.

ANNEKSIYA (lot. annexio – birlashtirish, qo'shilish) – agressiya turi. Bir davlat hududini butunlay yoki qisman zo'ravonlik bilan belgilab olish yoki o'z davlatiga qo'shib olish siyosati, agressiyaning bir turi; shuningdek El-elatlarni begona davlat chegaralarida zo'rlik bilan tutib turish.

AN'ANALAR – o'tmishdan kelajakka meros qoladigan, avloddan-avlodga o'tadigan, jamiyat hayotining turli sohalarida namoyon bo'ladigan moddiy va ma'naviy qadriyat. A. – jamiyat hayoti turli sohalarining, moddiy va ma'naviy faoliyat shakllarining, kishilar o'rtasidagi aloqalar va munosabatlarning avloddan avlodga o'tishi, ajdodlar hayoti belgilari va xususiyatlarining takrorlanishi tarzi; dunyoda an'analar va urf-odatlariga ega bo'lmagan millat yoki elat yo'q.

APELLYATSIYA (lot. appellatio – murojaat qilish; shikoyat qilish; norozilik bildirish) – bir qancha xorijiy mamlakatlar huquqida hali qonun kuchiga kimagan sud hukmlari va qarorlari ustidan shikoyat berish. Sud hukmi ustidan shikoyat arizasi berishning bir shakli.

ARALASH QON (INSEST) – yaqin qarindoshlar bilan o'zaro jinsiy aloqa.

ARALASH SAYLOV TIZIMLARI – bir qator davlatlarda vakillik ikki tizimining proporsional va majoritar tizimlarning qo'yilishiga asoslangan saylov tizimlari amal qiladi.

ARALASHISH – aralash – turkiy, bir-birining orasiga kirib, birlashib ketgan. Eski o'zbek tilida birga ma'nosini anglatadi.

ARALASHMASLIK QOIDASI – butun davlatlar yoki xalqlarning ichki ishlariga aralashmaslik to'g'risidagi qoida.

ARALASHMASLIK SIYOSATI – hozirgi xalqaro siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri. Har bir davlatdan bevosita yoki bilvosita, yakka o'zi yoxud boshqa davlatlar bilan jamoa tarzida o'zga bir davlatning ichki va tashqi ishlariga aralashmaslikni taqozo etadi.

ARBITRAJ (fransuzcha, arbitrage) davlatlar orasidagi nizolarni tinch yo'l bilan hal etuvchi xalqaro organ.

ARIZA – huquqda (arz) – davlat organi, sud, korxon, muassasa, tashkilotga, jamoat birlashmasi va fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlariga biron-bir masala bo'yicha yakka tartibda yoki jamoa bo'lib og'zaki yoxud yozma ravishda qilingan shikoyat.

ASOS – arabcha, poydevor qo'ydi, ta'sis etdi so'zidan hosil bo'lgan bo'lib, tub qism, poydevor, negiz ma'nosini anglatadi. A. – mantiqiy tafakkurning muhim shakli hisoblangan xulosa chiqarishning tarkibiy qismlaridan biri. Chinligi amaliyotda tekshirilgan va isbotlangan ma'lum fikrni ifodalaydi.

ASSAMBLEYA (fransuzcha, assemblee - majlis) – 1) majlis; 2) bir qator mamlakatlarda davlat hokimiyati oliy organining, shuningdek, ayrim xalqaro tashkilotlar oliy organining nomi.

ATTASHE (fransuzcha – aynan, birkirilgan) – bir diplomatik martaba. A. martabasi deyarli barcha davlatlar qonun hujjatlariga binoan tashqi ishlar vaziri buyrug'i bilan diplomatik vakolatxonalar va idoralarning 2-3 yillik ish tajribasi bo'lgan xodimlariga beriladi.

AFV ETISH – sud hukmi bilan jazo tayinlangan biror shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish yoki unga berilgan jazoni yengillatish. Odatda, davlat boshlig'ining qarori bilan amalga oshiriladi.

AXBOROT – arabcha, xabarlar, ma'lumotlar kabi ma'nolarni anglatadi.

AXBOROT OLISH KAFOLATLARI VA ERKINLIGI – har bir shaxsning o'zi istagan axborotni izlash, olish va tarqatishga haqli ekanligi.

AHD – arabcha, tanidi, ishondi ma'nosini anglatuvchi so'z bo'lib, va'da, shartnoma kabi ma'nolarini anglatadi.

AXLOQ – arabcha, xulq so'zining ko'plik shakli bo'lib, xulq loyiq bo'ldi ma'nosi bilan hosil qilingan bo'lib, kishining yurish-turishda, muomalada o'zini tutishi kabi ma'nolarini anglatadi. A. – kishilarning bir-birlariga, oilaga, jamiyatga

bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan xatti-harakatlari, xulq-atvorlari, odoblari majmui.

AHOLI – yer yuzida yoki uning muayyan hududi, qit'a, mamlakat, tuman shaharida istiqomat qiluvchi odam (inson)lar majmui. A. o'rtasida sodir bo'layotgan jarayonlar biologik, geografik, ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirining natijasidir.

AHOLI MIGRASIYASI – aholining yashash joyini o'zgartirish bilan bog'liq ko'chish. A.m. aholining muhim muammolaridan biri bo'lib, unga kishilarning oddiy mexanik ko'chish harakati deb emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy hayotning ko'p tomonlarini qamragan murakkab ijtimoiy jarayon sifatida qaraladi.

AHOLI RO'YXATLARI - mamlakat yoki muayyan hududda ma'lum vaqt yoki davrda yashayotgan aholining demografik, iqtisodiy va ijtimoiy ma'lumotlarining jarayoni to'plami. Shuningdek, ushbu ma'lumotlarni yig'ish, ishlash va nashr etishni ham qo'shadilar.

AHOLINING MILLIY TARKIBI – muayyan hudud yoki mamlakatda yashovchi aholining millatlar tarkibi. A.m.t. haqidagi ma'lumotlar aholi ro'yxati o'tkazish va statistik ro'yxat olib borish yo'li bilan aniqlanadi.

ASHYOVIY DALIL – jinoyat yoki fuqarolik ishini to'g'ri yuritish uchun ahamiyatli bo'lgan narsalar. Amaliyotda «tilsiz guvohlar» deb yuritiladi. Kelib chiqishini, kimga tegishliligini, ma'lum maqsadlarda foydalanilganligini yoki turgan joyni o'zgarganligini, u yoki bu moddalar, narsa, jarayon va hodisalar ta'sir etganligini aniqlash mumkin bo'lgan moddiy belgilarga, shuningdek, ish holatlarini aniqlashga xizmat qiladigan har qanday boshqa alomatlar va belgilarga ega bo'lgan narsa a.d. hisoblanadi.

A'ZO – arabcha, tananing biror vazifani bajaruvchi qismi.

AQL – arabcha, asli yuksak darajada fikr yuritish qobiliyatiga ega bo'ldi ma'nosini anglatuvchi so'zdan yasalgan bo'lib, o'zbek tilida yuksak darajada fikr yuritish qobiliyati, zehn, es-hush kabi ma'nolarini anglatadi.

AQLI NORASOLIK – (jinoyat huquqida) ijtimoiy xavfli qilmishni sodir qilish vaqtida shaxsning ruhiy kasalligi tufayli o'z harakatlari yuzasidan o'ziga hisob bera olmaydigan va o'z harakatlarini idora qila olmaydigan holati.

AQLI RASOLIK – odamning ruhiy jihatdan sog'lom holati; jinoyat huquqida shaxsning sodir qilgan ijtimoiy xavfli qilmishini jinoyat deb hisoblash va jinoiy javobgarlikka tortishning huquqiy shartlaridan biri.

BAYoN – arabcha, ochiq-oydin bo'ldi ma'nosini anglatib, arab tilida aniqlik kirituvchi izoh kabi ma'noni, o'zbek tilida ma'lum bir fikr-mulohazalarning izhori ma'nosini anglatadi. Keyinchalik maktabda o'tkaziladigan yozma ish ma'nosini anglati boshlagan. B. – 1) voqeya, hodisa, fikr, mulohaza vash u kabining og'zaki yoki yozma ifodasi; 2) matnni o'qib yoki aytib berilganlar asosida yozib chiqilgan ish.

BAYoNOT – xalqaro huquqda bir yoki bir necha davlatning siyosiy territoriyasi yoki partiyalari, hukumati yoxud hukumatlarining bir yoki bir necha davlatlarga oid muhim masalalar yuzasidan o'z rasmiy fikrlari, qarashlari hamda

maqsadlarini, ma'lum xatti-harakatlarni qo'llab-quvvatlashlari yoki aksincha, qoralashlarini, ularga e'tiroz bildirishlarini ifodalaydigan hujjat.

BAYNALMILALChILIK (arabcha, baynalmilal - millatlararo) – jahondagi barcha millat va elatlarning tengligi, hamjihatligi nazariyasi va amaliyoti; ularning bir-birlarini tushunishlari va o'zaro ishonchining, madaniyatlar, qadriyatlar, bilim va texnologiyalar o'zaro singib borishining asosi; millatchilikning ziddi. Insoniyat tarixi turli millatlar va elatlar orasida iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma'naviy aloqalar o'rnatilib, ularning tobora mustahkamlanib borishi jarayonidir.

BAYRAM KUNLARI – muhim voqyealarga bag'ishlangan, an'ana sifatida nishonlanadigan, ish kuni hisoblanmaydigan kunlar.

BALOG'AT - arabcha, voyaga yetdi ma'nosidan hosil qilingan bo'lib, arab tilida so'z ishlatishdagi yetiklik ma'nosini anglatadi, o'zbek tilida bu so'z jismoniy jihatdan voyaga yetish ma'nosini anglatadi.

BANDLIK, aholini ish bilan ta'minlash – mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lishi, fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan va qonunlarga zid kelmaydigan, mehnat daromadi beradigan faoliyati.

BANKLAR (lot. vapsa – sarrof peshtaxtasi) – kredit-moliya muassasalari; asosan, vaqtincha bo'sh pul mablag'larini to'plash, korxonalar va umuman pulga muhtojlarga kredit, ssuda berish, naqd pulsiz hisob-kitoblarini amalga oshirish, pul va turli qimmatbaho qog'ozlar chiqarish, oltin va chet el valyutalari bilan bog'liq operatsiyalarni bajarish va boshqalar bilan shug'ullanadi.

BARKAMOL – arabcha, kamolga erishgan, har jihatdan yetik ma'nosini anglatadi.

BARQARORLIK (ijtimoiy, jamiyatdagi) – tinchlik, osoyishtalik va ijodiy mehnat muhiti qat'iy, uzil-kesil hamda mustahkam o'rnatilgan muhim sharoit. Barqarorlik har qanday bunyodkorlik faoliyatining zamini va zaruriy shartidir.

BARChA – turkiy, hamma. Qadimiy turkiy tilda mavjud ma'nosini anglatib hosil qilingan. Asli bu so'z qancha mavjud bo'lsa – shuncha ma'nosini bildirgan.

BEVOSITA – tojik tilida arabcha vosita so'ziga tojikcha inkor ma'nosini ifodalovchi be- old qo'shimchasi qo'shib yasalgan; vosita sifatida Hech narsa qatnashmagan holda, to'g'ridan-to'g'ri ma'nosini anglatadi.

BELGI – boshqalardan ajratish uchun qo'yiladigan alomat, tamg'a. Qadimiy turkiy tilda fraqlan, ma'lum bo'l ma'nosini anglatadi.

BILIM OLISH HUQUQI – fuqarolarning ijtimoiy huquqi.

BIPATRIDLAR (bi ... va yun. patris – vatan), bipolarlar – ayni bir vaqtda ikki va undan ortiq davlat fuqarosi bo'lgan shaxslar.

BIR TOMONLAMA AKT – xalqaro huquq subyektining bir tomonlama amalga oshirish va huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan harakati.

BIRGA – eski o'zbek tilida birgalikda, jam bo'lib ma'nosini anglatadi.

BIRLASHGAN MILATLARNING TA'LIM, ILM VA MADANIYAT MASALALARI BO'YICHA TASHKILOTI (YuNESKO) – 1946-yilda tashkil etilgan, BMT tizimiga kiruvchi maxsus tashkilot. (YuNESKO)ning maqsad va vazifalari: ta'lim, ilm va madaniyat sohasida xalqaro hamkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga hissa qo'shish; qonunchilik

va adolatlikka hurmat, irqi jinsi, tili va dinidagi tafovutdan qat'i nazar, inson huquqlari va erkinliklariga rioya qilishni ta'minlash.

BIRLASHGAN MILLATLAR – ikkinchi jahon urushi davri (1939-1945) da gitlerchilarga qarshi koalitsiyaga kirgan va 1945-yilda Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT)ni tuzgan davlatlarni anglatuvchi termin. BMTning qisqaroq nomi sifatida ham qo'llaniladi.

BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI (BMT) (ing. United Nations Organization, UNO, UN) – yer yuzida tinchlikni va xavfsizlikni ta'minlash, davlatlarning va millatlarning o'zaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida 1945-yilda ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan g'alaba qozongan mustaqil davlatlarning ixtiyoriy birlashishi asosida tuzilgan xalqaro tashkilot. BMTni barpo etish haqidagi qaror SSSR, AQSh, Angliya va Xitoy tashqi ishlar vazirining Moskvadagi kengashida 1943-yilda, Ustavi esa San-Fransisko konferensiyasida 1945 yilda qabul qilindi. BMT Ustaviga dastlab 51 davlat imzo chekkan, 2000 yilda esa ular soni 189 ga yetdi. BMTning doimiy ish o'rni (shtab kvartirasi) – Nyu-York. BMT Nizomi tinch hayot kechirish partiyasi, xalqaro ahloqning umum e'tirof etgan kodeksi sifatida tan olingan. U Muqaddima va 111 moddadan iborat. BMT Nizomining integral qismi BMT xalqaro sudining maqomi hisoblanadi. BMT Nizomining 1 – moddasida quyidagi ustuvor yo'nalishlari ilgari surilgan: halqaro tinchlik va havfsizlikni ta'minlash, tinchlikka qarshi samarali jamoaviy chora – tadbirlarini amalga oshirish, tinchlikning buzilishiga olib kelish mumkin bo'lgan halqaro baxslarni tinch yo'l bilan, halqaro adolat tamoyillariga rioya qilgan holda hal qilishga harakat qilish. BMT ga a'zolik har bir tinchliksevar va BMT Nizomida aks ettirilgan majburiyatlarini o'z zimmasiga olishga davlatlar uning ochiq BMT ga a'zolik Bosh Assambleya qarori bilan BMT Xavfsizlik Kengashi tavsiyanomasi bo'yicha amalga oshiriladi. 1992-yil 2-mart kuni O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning teng huquqli a'zosi sifatida bir ovozdan BMT ga qabul qilindi.

BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING BOLALAR JAMG'ARMASI (YUNISEF) – BMTning asosiy jamg'armalaridan biri. Uzoq vaqt davom etgan urush natijasida katta qiyinchiliklarga duchor bo'lgan Yevropa bolalariga g'amxo'rlik ko'rsatish maqsadida 1946-yilda tuzilgan. 1953-yildan BMTning doimiy tuzilmasiga aylangan. Yer yuzida, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlardagi bolalarning sog'lom va barkamol voyaga yetishiga ko'maklashish uning bosh tamoyilidir. Mazkur sohadadagi faoliyati uchun 1965-yilda Nobel mukofoti bilan taqdirlangan.

BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING BOSH ASSAMBLEYASI – BMT asosiy organlaridan biri, barcha a'zolarining umumiy yig'ilishi. Butun BMTga tegishli vazifalar hamda vakolatlarning Muhim qismini bajaradi. BMT barcha asosiy organlari orasida eng vakolatlisi. Shu organlarni shakllanishida ishtirok etadi. BMTga a'zo hamma davlatlar o'z vakillariga ega ega bo'lgan yagona organ. Mazkur vakillar ko'pi bilan 5 delegat va yana shuncha delegat o'rinbosari va zarur miqdordagi maslahatchilar va ekspertlardan tashkil topadi. BMTga a'zo davlatlarning barchasi BMT Bosh Assambleyasida teng huquqli, ya'ni har biri bir ovozga ega.

BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING IQTISODIY VA IJTIMOY KENGASHI (EKOSOS) - BMTning asosiy organlaridan biri. Uning xalqaro va ijtimoiy hamkorlik sohasidagi vazifalarining ijrosi uchun mas'ul tashkilot. BMT Bosh Assambleyasi saylaydigan 55 a'zodan iborat; ularning uchdan biri har yili qaytadan, BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zolari bo'lgan davlatlar esa uzluksiz a'zolar etib saylanadi. O'z vakolatlariga binoan, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ta'lim sog'liqni saqlash va hokazo sohalarga oid xalqaro masalalar yuzasidan tadqiqotlar o'tkazadi va ma'ruzalar tayyorlaydi; inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmatlashni rag'batlantirish maqsadida tavsiyalar ishlab chiqaradi; BMT Bosh Assambleyasiga taqdim etish uchun o'z faoliyat doirasiga kiradigan masalalar bo'yicha konvensiyalarning loyihalarini tayyorlaydi; mazkur masalalar yuzasidan konferensiyalar o'tkazadi.

BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING INSON HUQUQLARI UMUMJAHON DEKLARATSIYASI – BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan deklaratsiya. U muqaddima va 30 moddadan iborat bo'lib, uni qabul qilishdan maqsad har bir inson va davlat mazkur Deklaratsiyani nazarda tutgan holda ma'rifat va ta'lim orqali shu huquq va erkinliklar hurmat qilinishiga ko'maklashish lozim. Deklaratsiya har bir insonning tabiiy va ajralmas huquq va erkinliklari e'lon etilgan asosiy xalqaro hujjatdir. Shu tariqa xalqaro munosabatlar tarixida birinchi marta insonning hamma rioya etishi zarur bo'lgan asosiy huquqlari va erkinliklari doirasi belgilab berilgan. Deklaratsiyada «insoniyat oilasining hamma a'zolariga xos qadr-qimmatni, ularning teng va ajralmas huquqlarini tan olish – erkinlik, adolat va yalpi tinchlik negizi» ekanligi e'lon etilgan. Unga ko'ra, umum hurmat va rioya qilish shart bo'lgan inson huquqlari doirasi shaxsiy, siyosiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy huquqlardan iboratdir.

BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING OZIYQ-OVQAT VA QISHLOQ XO'JALIGI TASHKILOTI (FAO) – hukmatlararo jahon tashkiloti, BMTning ixtisoslashgan muassasasi. 1945-yil tuzilgan. Vazifasi: ovqatlanish, oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi masalalari bo'yicha ma'lumotlar yig'ish va ularni o'rganish, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqalarni ishlab chiqarish va sotishni yaxshilashga yordam berishdan iborat. Markaziy idorasi Rimda. 1999-yil oxirida tashkilotga 180 dan ortiq mamlakat a'zo bo'ldi.

BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING SANOATNI RIVOJLANTIRISH TASHKILOTI (YUNIDO) – BMTning xalqaro tashkilotlaridan biri. 1966-yilda rivojlanayotgan mamlakatlar sanoatini jadal taraqqiy ettirish va rag'batlantirish hamda BMTning mazkur sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida tuzilgan. Qarorgohi – Vena shahrida. YUNIDOga 150 davlat a'zo (1990).

BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING O'ZBEKISTONDAGI VAKOLATXONASI – BMT tizimidagi maxsus tashkilotlar faoliyatini birlashtirib, ular e'tiborini O'zbekiston Respublikasi hukumati belgilagan asosiy yo'nalishlarga qaratuvchi vakillik 1993-yil 24-avgustda ochilgan.

BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING XAVFSIZLIK KENGASHI – BMTning asosiy doimiy ishlovchi siyosiy organi; BMT Ustavi 24-moddasiga binoan xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlab turish uchun asosiy javobgarlik BMT Xavfsizlik Kengashi zimmasiga yuklatilgan. U xalqaro to'qnashuvlarni yoxud nizolarni keltirib chiqarishi ehtimol tutilgan har qanday nizo yoki holatni tekshirish vakolatiga, tinchlikka har qanday tahdid va uni har qanday buzish yoki agressiya hollarini aniqlash hamda xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlab qolish yoxud tiklash yuzasidan tegishli tadbirlarni belgilash hamda tavsiyalar berish huquqiga egadir. BMTga a'zo 15 davlat: 5 doimiy va 10 muvaqqat a'zodan iborat.

BIRLASHGAN MILLATLARNING TA'LIM, ILM VA MADANIYAT MASALALARI BO'YICHA TASHKILOTI (YUNESKO) – 1946-yilda tashkil etilgan, BMT tizimiga kiruvchi maxsus tashkilot. yuneskoning maqsad va vazifalari: ta'lim, ilm va madaniyat sohasida xalqaro hamkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali tinchilik va xavfsizlikni ta'minlashga hissa qo'shish; qonunchilik va adolatlilikka hurmat, irqi, jinsi, tili va dinidagi tafovutdan qat'iy nazar, inson huquqlari va erkinliklariga rioya qilishni ta'minlash.

BITIM – 1) huquqda shartnoma, kontrakt, xalqaro shartnoma, konventsiya tushunchalarining sinonimii. B. – fuqarolik huquqida fuqaro va yuridik shaxslarning fuqarolik huquqi va majburiyatlarini o'rnatish o'zgartirish va tugatishga qaratilgan harakat.

BMT ASSAMBLEYASI REZOLYUSIYASI - BMTning huquqiy aktlaridan biri bo'lib, yozma ravishda qabul qilinadi.

BMT BOSH ASSAMBLEYASI – Birlashgan Millatlar Tashkilotining asosiy organlaridan biri bo'lib, BMT Ustavi bo'yicha unga a'zo bo'lgan teng huquqli barcha davlatlardan iborat. BMT. B.A. katta vakolatlarga ega.

BMT BOSH ASSAMBLEYASI QO'MITALARI – BMT Bosh Assambleyasining yordamchi organlari bo'lib, Bosh Assambleya tomonidan uning funksiyalarini amalga oshirish uchun tuziladi.

BMT BOSH KOTIBI – BMT Ustaviga asosan, Ushbu tashkilotning bosh ma'muriy mansabdor shaxsi.

BMT YEVIROPA IQTISODIY KOMISSIYASI (YEIK) – BMTning mintaqaviy xalqaro organi 1947-yilda EKOSOS qaroriga muvofiq, urush tufayli xonavayron bo'lgan mamlakatlarga yordam berish borasida kelishilgan harakatlarga ko'maklashish maqsadida Yevropani iqtisodiy jihatdan tiklash bo'yicha BMTning 5 yil muddatga vakolatli bo'lgan muvaqqat organi sifatida ta'sis etilgan.

BMT IQTISODIY VA IJTIMOY KENGASHI (EKOSOS) – BMTning bosh organlaridan biri. BMT Bosh Assambleyasi rahbarligida uning iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatini, shuningdek, uning maxsus va boshqa ko'plab tashkilotlarini tartibga solib turuvchi organ.

BMT KOTIBIYATI – BMTning bosh organlaridan biri bo'lib, BMTning qaror va tavsiyanomalarini amalga oshiradi.

BMT TIZIMI – bir qancha huquq va majburiyatlar (vakolatlar)ga ega bo'lgan xalqaro tashkilotlar yig'indisi.

BMT USTAVI – ikkinchi jahon urushi yillarida Gitlarga qarshi kaolisiyaning yetakchi mamlakatlari (SSSR, AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya va Xitoy) tomonidan ishlab chiqilgan va 1945-yilda San-Fransiskodagi konferensiyada batamom kelishib olingan ko'p tomonlama xalqaro bitim.

BMT XAVFSIZLIK KENGASHI – BMTning doimiy amal qiluvchi asosiy siyosiy organi, BMT Ustaviga ko'ra unga xalqaro tinchilik va xavfsizlikni saqlab turish bo'yicha asosiy javobgarlik yuklangan.

BMT XALQARO SUDINING KONSULTATIV XULOSASI – BMT Xalqaro Sudi unga kelib tushayotgan so'rovlarga asosan turli xil yuridik masalalarga xulosa beradi.

BMTNING IXTISOSLASHGAN MUASSASALARI – iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa sohalarida faoliyat ko'rsatadigan xalqaro hukumatlararo tashkilotlar.

BMTNING OZIQ-OVQAT VA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BO'YICHA TASHKILOTLARI (FAO) – xalqaro tashkilot bo'lib, qishloq xo'jaligi, baliqchilik va o'rmonchilikni rivojlantirish maqsadida 1945-yil 16-oktyabrda tuzilgan.

BOJXONA – davlat chegarasidan o'tadigan va o'tkaziladigan mol-mulklar hamda transport vositalarini nazoratqiluvchi, shuningdek yuk egalaridan belgilangan tartibda bosh (poshina) va boshqa yig'imlarni undiruvchi davlat muassasasi.

BOZOR IQTISODIYOVI – jamiyat taraqqiyotini tezlashtiruvchi iqtisodiy aloqalar majmui. Bozor iqtisodiyotining mohiyati shundan iboratki, u barcha jamiyat a'zolarini ishlab chiqarish va iste'mol orqali doimiy hamda to'xtovsiz musobaqaning ishtirokchilariga aylantiradi, shu boisdan bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarishning kun sayin takomillashuviga, mahsulot sifatining yaxshilanib borishiga, miqdorining esa ko'payishiga sababchi bo'ladi.

BOLA HUQUQLARI TO'G'RISIDA KONVENTSIYA – bolalar huquqi to'g'risidagi xalqaro huquq normalari kuchiga ega bo'lgan hamda kelajakka qaratilgan eng to'la va birinchi hujjat. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1989-yil 20-noyabrda bir ovozdan qabul qilingan. Konventsiya 1959-yilda qabul qilingan Bola huquqlari deklaratsiyasi qoidalarini rivojlantiradi.

BOLALAR HUQUQI – inson huquqlarining bolalarga taalluqliligi. Bir qator davlatlarda bolalarning huquqi ba'zi jihatlari bilan tenglashganligini e'tiborga olgan holda, bolalarni o'spirinlardan farqlash, oilaviy huquqlarini kafolatlash maqsadida vujudga kelgan.

BOLALARNI FARZANDLIKKA OLISH – oila huquqining farzandlikka olingan bola va uni farzandlikka oluvchi shaxs o'rtasida ota-ona va bola o'rtasidagi munosabatga o'xshash huquqiy (shaxsiy va mulkiy) munosabatlar o'rnatiladigan institutlardan biri, yuridik harakat.

BOLALIK (bola) – qadimiy turkiy tilda, go'dak, farzand ma'nosini anglatadi.

BOLANING KELIB CHIQISHINI ANIQLASH – bolaning muayyan onadan (onalikni aniqlashda) va muayyan otadan (otalikni aniqlashda) tug'ilganligi faktini aniqlash.

BOSH KONSUL – alohida bosh konsullikni boshqaradi. Uning huquqiy holati va ishining mazmuni umuman konsulniki bilan bir xil.

BOSH PANA HUQUQI – hozirgi xalqaro va davlatlar ichki huquqiy tizimining institutlaridan biri. Davlatlar tomonidan biror fuqaro yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga beriladigan huquq. Xalqaro huquqda B.h. asosiy xalqaro-huquqiy odatlarga, shuningdek BMTning Bosh Assambleyasi 1967-yil 4-dekabrda qabul qilingan Hududiy boshpana to'g'risidagi deklaratsiyaga binoan amalga oshiriladi. Davlat ichki huquqida B.h. hozirgi demokratik davlatlarning Konstitutsiya va qonunlariga ko'ra, ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga beriladigan alohida shaxsiy huquq.

BURCh – kishining biror shaxs, oila, jamoa, el-yurt, Vatan oldidagi majburiyatini anglatuvchi axloqiy tushuncha. B.da obyektiv munosabatlar ifodalanadi, ya'ni u jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va axloqiy negizlari bilan belgilanadi. B.ning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, u insonning ichki kechinmalari, tashqaridan turib nazorat qilinmaydigan murakkab ruhiy holatini ifodalaydi.

VAZIRLAR MAHKAMASI – ba'zi davlatlarda, shu jumladan O'zbekistonda, hukumatning nomi; mustaqil O'zbekiston Respublikasining hukumati 1992-yilda qabul qilingan Konstitutsiyaga ko'ra Vazirlar Mahkamasi deb nomlanadi.

VAZIFA – arabcha, asli lavozim, ish berdi ma'nosini anglatuvchi so'zdan hosil qilingan bo'lsa, arab tilida lavozim, vazifa, maosh ma'nolarini, o'zbek tilida lavozim, vazifa, topshiriq ma'nolarini anglatadi.

VAKIL – arabcha, topshirdi, ishondi ma'nosini anglatuvchi so'zdan hosil bo'lgan bo'lib, kimningdir nomidan ish yuritishga ishonch bildirgan shaxs ma'nosini anglatadi. V. – elchilik va o'zaro aloqalar bo'yicha vakil. Ko'p hollarda V. nomi davlatlarning nomi yoki vakolat yo'nalishi bilan birga to'liq aytilishi mumkin.

VAQT – arabcha, muddat belgiladi ma'nosi bilan hosil qilingan bo'lib, zamon, fursat, payt kabi ma'noni umumlashtirgan holda anglatadi.

VASIY – arabcha, kishi o'zi vafot etganidan keyin oila a'zolariga ma'lum muddat moddiy va ma'naviy rahnamolik qilishni topshirdi ma'nosi bilan hosil qilingan bo'lib, o'zbek tilida kimningdir vafotidan keyin marhumning voyaga yetmagan farzandlariga moddiy va ma'naviy rahnamolik ko'rsatishni zimmasiga olgan shaxs ma'nosini anglatadi.

VASIYLIK KENGASHI – BMTning xalqaro vasiylikning amalga oshirilishini nazorat qiluvchi asosiy organlaridan biri. Hozirgi vaqtda barcha vasiylikdagi hududlarga mustaqillik berilganligi sababli bunday organga ehtiyoj qolmadi.

VATAN (arabcha, vatan – ona yurt) – kishilarning tug'ilib o'sgan joyi, yurti, mamlakati; tarixan muayyan xalqqa tegishli hudud hamda uning tabiati, aholisi, o'ziga xos taraqqiyoti, tili, madaniyati, turmushi va urf-odatlar majmui. V. oldidagi qarzdorlik tuyg'usi, mas'uliyati har bir yetuk insonga xos xususiyatdir.

VATANPARVARLIK – kishilar ona yurtiga, o'z vataniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. V. barcha kishilar, xalqlar, millatlar uchun umumiy bo'lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u, ma'naviy qadriyatlardan biri. V. – kishining o'zi tug'ilib o'sgan, kamol topgan joy, zamin, o'lkaga bo'lgan mehr-muhabbatini, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy xislatlari, fazilatlaridir.

VAHShIYoNA – arabcha, vahshiy yo'sinda, yirtqichlarcha ma'nosini anglatadi.

VENA KONVENTSIYALARI (1961 va 1963) – diplomatik va konsullik munosabatlariga bag'ishlangan konventsiyalar. Diplomatik munosabatlar to'g'risidagi Vena konventsiyasi 1961-yil 18-aprelda Vena shahrida, diplomatik munosabatlar va immunitetlar masalalari bo'yicha BMT konferensiyasida qabul qilingan. Konsullik aloqalari to'g'risidagi Vena konventsiyasi 1963-yil mart-aprelda BMT xalqaro huquq hay'atining loyihasini ko'rib chiqish uchun 92 davlat vakillari qatnashgan Vena konferensiyasida qabul qilingan.

VIJDON – arabcha, his qildi, sezdi ma'nosi asosida hosil qilingan bo'lib, arab tilida hissiyot, kishining ichki dunyosi, ruh, ko'ngil, or-nomus ma'nolarini, o'zbek tilida faqat or-nomus ma'nosini anglatadi. V. - axloqiy tushuncha, yaxshilik nima-yu, yomonlik nimaligiga javob beradigan ichki ishonch, o'z xatti-harakatlari uchun axloqiy mas'uliyatni anglash. V. Shaxsning axloqiy jihatdan o'z-o'zini nazorat qila olish, o'zida axloqiy burchni mustaqil shakllantirish hamda o'zidan uni ado etishini talab qilish va o'z xatti-harakatlariga baho berish qobiliyatini ifodalaydi.

VIJDON ERKINLIGI – ijtimoiy-falsafiy tushuncha; har kimning o'z e'tiqodiga ko'ra, mazkur jamiyatda mavjud ijtimoiy me'yorlarni buzmaganda holda vijdoni buyurgani bo'yicha yashash, ishlash imkoniyati. Bunda dinga munosabat masalaning bir tomoni hisoblanadi. Siyosiy jihatdan V.e. ga demokratiya ko'rinishlaridan biri sifatida qaraladi. Yuridik nuqtai nazardan V.e. insonning asosiy shaxsiy huquqlari sirasiga kiradi va demokratik erkinliklardan biri hisoblanadi. V.E. – insonning hohlagan dinga e'tiqod qilish yoki Hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqini ta'kidlovchi, BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan 36-55 – Rezolyutsiyasida qayd qilingan insonning asosiy huquqlaridan biri.

VOSITA – arabcha, o'rtada bo'ldi ma'nosini anglatib, biror ishni amalga oshirishda ko'maklashuvchi narsa ma'nosini anglatadi.

VOSITACHi – ombudsman so'zining tub ma'nosi. Shvetsiyada dastlabki Konstitutsiyaviy normalarning vujudga kelishi va davlat boshqaruvi idoralari va sudlar tomonidan ularning bajarilishini nazorat qilish zarurati tufayli vujudga kelgan mansabdor shaxs. 1809-yildan faoliyat ko'rsata boshlagan.

VOSITACHILIK – xalqaro munosabatlarda vujudga kelgan o'zaro tortishuvlarni hal qilishning bir usuli. Bunda o'zaro munosabatlardagi tortishuvlarni tinchlik yo'li bilan hal etishga, tortishuvlardan xoli bo'lgan davlat (shaxs yoki davlatlar orqali) yoki xalqaro tashkilotlar ko'magidan foydalanish.

GAAGA KONVENTSIYALARI – 1) Gaaga shahrida o'tkazilgan birinchi va ikkinchi konferensiyalarida (1899 va 1907) urush olib borish qonun-qoidalari to'g'risidagi xalqaro konvensiyalar; 2) xalqaro xususiy huquq bo'yicha 1902-05, 1954, 1955, 1956, 1961-yillarda tuzilgan va boshqa konvensiyalar.

GENOTSID – milliy, etnik, irqiy yoki diniy guruhni Ushbu guruh a'zolarini o'ldirish, ularning sog'lig'iga og'ir ziyon yetkazish, bolalar tug'ilishiga kuch ishlatib to'sqinlik qilish, bolalarni majburan topshirish, kuch ishlatib ko'chirish yoxud Ushbu guruh a'zolarini jismonan yo'q qilishga qaratilgan boshqa sharoitlarni yaratish orqali to'la yoki qisman yo'q qilish.

DIPLOMATIK AGENT – diplomatik munosabatlar to'g'risidagi 1961-yilgi Vena konvensiyasiga binoan, diplomat, ya'ni diplomatik vakolathona diplomatik personalning a'zosi, lavozimiga ko'ra diplomatik vakolathona funksiyasini amalga oshirishda bevosita ishtirok etuvchi shaxs.

DIPLOMATIK BOSHQARUV – biror shaxsga siyosiy sabablarga ko'ra ta'qib qilishdan xorijiy diplomatik vakolatxona yoki konsullik vakolatxonasida, shuningdek, xorijiy xarbiy kemada yashirinish uchun imkon beradi.

DAVLAT – arabcha, davlat 1 - hokimiyat, davlat 11 – boylik. Davlat 1 – qisqa muddatga saylangan, belgilangan, boshqaruv organi ma'nosini anglatgan bo'lsa kerak, hozirgi ma'nosi keyinchalik yuzaga kelgan. 1) Davlat va huquq nazariyasida – jamiyatni tashkil etishning butun jamiyatga tatbiq etiladigan, uning rasmiy vakili bo'lgan va zarur hollarda majburlash vositalari va choralariga tayanadigan muayyan usuli, siyosiy tizimning asosiy elementi, ommaviy siyosiy tizim tashkiloti; 2) Konstitutsiyaviy huquqda mamlakat yoki federatsiya subyektlari yoxud hududiy hamjamiyat qonun chiqarishda muxtoriyatidan foydalanadigan va mahalliy agentlariga ega bo'lgan hududiy hamjamiyat miqyosida amal qiluvchi rasmiy hokimiyat idoralarining yig'indisini bildiradigan tushuncha; 3) xalqaro huquq subyekti sifatida – xalqaro munosabatlarning asosiy manbai bo'lib, hokimiyatning siyosiy tashkiloti bo'lmish D. va muayyan hudud egasi bo'lgan aholini o'z ichiga oladi. D. – mamlakat miqyosida jamiyatni uyushtirish masalalarini hal qilish, uning tashqi munosabatlarini belgilash vakolatlari bo'lgan hukmron tuzilma. D. jamiyatni o'z qonun qoidalari ko'ra idora qiladi, turli tip, shakllarda tashkil topadi.

DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMI – ijro hokimiyatini amalga oshiruvchi idoralar tizimi, ya'ni ijro etish va farmoyish berish faoliyatini amalga oshiruvchi organlar tizimidan iborat.

DAVLAT BOSHQARUVIDA ISHTIROK ETISH HUQUQI – davlat boshqaruvida fuqarolarning ishtirok etishi, siyosiy huquqlarning Konstitutsiyaviy ifodasi. Saylash, saylanish, referendumda ishtirok etish, sud ishlarini yuritishda qatnashish kabilar kiradi.

DAVLAT BOSHQARUVINING PREZIDENTLIK SHAKLI – davlat boshqaruvining samarali shakllaridan biri, davlatlarni boshqarish san'ati, nazariyoti va amaliyotining taraqqiyoti natijasida tarixiy tajriba asosida tanlab olingan yo'llaridan biri.

DAVLAT DINI (RASMIY DIN) – tegishli diniy institutning davlat rasmiy tashkiloti tarkibidagi qismi deb tan olinishini bildiradigan Konstitutsiyaviy-huquqiy institut.

DAVLAT MUSTAQILLIGI RAMZLARI – davlatning timsollari, ya'ni uning suverenitetini, milliy va iqtisodiy ko'rsatkichlarini, siyosiy-ijtimoiy tuzumini, asosiy mafkura va hayot qoidalarini ko'rsatuvchi belgilar, eng muhim hujjatlar, g'oyalari va tushunchalar.

DAVLAT RAMZLARI – davlat mustaqilligini shartli ravishda belgilovchi tashqi belgi, nishona yoki timsollardir.

DAVLAT TILI – davlat aholisi ko'pchiligi yoki asosiy qismining ushbu davlatda Konstitutsiya asosida davlat tili sifatida belgilangan tili.

DAVLAT TUZILISHI VA ULARNING SHAKLLARI – davlat o'z tuzilishi jihatdan uch turda: federativ, konfederativ va unitar tarzda bo'lishi mumkin.

DAVLAT CHEGARASI – davlatning zaruriy belgilaridan biri. Har qanday davlat o'z hududiy chegarasiga egadir. Davlat hududining boshqa davlat hududi bilan tutash chizig'i davlat chegarasi deb e'tirof etiladi.

DAVLATLARARO TUZILMALAR – davlatlararo doimiy va vaqtincha faoliyat ko'rsatuvchi, davlatlararo shartnomalar asosida tashkil etiluvchi ittifoq.

DAVLATLARARO SHARTNOMA – ikki yoki bir nechta mustaqil davlatlar o'rtasida ma'lum muddatga yoki muddatsiz vaqtga tuzilgan shartnomalar.

DAVLATNING DAXLSIZLIK HUQUQI – xalqaro huquq prinsipi shundan iboratki, unga binoan barcha mustaqil mamlakatlarda bir davlat boshqa davlatga nisbatan hukmronligini amalga oshirishi mumkin emas.

DAVRIY – arabcha, takrorlanadigan ma'nosini anglatadi.

DAM OLIISH KUNLARI - har haftalik uzluksiz dam olish kunlari. O'zbekiston Respublikasida barcha xodimlarga 5 kunlik ish haftasida haftada 2 dam olish kuni, 6 kunlik ish haftasida esa, 1 dam olish kuni beriladi. Umumiy dam olish kuni yakshanbadir.

DAM OLIISH HUQUQI – O'zbekiston Respublikasida amaldagi qonunlar asosida fuqarolarning mehnat huquqlarini ta'minlash sharti. O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 1-moddasida belgilanishicha, «Dam olish vaqti – xodim mehnat vazifalarini bajarishdan xoli bo'lgan va bundan u o'z ixtiyoriga ko'ra foydalanishi mumkin bo'lgan vaqtdir». Shunga asosan MK tegishlicha dam olishni tashkil etish shartlarini belgilab bergan. Unga ko'ra, dam olish ish kuni davomida, kundalik dam olish, dam olish kunlari, bayram kunlari, dam olish va yillik ta'tillardan iboratdir.

DARAJA – arabcha, asta-sekin o'sdi, rivojlandi ma'nosi bilan hosil qilingan bo'lib, arab tilida 6 ma'noli, o'zbek tilida 9 ma'noli so'z sifatida izohlangan; pog'ona, bosqich ma'nosini anglatadi.

DASTUR – 1) biron-bir faoliyat, ishning mazmuni va rejasi; 2) siyosiy partiyalar, tashkilotlar alohida arboblari faoliyatining asosiy qoidalarini va maqsadlarini bayoni; 3) o'quv fani mazmunining qisqacha izohi; 4) teatr, konsertlar va boshqa tomoshalarda chiqish navbatlari, ijrochilar, ishtirok etuvchi shaxslar ro'yxati.

DAXLSIZLIK – arabcha, uch xil ma’noni anglatadi: 1) aloqasi yo’q; 2) tashqi hamladan, hujumdan yetarli darajada himoyalangan; 3) jinoiy javobgarlikka tortilishdan himoyalangan.

DAXLSIZLIK HUQUQI – (ing. Immunity, lot. Imminitas – nimadandir ozod qilish) – ma’lum doiradagi huquq subyektlarining umumiy huquqiy normalar ta’siridan ozod qilishni bildiruvchi umum huquqiy ibora.

DEKLARATSIYA (lot. declaratio – ma’lum qilaman, e’lon qilaman; fr. declaration - bayonot) – bir yoki bir necha hukumatlar. Siyosiy partiyalar, xalqaro yoki jamoat tashkilotlarining dasturiy hujjat. Muhim xalqaro voqyea, qonun va hakoazolarni umum e’tiboriga yetkazuvchi bayonoti; umum siyosiy prinsiplarni tantanali ravishda e’lon etish. D. – 1) Konstitutsiyaviy huquqda alohida siyosiy-yuridik hujjatlarning ularga tantanali xususiyat berish, ularning tegishli davlat taqdiri uchun kata ahamiyatini ta’kidlash maqsadida ega bo’lgan nomi. D.ning o’ziga xos jihati shundaki, ulardagi qoidalar o’ta umumiy, nomuayyan xususiyatga ega bo’lib, qo’shimcha ravishda qonun bilan tartibga solishini talab etadi. 2) Xalqaro huquqda tomonlar bilan kelishilgan qoidlar va maqsadlarni ifodalovchi tantanali hujjat. Majburiy xususiyatga ega emas. Davlatlar uchun majburiy bo’lib qolgan 1948-yilgi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi bundan mustasno.

DEKRET (lot. decretum – farmon, qaror) – umumiy yoki xususiy normativ hujjatning nomi.

DEKRET QONUNLAR – Italiya, Ispaniya va ba’zi bir boshqa mamlakatlarda «o’ta zarur va shoshilinch hollarda» hukumat tomonidan uning javobgarligi ostida qabul qilinadigan va qonun quchiga ega bo’lgan vaqtinchalik xujjatlarning nomi.

DELIKT – (lot. Delictum - buzish, ayb) - aynan ayb (fuqarolik, ma’naviy, intizomiy huquqbuzarlik.)

DEMOKRATIYA (qadimiy yunon tilida demos – xalq va kratos hokimiyat) – xalq hokimiyati ma’nsosini anglatadi. Fuqarolar erkinligi va tengligi qonunlarda mustahkamlangan, xalq hokimiyatchiligining vosita va shakllari amalda o’rnatilgan va yuzaga chiqarilgan siyosiy tuzum. D. davlat bilan inson munosabatlarini belgilaydi. D. - hozirgi tushunishda davlat tuzilishining Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi, xalq xokimiyatchiligi va siyosiy plyuralizm, fuqarolarning erkinligi va tengligi, inson huquqlarining ajralmasligi, prinsiplarini e’tirof etishga asoslangan shakl.

DENONSATSIYA (fransuz. denoncer – e’lon qilish, uzish), denonsatsiya qilish – xalqaro huquqda ikki tomonlama xalqaro shartnoma amal qilishni yoki ko’p tomonlama xalqaro shartnomadan chiqishning eng keng tarqalgan usuli. Odatda, shartnomaning o’zida nazarda tutilgan tartib va muddatlarda amalga oshiriladi.

DEPORTATSIYA (lot. deportatio xaydash, surgun qilish) - huquq fanida d. termini orqali XU111 – XIX asrda Fransiya jinoyat qonunlari bo’yicha qo’llanilgan surgunlarning alohida turli ifodalangan. D. ko’p holda u yoki bu davlatga g’ayriqonuniy ravishda kirib kelgan ajnabiy fuqarolar yoki fuqaroligi bo’lmagan shaxslarga nisbatan qo’lga kiritildi. D. – jinoiy yoki ma’muriy jazo chorasi sifatida davlatdan majburan chiqarib yuborish, haydash.

DIN – arabcha, asli itoat qildi ma’nosini anglatib ilohiy kuchga sig’indi ma’nosi bilan hosil qilingan, ilohiy kuchga asoslangan ta’limot ma’nosini anglatadi. **D.** – xudo yoki xudolar, g’ayritabiiy kuchlar mavjudligiga ishonish. **D.** muayyan ta’limotlar, his-tuyg’ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyati orqali namoyon bo’ladigan, olam hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida tarzi, uni idrok etishning o’ziga xos usuli.

DIN VA DINLAR (arabcha, din – e’tiqod, ishonch) – ijtimoiy hayotni, voqyelikni, uning hodisalarini o’ziga xos tarzda in’ikos ettiruvchi ijtimoiy ong shakllaridan biri. Din ibtidoiy jamoa tuzumi davrida vujudga kelgan va o’sha davrda yashagan insonlarning dunyoqarashini aks ettirgan. Din dunyo, inson. Mavjudotlarning kelib chiqishini. Hayotning mazmuni va ma’nosi, insonning yashashdan maqsadlari kabi savollarga o’zicha javob beruvchi dunyoqarash shakli bo’lib kelgan.

DINGA E’TIQOD QILISH ERKINLIGI - insonning shaxsiy erkinliklardan biri hisoblanib, shaxs qaysi dinga e’tiqod qilishni o’zi belgilaydi, Hech kimning uni majburlashga haqqi yo’q.

DINIY TASHKILOT VA UYUSHMALAR – ijtimoiy jarayonlarning mustaqil sube’ktlari sifatida faoliyat ko’rsatuvchi cherkovlar, jamoalar, missiyalar, o’quv muassasalari va boshqa diniy tashkilotlar Konstitutsiya qoidalariga binoan tuziladi.

DIPLOMANT – (fr. diplomate) – tashqi munosabatlar idorasining (markaziy yoki horijiy apparatda) ushbu idoraning horijiy davlat va xalq tashkilotlari bilan rasmiy aloqalar qilishda egallab turgan lavozimga ko’ra bevosita ishtirok etuvchi xodim.

DIPLOMATIK VAKOLATXONA – o’zaro kelishuv asosida bir davlat boshqasining hududida doimiy rasmiy aloqalarni saqlab turish uchun tuzadigan va tegishli davlatlarning o’zaro munosabatida yuzaga keluvchi siyosiy va boshqa masalalar bo’yicha uni ta’sis etgan davlat nomidan chiqadigan xorijiy tashqi aloqalar organi.

DIPLOMATIK DAXLSIZLIK HUQUQI - diplomatik vakolatxonalarning daxlsizlik huquqi va imtiyozlari, xalqaro tashkilotlarning daxlsizlik huquqi va imtiyozlari; BMT, davlatlarning BMT qoshidagi vakolatnomalarni daxlsizlik huquqi va imtiyozlari.

DIPLOMATIYA – (fr diplomatie) – davlatning tashqi siyosatini amalga oshirish usullaridan biri. **D.** – davlat, hukumat boshliqlari va maxsus tashqi aloqa organlarining, davlatning tashqi siyosatining maqsad va vazifalarini, shuningdek, chet ellarda davlatning huquq va manfaatlarini himoyalashni amalga oshirishga qaratilgan rasmiy faoliyati.

DIPLOMATIYA ISHONCHLI VAKILI – diplomatiya to’g’risidagi 1961-yilgi Vena konventsiyasi hamda xalqaro normalari va qoidalariga muvofiq diplomatiya xodimlari uchun diplomatiya darajalari va martabalari boshlab berilgan.

DISKRIMINASIYA – (lot.diseriminatio – farqlash) – odatda davlat yuridik yoki jismoniy shaxs huquqlarining (boshqa davlat, yuridik yoki jismoniy shaxs huquqlariga nisbatan) cheklanishni bildiruvchi umum huquqiy termin.

DOIRA – arabcha, o'zbek tilida aylana, to'garak ma'nosi sifatida ishlatiladi.

DOMITSIL – bir hamkor chet davlatlarida fuqaroning doimiy turar joyini yoki yuridik shaxsning ro'yxatdan o'tgan joyini bildiradi.

DUNYO – arabcha, yaqin bo'ldi, yaqin joyda joylashdi ma'nosini anglatgan so'zdan hosil qilingan, borliq, ko'z o'ngidagi olam ma'nosini anglatadi.

YoZIShMA – yoz – qadimiy turkiy tilda tovushlarni ma'lum shakllar bilan qog'ozga yoki boshqa bir narsada aks ettirish ma'nosini anglatadi.

YoZIShMALAR SIRI – insonning Konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bo'lib pochta va telegraf jo'natmalari (xat, telegramma, pasilkalar o'tkazmalar) telefon so'zlashuvlari va boshqa xabarlarning barcha turlari daxlsizligini o'z ichiga oladi.

YoSh – qadimiy turkiy tilda bir yilga teng umr.

JAZO – arabcha, aybi yoki jinoyat uchun qattiq chora ko'rdi ma'nosi bilan hosil qilingan bo'lib, qilmishiga yarasha amalga oshiriladigan chora ma'nosini anglatadi. **J.** – jinoyat qonunchiligiga asosan jazo jinoyat sodir etilishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat nomidan sud hukmi bilan qo'llanadigan va mahkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklamalardan iborat majburlov chorasidir.

JAMIYaT – arabcha, o'zbek tilida birlashma, tashkilot, ijtimoiy taraqqiyotning ma'lum bir bosqichi kabi ma'nolarini anglatadi. **J.** – odamlarning uyushgan ehtiyojlari qondirishni ta'minlovchi, ixtiloflarni bartaraf qiluvchi, madaniyatni saqlab rivojlantiruvchi, madaniyat majmuasi va uning qismlari asosida tashkil topgan ijtimoiy hayot shakllarining sintezi, turli ijtimoiy, tabaqalarni, shaxslarni, oilalarning bir-biriga zid manfaatlarini birlashtiruvchi, integrallashtiruvchi ongli ijtimoiy harakatlar majmui, ularning munosabatlarini belgilovchi, ijtimoiy munosabatlarining umumiy shakllarini yaratuvchi tashkilot va muassalarning yig'indisi.

JAMIYaT SIYoSIY TIZIMI VA DEMOKRATIYa – xalq hokimiyati, xalqni hokimiyat manbai, deb biluvchi, tenglik va ozodlik tamoyillariga asoslangan jamiyat siyosiy tizimining shalkidir. Demokratik jarayon davlat hayotining deyarli barcha tomonlarini o'z ichiga qamrab oladi. Xalq bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarning tub mohiyatini demokratiya belgilaydi.

JAMOAT – arabcha, to'pladi, jamladi ma'nosi bilan hosil qilingan, arab tilidan bir to'da odamlar ma'nosi bilan qabul qilingan.

JINOIY – arabcha, jinoyat qildi ma'nosini anglatuvchi so'zdan hosil qilingan bo'lib, jinoyat deb qaraladigan, jinoyat bilan bog'liq kabi ma'noni anglatadi.

JINOYaT - arabcha, asli jazoga loyiq, g'ayriqonuniy xatti-harakatlar qildi ma'nosini anglatadi, jazoga loyiq, g'ayriqonuniy xatti-harakatlar ma'nosini anglatadi.

JINS – arabcha, bir xillikkka keltirdi, bir-biriga o'xshash qildi kabi ma'noni anglatadi, o'zbek tilida erkak yoki urg'ochi turdan har biri ma'nosini anglatadi.

JINS TSENZI (FAOL VA PASSIV) – saylash huquqini jins bo'yicha qonuniy cheklash, aynan ayollarga saylovda qatnashishini rad etish.

ZARUR – arabcha, o'zbek tilida eng kerakli ma'nosini anglatadi.

ZULM – arabcha, adolatsizlik qildi, jabr qildi ma'nosini anglatuvchi so'zdan hosil bo'lib, jabr, ezish kabi ma'nolarini anglatadi.

IBODAT – arabcha, sig'indi, sajda qildi ma'nosini anglatuvchi so'z bo'lib, sig'inish, Ollohga qulluq qilish ma'nosini anglatadi.

IDORA - arabcha, faoliyat ko'rsatdi ma'nosi bilan hosil qilingan boshqaruvchi tashkilot, boshqaruv tashkiloti o'rnashgan bino ma'nolarini anglatadi.

IJTIMOIIY – arabcha, asli to'pladi, qo'shdi ma'nosi bilan hosil qilingan, kishilik jamiyatiga doir, sosial kabi ma'nolarini anglatadi.

IJTIMOIIY NAFAQA – davlat tomonidan u yoki bu turdagi nafaqa olishga huquqi yo'q fuqarolarga tayinlanadigan nafaqa. Bu turdagi nafaqa bolaligidan nogironlar va mehnat nogironlariga tayinlanadi.

IJTIMOIIY TA'MINOT – qariyalar va mehnatga layoqatsiz fuqarolar, shuningdek, bo'lgan oilalarni ta'minlash va xizmat ko'rsatish tizimi.

IJTIMOIIY TA'MINOT OLISH HUQUQI – fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy huquqlaridan biri. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 39-moddasida «Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega. Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordamning boshqa turlari miqdori rasman belgilab qo'yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emas», deb belgilangan. Shunga ko'ra, fuqarolarning bu huquqlari tegishli qonunlar asosida ta'minlanadi.

IJTIMOIIY HUQUQLAR – inson va fuqarolarning davlatdan muayyan moddiy yordam olishlariga imkon beruvchi ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy yordam olish huquqi, uy-joy (olish) huquqi, malakali tibbiy xizmat olish huquqi, bilim olish huquqi, ilmiy va texnikaviy faoliyat erkinligi kabi huquq va erkinliklar kiradi.

IZLA – axtar, qidir. Qadimiy turkiy tilda biror narsadan qolgan nishona ma'nosini anglatadi.

IQTISOD – arabcha, tejamlil bo'ldi ma'nosi bilan hosil qilingan bo'lib, tejamlilik, tejab-tergab sarflash ma'nosini anglatadi.

IQTISODIIY – arabcha, iqtisodga oid ma'nosini anglatadi.

IQTISODIIY MADANIYAT - jamiyat a'zolarining iqtisodiy hayotdagi ommaviy ijodiy ishtirokining, ularning iqtisodiy bilimlari, xo'jalik yuritishdagi mahorati va malakasi, iqtisodiy fikrlashi va tafakkuri rivojlanganligining sifat tavsifi.

IQTISODIIY HUQUQLAR – iqtisodiy sohadagi inson faoliyatining yuridik jihatdan belgilovchi huquqlarning majmui. I. H. – iqtisodiy huquq va erkinliklarga mehnat qilish huquqi, kasb va mehnat uchun sharoitlar yaratish huquqi. Xususiy mulkchilik huquqi, bankka qo'yilgan omonatni sir saqlash huquqi, ishsizlikdan muhofaza qilinish huquqi va boshqalar kiradi.

IMKONIYAT – arabcha, amalga oshirishga xizmat qiladigan shart-sharoit ma'nosini anglatadi.

IMTIYOZ – arabcha, ijobiy jihati bilan ajraldi ma'nosini anglatuvchi so'zdan hosil qilingan bo'lib, me'yordan ortiqroq haq-huquq ma'nosini anglatadi. I. – qandaydir afzalliklar berish, belgilangan umumiy qoidalar, majburiyatlarni bajarishdan qisman ozod etish.

INSON – arabcha so'z bo'lib, bir-biriga yaqinlashdi, tanishdi ma'nosini anglatuvchi so'zdan hosil qilingan bo'lib, kishi, odam ma'nosini anglatadi.

INSON VA FUQAROLAR HUQUQLARI HAQIDAGI 1789-YIL DEKLARATSIYASI – 1789-1794-yillardagi Buyuk frantsuz inqilobining eng muhim siyosiy-huquqiy hujjati. Fransiyaning 1958-yilgi Konstitutsiyasi muqaddimasiga binoan, Fransuz Konstitutsiyasining (keng ma'nodagi) tarkibiy qismi. Ushbu deklaratsiyaning tarixiy ahamiyati shundaki, unda insoniyat tarixida birinchi bor shaxsning, shuningdek, umuman, konstitutsionalizmning butun zamonaviy huquqiy maqomiga asos bo'lgan quyidagi yuridik qoidalar va huquqlar sistemali ravishda e'lon qilingan: odamlarning teng huquqliligi, inson huquqlarining tabiiy xususiyati va undan ajralmasligi xalq suvereniteti, qonunning ustunligi, insonning shaxsiy erkinlik va daxlsizlik huquqi, vijdon hamda fikrlash erkinligi, aybsizlik prezumtsiyasi.

INSON VA FUQARONING KONSTITUTSIYAVIY MAJBURIYATLARI – ma'lum davlatning uning hududidagi shaxslar yoki qayerda bo'lishidan qat'iy nazar faqatgina o'z fuqarolari xatti-harakatiga nisbatan mazkur davlatning Konstitutsiyaviy-huquqiy normalarida ifodalangan talablari.

INSON VA FUQARONING HUQUQ VA ERKINLIKLARI – insonga bekamu ko'st yashash imkoniyatini beruvchi va iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, siyosiy sohalarda o'zining imkoniyat va talablarini amalga oshirishni ta'minlovchi huquqiy maqomi.

INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARINI HIMOYALASH – o'z ichiga huquq normasini, sud himoyasini, tashkiliy, iqtisodiy va boshqa harakatlarni oluvchi, inson huquqini ro'yobga chiqarishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi.

INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARINING KAFOLATLARI – inson va fuqaroning erkinliklarini amalga oshirishni ta'minlash tizimi.

INSON HUQUQI – ma'lum bir davlatda yashayotgan insonning davlatga nisbatan belgilangan mavqeyi, ya'ni ma'lum huquqlarning davlat tomonidan kafolatlanganligi.

INSON HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI – hozirgi demokratik davlatlarda insonning asosiy moddiy huquq va erkinliklarini himoya qilishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladigan Konstitutsiyaviy prosessual huquqlar majmui, shuningdek, Konstitutsiya bilan belgilangan huquqni himoya qilish institutlari va nihoyat, Konstitutsiyada ifodalangan inson huquq va erkinliklarini cheklashning chegara va sharoitlarini belgilab beruvchi alohida huquq.

INSON HUQUQLARI BO'YICHA VAKIL – parlamentning O'zbekiston Respublikasida davlat organlari, fuqaroning o'zini – o'zi boshqarish organlari,

korxonalar, muassalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslarning inson huquqiga oid amaldagi qonunlarga rioya etish samaradorligini nazorat qilish vakolatiga ega bo'lgan mansabdor shaxsi.

INSON HUQUQLARI BO'YICHA Yevropa SUDI – inson huquqlari va asosiy erkinliklari to'g'risidagi Yevropa konventsiyasi tashkil etgan organdan biri bo'lib, ushbu konventsiyadan kelib chiquvchi majburiyatlarning unga a'zo bo'lgan hamda konventsiyani talqin etish va qo'llashga doir barcha masalalar bo'yicha i.h.b.ye.s yurisdiksiyasini o'zlari uchun bajarilishi shart deb tan olib, maxsus bayonot bergan davlatlar tomonidan hurmat qilinishini ta'minlash maqsadida ta'sis etilgan.

INSON HUQUQLARI BO'YICHA KOMITET – 1966-yilda qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro paktning IV qismiga asosan tashkil etilgan shartnomaviy organ.

INSON HUQUQLARI BO'YICHA MILLIY MARKAZ, O'zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo'yicha milliy markazi – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni (1996-yil 31-oktyabr) bilan tuzilgan markaz. Inson huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilishning ta'sirli vositasini barpo etish, xalqaro tashkilotlar hamda huquqni muhofaza qilish tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish, davlat muassasalari xodimlari va barcha aholining inson huquqlari bo'yicha madaniyatini oshirish maqsadida, BMTning inson huquqlari va boshqaruv tizimini demokratiyalashni qo'llab-quvvatlash dasturiga muvofiq tashkil etilgan. Davlatga qarashli, tahlil, maslahat, idoralararo va muvofiqlashtirish organi hisoblanadi.

INSON HUQUQLARI TO'G'RISIDA PAKTLAR – Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi 1966-yil 16-dekabrda qabul qilgan paktlar. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida xalqaro pakt hamda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro paktdan iborat. Ular xalqaro shartnoma kuchiga ega bo'lib, davlatlarning o'z yurisdiksiyasida bo'lgan shaxslarga muayyan huquqlarni berish yuzasidan majburiyatlarini belgilaydi, i.h.t.p.ga qo'yilgan har bir davlat tomonidan tegishli qonun va boshqa tadbirlarni joriy etish orqali amalga oshiriladi.

INSON HUQUQLARI TO'G'RISIDAGI BILL – AQSh Konstitutsiyasiga 1789-yilning sentyabrida kiritilgan 10 ta o'zgartirish.

INSONIYAT – arabcha so'z bo'lib, inson nasli, bashariyat ma'nosini anglatadi.

INSONNING IJTIMOY HUQUQLARI – insonning (yoki faqat aniq davlat fuqarolarining) unga davlatdan muayyan sharoitlarda muayyan ijtimoiy ne'matlarni olishga da'vo qilishiga imkon beradigan Konstitutsiyaviy huquqlar yig'indisi.

INSONNING IQTISODIY HUQUQ VA ERKINLIK LARI – insonning iqtisodiy sohadagi yuridik imkoniyatlarini belgilovchi Konstitutsiyaviy huquqlarining majmui bo'lib, ushbu huquqlarning xususiyati va mazmuni oxir-oqibatda muayyan jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy tartibni belgilab beradi.

INSONNING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY MAQOMI – Konstitutsiya bilan kafolatlanadigan inson huquq va erkinliklar hamda Konstitutsiyada mustahkamlanadigan majburiyatlari majmui.

INSONNING MADANIYATGA BO'LGAN HUQUQI - deb insonni ilmiy va madaniy hayoti sohasida o'zi amalga oshiradigan Konstitutsiya va qonun tomonidan kafolatlangan huquq va erkinliklarining alohida majmuasiga aytiladi.

INSONNING EKOLOGIK HUQUQLARI – inson Konstitutsiyaviy huquqlarining bir ko'rinishi. Bu huquqlarga toza atrof-muhitda yashash huquqi, shuningdek, insonning sog'lig'iga ekologik muhitni buzish natijasida yetkazilgan zararni undirish huquqi, atrof-muhit haqida to'liq ma'lumot olish huquqi kiradi.

INSONNING YaShASH HUQUQI – qonun tomonidan muhofaza qilinuvchi eng muhim va daxlsiz huquqi. Har bir inson yashash huquqiga ega.

INSONPARVARLIK (inson – arabcha, parvar – fors-tojikcha, lik – o'zbekcha – kishiga g'amxo'rlik, gumanizm) – odamzodning qadri, uning erkinligi, qobiliyatlari har tomonlama namoyon bo'lishi uchun kurashish, insonning baxt-saodati, teng huquqliligi, adolatli hayotini ta'min etishga intilish, insoniylikning barcha tamoyillari yuzaga chiqishiga shart-sharoitlar yaratish ma'nosini anglatadi.

INTILISH – intil – turkiy, yetishishga, erishishga jadal harakat qil. Qadimiy turkiy tilda olg'a harakatlan ma'nosini anglatuvchi so'zdan hosil bo'lgan.

IRQ – arabcha, asli zoti ulug' bo'ldi ma'nosini anglatgan so'z bo'lib, arab tilida ildiz, nasl-nasab, oliy zot kabi ma'nolarini anglatadi, o'zbek tilida nasl-nasab, oliy zot ma'nosini anglatadi.

IRQCHILIK VA IRQIY KAMSITISH – xalqaro huquqbuzarlikning bir turi bo'lib, 1966-yildagi har qanday irqiy kelishmovchiliklarni tugatish haqidagi konvensiyada qoralangan, unga ko'ra har qanday irqchilik fikrlari yo tarqatilishi, har qanday irqiy kamsitishni qo'llab-quvvatlovchilar qonun bilan jazolanadi.

IRODA – arabcha, qidirdi, istadi ma'nosi bilan hosil qilingan bo'lib, biror ish-amalni bajarishga xizmat qiluvchi qat'i hohish, intilish ma'nosini anglatadi.

ISM OLISH HUQUQI – jismoniy shaxslarning o'z ismlariga ega bo'lishlari.

ISTIBDOD – arabcha, shafqatsiz muomala qildi ma'nosi bilan hosil qilingan, cheklanmagan huquq bilan jabr-zulm o'tkazishga asoslangan hokimiyat ma'nosini anglatadi.

ISTIQLOL (arabcha, istiqlol – ko'tarilish, qaddini rostlash, o'sish, yuqori joyga erishish) – har bir inson, jamoa, davlat, millatning rivojlanishi uchun zarur erkinlik sharoiti.

ICHKI ISHLARGA ARALASHMASLIK – xalqaro huquqning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, ma'lum bir davlat yoki davlatlar guruhi, qanday sabab bo'lishidan qat'iy nazar, boshqa bir mustaqil davlatning ichki va tashqi ishlariga aralashmasliklarini bildiradi.

ICHKI SIYO SAT – davlat hokimiyatiga ega tashkilotlar va shaxslarning bir davlat hududida jamiyat hayotining turli jabhalarini huquqiy vositalar bilan tartibga solishga qaratilgan faoliyati.

ISH – mehnat faoliyati. Qadimiy turkiy tilda shunday ma'noni anglatadi.

ISH TASHLASH HUQUQI – ayrim davlatlarda demokratik prinsip sifatida va mehnat qilish huquqining kafolati tariqasida saqlab qolingan fuqarolar huquqi.

ISHLAB CHIQRISH, moddiy ishlab chiqarish – jamiyatning yashashi va taraqqiy etishi uchun zarur bo'lgan moddiy boyliklar (turli iqtisodiy mahsulotlar)ni yaratish jarayoni; ishlab chiqarish omillarini iste'mol va investitsiyalar uchun mo'ljallangan tovarlar va xizmatlarga aylantirish. Ishlab chiqarish inson hayotining tabiiy sharoiti va boshqa faoliyat turlarining moddiy asosidan iborat.

ISHTIROK – arabcha qatnashdi ma'nosini anglatib, qatnashuv ma'nosini anglatadi.

YIG'IN – yig'ilish, majlis. Qadimiy turkiy tilda to'pla ma'nosini anglatadi.

KAMOL – arabcha, har jihatdan yetik bo'ldi ma'nosi bilan hosil qilingan bo'lib, har jihatdan yetiklik, barkamollik ma'nolarini anglatadi.

KASABA – arabcha, kosiblar, turli kasb egalari ma'nosini anglatadi. Kasaba uyushmasi birikmasi tarkibida qatnashadi; bu birikma o'zbek tilida mehnatkashlarning manfaatini himoya qiluvchi ommaviy tashkilot ma'nosini anglatadi.

KASAL – arabcha, erinchoq bo'ldi, lanj bo'ldi, ma'nosini anglatuvchi so'zdan yasalgan bo'lib, arab tilida erinchoqlik, zerikish ma'nolarini anglatadi, o'zbek tilida tana a'zolarining odatdagi faoliyati buzilgan, betob, betoblik, betob kishi ma'nosini anglatadi.

KAFOLAT – arabcha, javobgarlikni o'z zimmasiga oldi ma'nosi bilan hosil qilingan bo'lib, biror bir ish-faoliyatning amalga oshishiga boshqalarni ishontirib, javobgarlikni o'z zimmasiga olib berilgan va'da, garantiya ma'nosini anglatadi. K. – ishontirish, mas'uliyatni, javobgarlikni o'z ustiga olgan holda, ta'minlash, kafillik, garantiya. K. – insoniyatning, jamiyatning demokratiya va huquqiy davlat tomon rivoji jarayonida qo'lga kiritilgan yutuqlardan biri. Demokratik huquqiy davlat inson, tashkilot va oliy harakatlarning huquqlarini Konstitutsiyada va boshqa davlat hujjatlarida e'lon qilish bilan cheklanib qolmay, ulardan amalda foydalanishni kafolatlaydi, ya'ni ta'minlaydi, hayotda amalga oshirishga barcha shart-sharoitlarni yaratib beradi.

KIDNEPPING (ingl. kidnapping) – bolalarni (ba'zida odamlarni) o'g'irlash.

KILLER (ingl. killer) – yollangan qotil.

KICHIK – qadimiy turkiy tilda, hajmi, o'lchami me'yordan oz ma'nosini anglatadi.

KOLLEKTIV XAVFSIZLIK – BMT Ustavi bilan belgilangan va ushbu butun jahon tashkiloti, mintaqaviy xavfsizlik tashkilotlari, kollektiv o'zini-o'zi himoya qilish bo'yicha tashkilotlar va kelishuvlar chegarasida amalga oshiriladigan davlatlarning xalqaro tinchlikni qo'llab-quvvatlash va agressiya aktlariga qarshi harakatlar qilish maqsadida bo'lgan hamkorlikdagi harakatlar tizimi.

KONVENTSIYALAR, XALQARO KONVENTSIYALAR (lot. convention – kelishuv, bitim) – xalqaro shartnomalar turlaridan biri, odatda,

davlatning biron-bir maxsus sohadagi o'zaro huquqlari va majburiyatlarini belgilab beradi. Ko'p tomonlama K. umumiy tUSDagi me'yorlarni o'z ichiga oladi; ko'pincha K. biron-bir sohaga ixtisoslashgan tashkilotlar tomonidan qabul qilinadi.

KONSTITUTSION BURCh – demokratik, huquqiy davlat va zamonaviy jamiyat qurishning hamda ular rivojlanishining zaruriy shartlaridan biri. Barcha ilg'or davlatlar Konstitutsiyalarida fuqarolarning burchlariga alohida o'rin ajratilgan.

KONSTITUTSIYA (lotincha constitution – tuzilish, tartib) – davlatning asosiy qonuni. K. – davlatning xalq irodasini ifodalovchi, davlat tuzilishi va boshqaruv shakli asoslarini mustahkamlovchi, hokimiyat idoralari faoliyatining tashkil etilishi tartibi va prinsiplarini belgilovchi asosiy qonuni.

KONSTITUTSIYA VA QONUNNING USTUNLIGI – demokratik jamiyat, huquqiy davlat hayoti hamda faoliyatining asosiy talabi va muhim qoidalaridan biri.

KONSTITUTSIYAVIY JAVOBGARLIK – ijtimoiy javobgarlikning alohida turi bo'lib, murakkab siyosiy-huquqiy xususiyat kasb etadi va Konstitutsiyaviy delikt (huquqbuzarlik) sifatida talqin qilinadi, Konstitutsiyaviy huquqbuzarlik subyekti uchun alohida salbiy oqibatlarda ifodalanadi.

KONSTITUTSIYAVIY NAZORAT – davlatda huquqni muhofaza qilish faoliyatining alohida turi bo'lib, mazkur davlat qonunlari va boshqa normativ hujjatlarini uning Konstitutsiyasiga muvofiqligini tekshirishda o'z ifodasini topadi.

KONSTITUTSIYAVIY PRINSIPLAR - davlatlarning Konstitutsiyalarida ifodalangan Konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish obyektini hisoblanmish ijtimoiy munosabatlar mazmunini belgilab beruvchi umumiy eng muhim asoslar.

KONSTITUTSIYAVIY SUD – bir qator davlatlarda yagona yoki asosiy funksiyasi Konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshirish bo'lgan alohida organ.

KONSUL – bir davlatning boshqa davlat tumani (okrugi)da uning rasmiy roziligi bilan faoliyat yurituvchi mansabdor shaxs.

KONSULLIK VAKOLATXONALARI XODIMLARI – vakolatxona shtat ro'yxati bo'yicha jalb qilingan xodimlar.

KONSULLIK VAKOLATXONASI – davlatning tashqi aloqa organlaridan biri bo'lib, ikki davlatning konsullik munosabatlari o'rnatilishi oqibatida tashkil etiladi.

KONSULLIK KONVENTSIYALARI – davlatlar o'rtasida tuziladigan bitim.

KONFEDERATSIYA (lotincha confederation – birlashishi, ittifoq) – davlat tuzilishi shakllaridan biri bo'lib, uni ta'sis etuvchi davlatlarning o'z mustaqilliklarini, jumladan, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarini to'liq saqlab qolgan holda, muayyan harbiy, xo'jalik yoki siyosiy maqsadlarni ko'zlab, o'z harakatlarini uyg'unlashtirish uchun maxsus tuzgan birlashmasidir. K. – majlis, biron-bir tashkilot, guruhlar davlatlar vakillarining yig'ilishi bo'lib, u muayyan masalalar muhokamasiga bag'ishlanadi.

KUN (ISH KUNI) – sutkaning quyosh chiqishidakni botishigacha bo'lgan (yorug') qismi. Qadimiy turkiy tilda quyosh ma'nosini anglatadi.

KUCh - arabcha ma'lum bir ishni amalga oshira oladi ma'nosi bilan hosil qilingan bo'lib, yuksak darajadagi qodirlik, kuch-quvvat ma'nosini anglatadi.

KUCh IShLATISH – BMT Ustaviga asosan, harbiy vaziyatlarda tomonlarning harakatlari tushuniladi.

KUCh IShLATISH BILAN QO'RQITISH – kuch ishlatish va kuch ishlatish bilan qo'rqitishni taqiqlash prinsipiga zid bo'lgan va BMT Ustaviga xilof ravishda biror davlatning hududiy daxlsizligiga yoki siyosiy mustaqilligiga xavf soluvchi, shuningdek BMT maqsadlariga mos kelmaydigan boshqa qandaydir usullarda sodir etilgan harakatlar.

KO'PPARTIYaviYLIK – hozirgi zamon jamiyatining ajralmas belgisi, uning demokratlashuvi darajasining muhim poydevor ko'rsatkichidir. Ko'ppartiyaviylikning o'ziga xos belgisi, bu siyosiy xilma-xillik, jamiyatda bir necha siyosiy partiyaning mavjudligidir. Siyosiy partiyalar fuqarolarning ijtimoiy manfaatlarini parlament, davlat hokimiyati, mahalliy vakillik idoralari, aholining o'zini-o'zi boshqarish uyushmalari va hakoza orqali ifoda etish hamda ro'yobga chiqarish maqsadida faoliyat ko'rsatuvchi kishilar birlashmalaridir.

LOZIM – arabcha, zarur bo'ldi ma'nosi bilan yasalgan bo'lib, zarur ma'nosini anglatadi.

MABLAG' – arabcha, ma'lum darajaga yetdi ma'nosidan hosil qilingan bo'lib, ma'lum miqdordagi pul (summa) ma'nosini anglatadi.

MADANIY – arabcha, madaniyatli bo'ldi ma'nosini anglatgan bo'lib, madaniyatga oid, madaniyatga oid, madaniyat sohasida, bilim-tarbiyasi yuqori kabi ma'nolarni anglatadi.

MADANIY MEROS – avlodlar tomonidan yaratilgan amaliy tajriba, axloqiy, ilmiy, tafakkuriy, diniy va ruhiy qarashlar, xalq madaniyati va ijodi kabi moddiy hamda ma'naviy boyliklar majmui.

MADANIYat (arabcha, madaniyat, madinalik, shaharlik; ta'lim-tarbiya ko'rganlik) – kishilarning tabiatini, borliqni o'zlashtirish va o'zgartirish jarayonida yaratgan moddiy, ma'naviy boyliklar hamda bu boyliklarni qayta tiklash va bunyod etish yo'llari va uslublari majmui.

MAJBUR – arabcha, majbur qildi ma'nosi bilan hosil qilingan, (biror faoliyatni) amalga oshirish shart ma'nosini anglatadi.

MAJBURIY – arabcha, amalga oshirilishi shart ma'nosini anglatadi.

MAJBURIYat – arabcha, bajarilishi shart bo'lgan vazifa, va'da, burch kabi ma'nolarini anglatadi.

MAJLIS – arabcha, asli o'tirdi ma'nosini anglatadi. Arab tilida o'tirish o'rni, yig'ilish, jamoa, boshqaruv hay'ati ma'nosini anglatadi; o'zbek tilida yig'ilish, boshqaruv hay'ati ma'nosida ham ishlatiladi.

MAQOM – arabcha, ma'lum joyda turdi ma'nosi bilan hosil qilingan bo'lib, daraja, mavqye kabi ma'nolarini anglatadi.

MAQSAD – arabcha, nimanidir ko'zlab ish tutdi ma'nosi bilan yasalgan bo'lib, amalga oshirish rejalashtirilgan niyat ma'nosini anglatadi.

MAMLAKAT – arabcha, asli boshqardi va muhimlik ma’nosini ifodalovchi shakli bo’lib, biror davlat boshqaruvidagi territoriya, yer-suv ma’nosini anglatadi.

MAN QILINGAN URUSH VOSITALARI – xalqaro huquq bo’yicha qo’llashga yo’l qo’yib bo’lmaydigan vosita, harbiy jinoyat yoki insoniyatga qarshi jinoyat sifatida qaraladi va yuridik javobgarlikka sabab bo’ladi.

MANIFESTATSIYA ERKINLIGI – fuqarolarning Konstitutsiyaviy, siyosiy erkinliklaridan biri. Fuqarolarning namoyishlari, mitinglari va yurishlari hamda boshqa shunga o’xshash chiqishlari tushuniladi.

MANSABDOR SHAXSLAR – O’zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi mansab jinoyatlari to’g’risidagi moddalarining mazmuniga ko’ra, hokimiyat vakili funksiyasini, doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bo’yicha amalga oshiruvchi yoxud davlat organlarida mahalliy o’zini-o’zi boshqarish organlarida davlat munisipal muassalarida, shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida, O’zbekiston Respublikasining boshqa qo’shinlari va harbiy tuzilmalarida tashkiliy, taqsimot, ma’muriy-xo’jalik funksiyalarini bajaruvchi shaxslar.

MANSUB – arabcha, bog’ladi, nisbat berdi ma’nosi bilan hosil qilingan bo’lib, arab tilida bog’liq, kelib chiqishi taniqli, ajralib turuvchi ma’nolarini, o’zbek tilida esa bog’liq, qarashli ma’nosini anglatadi.

MANFAAT – arabcha, foyda keltirdi ma’nosini anglatuvchi so’zdan yasalgan bo’lib, biror faoliyatdan ko’zlangan foyda, naf ma’nosini anglatadi.

MAORIF – arabcha, o’zbek tilida o’qitish-tarbiyalash, bilim berish bilan shug’ullanuvchi soha ma’nosini anglatadi.

MAROSIM – arabcha, munosabat bilan o’tkaziladigan rasmiy yig’in, ma’raka ma’nosini anglatadi.

MATBUOT ERKINLIGI – fuqarolarning Konstitutsiyada belgilab qo’shilgan siyosiy huquqlardan biri bo’lib, m.e. birinchi bor 1798-yilgi Frantsuz inqilobida fuqaro va insonlarning huquqi Deklaratsiyasida e’lon qilingan edi.

MAFKURA (arabcha, mafkura – nuqtai nazarlar va e’tiqodlar tizimi, majmui) – jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g’oyalar majmui.

MAFKURA YA KKAHOKIMLIGI – muayyan davlat yoki davlatlarda yagona mafkuraning to’la hukmronligi. Mazkur hodisa ba’zi jamiyatlar va tuzumlarga xosdir va odatda, vaqtincha davom etadi.

MAFKURALARNING XILMA-XILLIGI – demokratik jamiyatning tabiiy holati.

MAHRUM – arabcha, taqiqladi ma’nosi bilan hosil qilingan bo’lib, ega bo’lish, foydalanish huquqiga, imkoniyatiga molik emas ma’nosini anglatadi.

MA’NAVIYAT (arabcha, ma’naviyat – ma’nolar majmui) – kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvuri va tushunchalari majmui. Ma’naviyat mafkura, tafakkur tushunchalariga yaqin va ular bir-birlarini taqozo etadilar.

MA’RIFAT (arabcha, arafa – bilmoq so’zidan) – ta’lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, falsafiy, diniy g’oyalar majmui asosida kishilarning ong-bilishini madaniyatini o’stirishga qaratilgan faoliyat.

MENSIMASLIK – mensi – nazar-pisand qil, istak, hohish ma’nosini ifodalovchi so’zdan yasalgan.

MENTALITET (lot. mens – aql, idrok) – jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, ma’naviy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati, ruhiy quvvati. Jamiyat, millat yoki shaxsning mentaliteti, ularning o’ziga xos an’analari, rasm-rusumlari, urf-odatlarini, diniy e’tiqod va irimlarini ham qamrab oladi.

MEHNAT – arabcha, tekshirdi, sinadi ma’nosini anglatuvchi so’z bo’lib, arab tilida sinov, kulfat ma’nosini, o’zbek tilida jismoniy yoki aqliy ish, faoliyat ma’nosini anglatadi. M. – insonning maqsadga muvofiq ijtimoiy foydali faoliyati; eng avvalo tabiat predmetlarini o’zgartirib, ehtiyojga moslashtirishni bildiradi. M. kishilik jamiyati hayotining asosiy sharti, chunki u tufayli insoniyatning yashashi uchun zarur bo’lgan moddiy va ma’naviy ne’matlar yaratiladi.

MEHNAT QILISH HUQUQI – fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy huquqlaridan biri. O’zbekiston qonunlariga asosan bu huquq fuqarolik va mehnat kodekslarining tegishli moddalarida belgilangan normalar orqali ta’minlanadi. Bir qator davlatlarda mehnat qilish huquqi konstitusion tarzda faqat ish joyi ta’minlash orqali kafolatlangan.

MEHNATKASH – arabcha, jismoniy mehnat bilan shug’ullanuvchi ma’nosini anglatadi.

MIGRANT (lot. migrant/ migrantis/; ingl. migrant) – ko’chmanchi shaxs, ko’chib yuruvchi shaxs.

MIGRASIYA (lot. migratio; ingl. migration) – ko’chish, aholini bir joydan ikkinchi joyga ko’chirish; M. vaqtincha ma’lum muddatga yoki doimiy bo’lishi mumkin.

MILLAT – arabcha, bir-biri bilan birlashtirdi ma’nosidan yasalgan bo’lib, avval dini bir kishilar ma’nosini anglatgan, keyinchalik tili, yashash joyi, madaniyati, urf-odatining umumiylikiga asoslanuvchi jamoa ma’nosini anglatadi. M. kishilarning yagona tilda so’zlashishi, yaxlit hududda istiqomat qilishi, mushtarak iqtisodiy hayot kechirish, umumiy madaniyat va ruhiyatga ega bo’lish asosida tarixan tashkil topgan barqaror birligi.

MILLATPARASTLIK – millatlarning tengligini inkor etib, o’z millatini boshqa millatlardan yuqori qo’yish, unga imtiyozlar yaratishga intilishi, uning manfaatlarini boshqa millatlar manfaatlaridan afzal ko’rish, o’z millatiga sajda qilib, unga hamdu sanolar o’qish, o’z millatini ko’klarga ko’tarib, unga xolisona baho bermaslik, uning kamchiliklari va tarixan tashkil topgan nuqsonlarini sezmaslik va ko’rmaslik.

MILLATPARVARLIK – insoniyat taraqqiyotida millatlarning o’rni va ahamiyatini to’g’ri tushunish. Yer yuzining har bir burchagida mavjud millatlarni, tili, turmush tarzi, irqi, tashqi qiyofasi, urf-odatlarini, dini, madaniyatining o’ziga xos tomonlaridan qat’i nazar, hurmat qilish, ularning ozodligi, tengligi, gullab-yashnashi uchun shart-sharoitlar yaratib berish tarafdori bo’lish.

MILLATChILIK – kapitalizm davrida jahonning mustamlakalar va metropoliyalar, qoloq o’lkalar va ilg’or davlatlar, ozod xalqlar va mustabidlik

iskanjasidagi xalqlarga bo'linib ketishiga qarshi kurashuvchi demokratik, ma'rifatparvar hamda insonparvar kuchlardan farqli o'laroq, bu ziddiyatlarni o'z millatining manfaatlarini boshqa millatlar haq-huquqlaridan yuqori qo'yib hal etishga intiluvchi siyosiy oqim.

MILLIY – arabcha, asli bir-biri bilan birlashtirdi ma'nosidan hosil qilingan bo'lib, millatga oid ma'nosini anglatadi.

MILLIY AN'ANALAR – millat hayotining turli sohalarida namoyon bo'ladigan tushunchalar, belgilar, xususiyatlar; faoliyat turlari, odatlar va xislatlarning avloddan-avlodga o'tishi hamda meros bo'lib qolish tarzi.

MILLIY BIQIQLIK – o'z millatini o'zga millatlardan uzoqlashtirish, uning o'ziga xosligini himoya etishni tor tushunib, milliy xudbinlikni joriy qilish, o'z millatining o'zga millatlar bilan erkin aloqada bo'lishga putur yetkazish.

MILLIY G'URUR – har bir millatning o'z-o'zini anglashi natijasida sodir bo'ladigan ichki ruhiy kayfiyati. Bu tuyg'u o'z ona zamini, avlod-ajdodlari tomonidan qoldirilgan moddiy, ma'naviy merosdan, o'z millatining jahon sivilizasiyasiga qo'shgan hissalaridan, o'zga millatlar oldidagi qadr-qimmat, obro'-e'tiboridan faxrlanish hissiyotidir.

MILLIY ISTIQLOL MAFKURASI – xalqning o'zgalarga tobe bo'lmay, erkin va ozod yashash, o'zini-o'zi idora etishga qaratilgan, uning istiqbolini belgilaydigan orzu-umidlari, qarashlari, g'oyalari majmui, jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri.

MILLIY QADRIYATLAR – millat uchun muhim va jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan jihat va xususiyatlar.

MILLIY MADANIY MARKAZLAR – O'zbekistonda istiqomat qilib turgan barcha millatlar, elatlarning madaniyat, ma'naviyat, milliy urf-odatlar va an'analar sohasidagi o'zlariga mos talab va ehtiyojlarini qondirish, shu tariqa ularning O'zbekiston miqiyosida yanada mustahkamroq jipslashtirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-ixtiyoriy tashkilotlar.

MILLIY MANFAATLAR – millatga, milliy davlatga moddiy, ma'naviy, ruhiy va jismoniy foyda, naf keltiruvchi omillar.

MILLIY ONG – bevosita har bir millat yoki elatning uzoq tarixiy etnogenez davri, turmush tarzi, iqtisodiy ishlab chiqarish usuli, dininiy e'tiqodlari, madaniyati. Boshqa xalqlarning bevosita ta'siri tufayli shakllangan dunyoqarashi, iqtisodiy, siyosiy-ijtimoiy va madaniy-ma'naviy sohalarida faollik darajasi.

MILLIY RUHIYAT – millatning ichki holati, kechinmalari, his-tuyg'ulari, ma'naviy dunyosi, o'y-fikrlari, maqsad va maslamlari hamda kayfiyatlari bilan bog'liq mulohazalar majmui.

MILLIY TIL – kishilarning tarixan tashkil topgan barqaror birligi – millatning yoki elatning umumiy tili, ularning fikr almashishi va muloqot vositasi, muhim rivojlanish omili.

MILLIYLIK – tarixan tashkil topgan barqaror ijtimoiy-etnik birliklarni, ya'ni millatlar va elatlarni boshqa barqaror ijtimoiy birlikdan, masalan, ijtimoiy sinflardan farqlovchi tomonlar, xususiyatlar, ma'naviy, ruhiy va madaniy qirralar hamda tafovutlar majmui.

MINTAQAVIY BITIM – xalqaro shartnomalar, davlatlararo kelishuvlar; BMT Nizomida mintaqaviy bitimda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash nazarda tutiladi.

MITING (ingl. meetino) – siyosiy va boshqa dolzarb masalalarni hal qilish uchun yig'ilish va namoyish o'tkazish talabi.

MOL-MULK – **mol** – arabcha, boyidi, boyitdi ma'nolarini anglatuvchi so'zdan hosil qilingan, arab tilida, boylik, mulk, mablag' ma'nosini anglatadi; o'zbek tilida bu so'z bisotdagi narsalar, qizningkelinligiga atab yig'ilgan buyumlar, sotiladigan narsalar, yirik uy hayvoni ma'nolarini anglatadi, shuningdek qo'pol ma'nosini ham anglatadi. **Mulk** - arabcha, ega bo'ldi ma'nosi bilan hosil qilingan, xususiy mol-dunyo, podshohlik ma'nolarini anglatadi.

MONITORING (inglizcha monitoring tekshirib turish, nazorat etish) – ma'lum bir hodisa yoki jarayonning holatini kuzatish, baholash va taxminlash (prognoz) tushuniladi.

MUVOFIQ – arabcha mos keladi degan ma'noni anglatib, mos, to'g'ri keladigan ma'nosini anglatadi.

MUQOBILLIK (arabcha, muqobala – bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki fikrdan, narsadan birini tanlash) – faqat ikki imkoniyatdan birini oddiygina tanlash emas, balki bir-biriga zid bo'lgan imkoniyatlardan birini tanlab olishni ham bildirish mumkin. Masalan, bundan tashqari, bir-biriga zid ikki yo'l, imkoniyat vash u kabilardan yo unisini, yo bunisini tanlash zaruriyati, tanlashga majbur bo'lmoq degan mazmuni ham bildiradi.

MULK – arabcha, ega bo'ldi ma'nosi bilan hosil qilingan bo'lib, xususiy mol-dunyo, podshohlik ma'nosini anglatadi.

MULKIY MUSTAQILLIK – kishilarda mulkka egalik qilish, boshqarish, foyda olish va hakoza uchun beriladigan erkinlik, huquq. Demokratik huquqiy davlat fuqarolarining eng muhim huquqlaridan biri.

MUNOSABAT – arabcha, bog'ladi, nisbat berdi ma'nosi Bilan hosil qilingan, arab tilida muqobillik, yaroqlilik, o'rinlilik, qarindoshlik, qarashlilik, aloqadorlik ma'nolarini, o'zbek tilida esa kishilar orasidagi, kishi bilan narsa orasidagi aloqa, bog'liqlik ma'nolarini anglatadi.

MUNOSIB – arabcha, bog'ladi, nisbat berdi ma'nosi bilan hosil qilingan, mos tushadigan, loyiq ma'nosini anglatadi.

MUSTAQIL – o'z erki bilan ish qildi ma'nosi bilan hosil qilingan, o'z erki bilan yashash, ish yuritish huquqiga ega ma'nosini anglatadi.

MUSTAQIL DAVLAT (arabcha, mustaqil qaram emas, erkin) – davlatning asosiy shakli. Mustaqillik davlat hokimiyatining ustunligi va suverenligini bildiradi. Mustaqillik tashqi aloqalarda davlatning mustaqil ish yuritishi va ichki ishlarda davlatning ustunligini bildiradi.

MUSTAQILLIK VA YoShLAR – davlatimizdagi eng muhim va jiddiy muammolardan biri. Bu muammoning yechimi esa 2008-yilning yoshlar yili deb e'lon qilinishi. Bu narsa hozirgi hayotimizda har xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Shu boisdan O'zbekistonning kelajagi, uning istiqboli, birinchi navbatda, yoshlarni tarbiyalash, sog'lom qilib o'stirish, ularning ongini o'tmish ta'siridan ozod ravishda shakllantirish mustaqil mamlakatning dolzarb vazifalaridandir.

MUSTAQILLIK MAFKURASI – jamiyat a'zolarining, ijodiy guruhlar, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, millatlar va elatlar, ommaviy harakatlar, diniy uyushmalar, yoshlar, xotin-qizlar, faxriylar, tadbirkorlar va boshqa ijtimoiy subyektlarning umumiy manfaat va muddaolarini o'zida aks ettiruvchi va mujassamlashtiruvchi, ularning xatti-harakatlarini, faoliyatini, fikr-zikrini yagona bir maqsadga – mustaqillikka erishish hamda uni mustahkamlashga yo'naltiruvchi g'oyalar va bilimlar majmui.

MUXOLIFAT (arabcha, muxolifat – kelishmovchilik, teskarilashish, qarama-qarshilik, ziddiyat) – rasmiy siyosatga, hukmron qarashlarga mos bo'lmagan nuqtai nazar, alohida siyosiy yo'l, demokratiyaning muhim belgisi.

MUHTOJ – arabcha yetishmovchilik yuzaga keldi ma'nosini anglatuvchi so'zdan hosil qilingan, biror zarur narsaga ehtiyojmand ma'nosini anglatadi.

MUHTOJLIK – muhtoj – arabcha, yetishmovchilik yuzaga keldi ma'nosini anglatgan so'zdan hosil qilingan bo'lib, biror zarur narsaga ehtiyojmand ma'nosini anglatadi.

NAFAQA (lot. pension - to'lov) – qonunda belgilangan tartibda davlat yoki boshqa bir subyektlar tomonidan tayinlanadigan umrbod va doimiy moddiy ta'minot.

NAFAQA TA'MINOTI – davlat yoki qonunda belgilangan boshqa subyektlar tomonidan fuqarolarning moddiy (pul mablag'i bilan) ta'minlanishi.

NIZOLARNI TINCh YO'L BILAN HAL QILISH PRINSIPI – barcha davlatlararo mavjud nizolarning faqat xalqaro huquqqa muvofiq, tinch yo'l bilan hal qilinishi lozimligidir.

NIZOLARNI TINCh YO'L BILAN HAL ETISH – xalqaro huquqning asosiy prinsiplaridan biri, unga muvofiq davlatlar orasidagi nizolar xalqaro tinchlik, xavfsizlik va adolatni xavf ostiga qo'ymaslik uchun tinch yo'llar bilan hal qilinishi lozim.

NIZOM – arabcha, tartibga soldi ma'nosi bilan hosil qilingan, o'zbek tilida amal qilish lozim qonun-qoidalar yozilgan rasmiy hujjat ma'nosini anglatadi.

NIKOH – arabcha, er-xotinlikni shariat yo'li bilan rasmiylashtirdi ma'nosi bilan hosil qilingan bo'lib, er-xotinlikni shariat yo'li bilan rasmiylashtirish ma'nosini anglatadi. **N.** – erkak va ayol oila qurishining tarixan shakllangan va qonun bilan yoki din tomonidan mustahkamlangan shakli.

NISBATAN – arabcha, qiyosan olganda (kimga yoki nimaga) qarata kabi ma'nolarini anglatadi.

NOMUS – arabcha, qonun, vijdon, oriyat ma'nosini anglatadi.

NORMATIV HUQUQIY AKT – vakolatli davlat organining belgilangan tartibda qabul qilingan yuridik hujjati.

NUFUZ – arabcha, ta'sir o'tkazdi ma'nosi bilan hosil qilingan bo'lib, ta'sir, obro'-e'tibor ma'nosini anglatadi.

OVOZ BERISH – saylov jarayonining bosqichlaridan biri. Bir yoki ikki turda o'tadi. Byulleten berish yoki maxsus ovoz berish mashinasidan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

OVOZ BERISH TURI – saylovning saylovchilar ovoz berishi va ovoz berish natijalarini aniqlash jarayonini qamrab oladigan bosqichi.

OVRUPO DAVLATLARNING IQTISODIY UYUSHMASI – 1957-yilda Olmoniya, Frantsiya, Italiya, Belgiya, Gollandiya va Lyuksemburg davlatlari tomonidan shartnoma asosida tuzilgan yopiq iqtisodiy uyushma.

OG'IR – vazni katta, vazmin. Qadimiy turkiy tilda biror tomonga egil ma'nosini anglatadi.

ODAM – arabcha, birinchi paydo bo'lgan kishi (Odam ato) ma'nosidan, kishi, inson ma'nosini anglatadi. **O.** – barcha jonzodlarning eng yuqori pog'inasida turadigan mavjudot, ijtimoiy jarayonlar subyekt. **O.** ijtimoiy mehnat asosida shakllangan tafakkur va nutqqa ega bo'lishi, mehnat qurollari yasashi va atrof-muhitga faol ta'sir ko'rsata olishi bilan boshqa tirik mavjudotlardan farq qiladi.

ODAM O'G'IRLASH – shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi qaratilgan jinoyatlar turiga kiradi.

ODAM O'LDIRISH – qasddan boshqa kishini hayotidan mahrum etish; shaxsga nisbatan og'ir (eng og'ir) jinoyatlardan biri.

ODIL SUDLOV – davlat boshqaruvini tashkil etishning bir shakli.

ODILONA - odillik bilan, adolatli ravishda ma'nolarini anglatadi.

OILA – arabcha, qaramog'idagi kishilarni boqdi ma'nosini anglatib, ota-ona, farzandlar birgalikda yashovchi ijtimoiy guruh ma'nosini anglatadi. **O.** – ota-ona, farzandlar birgalikda yashovchi ijtimoiy guruh ma'nosini anglatadi. **O.** – kishilar hayotining eng muhim qismi, jamiyatning kichik hujayrasi, ijtimoiy-madaniy organizm. Oila – kishilarning tabiiy-biologik (jinsiy munosabatlar, uy-ro'zg'orni boshqarish), huquqiy (masalan, nikohni fuqarolik holatlarida qayd etish), ma'naviy (er-xotin, ota-ona va bolalar o'rtasidagi sevgi, mehr-muxabbat tuyg'usi va shu kabilar) munosabatlariga asoslangan birlik.

OILA HUQUQI – huquq sohalaridan biri bo'lib, o'z ichiga oila huquqi fani, oila huquqi qonuni va o'quv darsligini oladi.

OQILONA – arabcha, aql bilan bildirilgan, aql bilan amalga oshirilgan kabi ma'nolarini anglatadi.

OLIY – arabcha, yuqori bo'ldi ma'nosi bilan yasalgan bo'lib, eng yuqori, eng nufuzli ma'nolarini anglatadi.

OLIY MAJLIS – O'zbekiston Respublikasining oliy qonun chiqaruvchi organi. Oliy qonun chiqaruvchi organ har bir davlatda o'ziga xos xususiyatlarga ega va turlicha ataladi. Oliy Majlisning tizimi, tuzilishi, vazifalari, ish va faoliyati qoidalarini belgilashda barcha ilg'or davlatlarning va umuman insoniyatning oliy qonun chiqaruvchi organini tashkil qilishdagi tarixiy tajribasi o'rganilgan va inobatga olingan.

OMBUDSMAN (shved. Hombudsman – biror kishi munosabatlarining vakili) – ba'zi mamlakatlarda parlament tomonidan maxsus saylangan (tayinlangan) davlat organlari harakatlarining qonuniyligi hamda fuqarolar huquq va erkinliklariga rioya etilishini kuzatuvchi mansabdor shaxs. **O.** – hukumat idoralari faoliyatini taftish, nazorat qiluvchi mansabdor shaxs yoki vakil.

OMMAVIY – arabcha, ko'pchilik ishtirokida amalga oshiriladigan ma'nosini anglatadi.

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI – jamoatchilik ongini shakllantiruvchi demokratik rivojlanishning asosiy prinsiplarini, madaniy va axborot berish vazifalarini amalga oshiruvchi hamda millatning inson huquq va erkinliklarini ta'minlovchi tizim.

OMMAVIY TARTIBSIZLIKLAR – uyushmagan bir guruh shaxslar qonunda belgilangan va davlat hokimiyati tomonidan qo'riqlanadigan ijtimoiy tartibni buzishlari.

ONA (onalik) – turkiy, xotin kishi o'z tuqqan bolasiga nisbatan ishlatiladi.

ONALIK VA BOLALIKNI MUHOFAZA QILISH – ona va bolaning salomatligini saqlashga, sog'lom avlodni shakllantirishga, rivojlantirishga qaratilgan davlat va ijtimoiy chora-tadbirlar majmuasi.

OPTANT (lot. optans dan - hohlovchi) – optasiya, ya'ni fuqarolikni tanlash huquqiga ega shaxs.

OPTATSIYA (lot. optatia dan – hohish, tanlov) – bir davlatdan boshqa davlatga o'tuvchi hudud aholisiga berilgan fuqarolikni tanlash lot. optans dan huquqi.

ORGAN (yun. organon – asbob, qurol) – 1) tashkiliy birlik; 2) xususiy, odatda boshqaruv vakolatiga ega yuridik shaxsning tuzilmaviy bo'linmasi, yoki tashkilotda doimiy ravishda nizom va qonun bo'yicha boshqaruvga oid vazifalarni bajaruvchi jismoniy shaxs.

ORGANIK QONUNLAR – Konstitutsiyaning to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatmasiga binoan qabul qilinadigan qonunlar.

OTALIKNI SUD TARTIBIDA ANIQLASH – otalik faktini sud tartibida aniqlash tadbiri.

OTA-ONALIK HUQUQIDAN MAHRUM ETISH – ota-onalar (ulardan biri) quyidagi hollarda ota-onalik huquqidan mahrum etilishlari mumkin: o'z majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlagan jumladan, alimentlarni to'lashdan bo'yin tovlagan taqdirda; uzrli sababsiz o'z farzandini tug'ruqxonadan yoxud boshqa davolash muassasasidan, tarbiya muassasasidan, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasidan yoki boshqa shu kabi muassasalardan olishdan voz kechganda va boshqalar.

OTA-ONANI MODDIY TA'MINLASHDAN BO'YIN TOVLASH – voyaga yetgan shaxslarning mehnatga layoqatsiz va moddiy yordamga muhtoj ota-onasini yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlashi, ya'ni ularni moddiy jihatdan ta'minlash uchun sudning hal qiluv qaroriga binoan undirilishi lozim bo'lgan mablag'ni jami bo'lib uch oydan ortiq muddat mobaynida to'lamaslikdan iborat jinoyat.

PAKT (lot. pactum – shartnoma, bitim) – yirik siyosiy ahamiyatga ega xalqaro bitim; xalqaro shartnomalar nomlaridan biri. P. – xalqaro shartnomalarning bir ko'rinishi.

PARLAMENT – fransuzcha so'z bo'lib, (parler – so'zlashmoq, so'zlash) rasmiy so'zlashish joyi ma'nosini anglatadi. Parlament birinchi bor XIII asrda Angliyada davlat hokimiyatining vakillik organi sifatida vujudga kelib, XVII-

XVIII asrlarda boshqa mamlakatlarga yoyildi. P. – demokratik davlatlardagi vakillik organlari bo'lib, qonun chiqarish faoliyati bilan shug'ullanadi.

PARTIYA TIZIMI – siyosiy institut tushunchasi, jamiyatning siyosiy tuzilishi va jamiyat a'zolarini davlat va jamiyat hayotida ishtirok etishining qabul qilingan hamda e'tirof etilgan qoidasi.

PASPORT (fr. passport) – shaxsning qaysi davlat fuqarosi ekanligini qayd etuvchi hujjat.

PASSIV SAYLOV HUQUQI – davlatning saylab qo'yiladigan organlariga saylanish huquqi.

PETITSIYA (lot. petitio) – fuqarolarning ma'lum bir qismi tomonidan yozma shaklda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotga oid bo'lgan masalalar bo'yicha davlatning oliy organlariga beradigan so'rovi.

PETITSIYA HUQUQI – fuqarolarning davlat boshliqlariga yoki idoralarga yozma ravishda u yoki bu ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy masalalar yuzasidan qiladigan murojaatlarining konstitusion kafolati.

PLEBITSSIT (lot. plebius – oddiy xalq, sclum - qaror) – referendumning o'ziga xos shakli bo'lib, u aholining o'zi yashaydigan hududdagi siyosiy taqdirini belgilashidir. P. – umumxalq ovoz berishi orqali aholining fikri-hohishini bilish usullaridan biri.

PREZIDENT – respublika boshqaruvi shaklidagi mamlakatlarda xalq (parlament, saylov kollegiyasi) tomonidan saylanadigan davlat rahbari.

PREZIDENT VETOSI – davlat boshlig'ining parlament tomonidan qabul qilingan, lekin hali kuchga kirmagan qonunga o'zining qarshiligini bildirish huquqi.

PREZUMPTSIYA (lot. praesumpio) – faraz qilish, oldindan haqiqatga yaqin deb bilish (shunga qarama-qarshi haqiqat aniqlanmasa).

PRESEDENT HUQUQI – sud pretsedentiga asoslangan davlatlarda huquq manbai sifatida qo'llaniladi.

RAG'BAT – arabcha, istadi ma'nosi bilan hosil qilingan bo'lib, biror ishni bajarishga bo'lgan istak ma'nosini anglatadi.

RASM-RUSUM – rasm – arabcha, nishonladi ma'nosi bilan hosil qilingan, urf-odat ma'nosini anglatadi.

RATIFIKATSIYA – tasdiqlash, biror bir mamlakatning oliy davlat organi tomonidan tasdiqlangan xalqaro shartnoma.

REABILITATSIYA (lot. Rehabilitatio – oqlash, ya'ni huquqlarni tiklash demakdir) – nohaq qoralangan, ayblanuvchi sifatida javobgarlikka tortilgan yoki aybdor deb hisoblangan, nohaq hukm qilingan shaxsga nisbatan ma'muriy ta'sir chorasi ko'rilishi hisoblanadi.

REPATRIATSIYA – turli hollar oqibatida boshqa davlatga borib qolgan shaxslarning, fuqarolarning o'z davlatiga qaytarilishi.

RESPUBLIKA (lot. res – ish va publikus – ijtimoiy; umumxalq ishi) – davlatni boshqarishning asosiy shakllaridan biri. Boshqarishning respublika shakli o'rnatilgan mamlakatlarda davlat hokimiyatining oliy organlari muayyan muddatga saylanib qo'yiladi.

REFERENDUM (lot. referendum – nima kerak bo'lsa, qilish ma'nosida) bevosita demokratiyaning muhim instituti bo'lib, davlat va jamiyat ahamiyatiga bog'liq masalalarni ovoz berish yo'li bilan amalga oshirishni o'zida aks ettiradi. **R.** – jamiyatni demokratik boshqarish jarayonida qo'llaniladigan tadbirlardan biri, ba'zi muhim masalalarni umumxalq so'roviga, xalq muhokamasiga qo'yib hal etish.

RIVOJLANTIRISH – rivoj – arabcha, asli xaridorni topdi, tarqaldi ma'nosini anglatuvchi so'zdan hosil bo'lgan bo'lib, arab tilida xaridorga sotish, tarqatish ma'nosini anglatadi; tojik tilida taraqqiy etish, jonlanish ma'nosini anglatadi, o'zbek tiliga tojik tili orqali olingan: o'sish, taraqqiy etish ma'nolarini anglatadi.

RIOYA – arabcha, amal qildi, hisobladi ma'nosi bilan hosil qilingan, amal qilish, hisoblashish ma'nosini anglatadi.

ROZI – arabcha, qanoat hosil qildi, xo'p dedi ma'nosi bilan hosil qilingan, arab tilida qanoat hosil qilgan degan ma'noni, o'zbek tilida aytilgan fikrni ma'qullash ma'nosini anglatish uchun ishlatiladi.

RUH – arabcha, yengil bo'ldi ma'nosidan hosil qilingan, arab tilidan o'zbek tiliga kishi hayotida u bilan birga vafotidan keyin tanadan chiqib, abadiy yashaydigan ma'nosidan olingan. Keyinchalik bu so'z ruhiy kayfiyat ma'nosini anglatgan.

SAYLANGAN – sayla – ovoz berish yo'li bilan biror lavozim yoki vazifaga tayinla, yoqlab ovoz ber. Qadimiy turkiy tilda so'z, nutq, xabar ma'nosini anglatadi.

SAYLOV HUQUQI – saylanadigan davlat idoralari shakllanishini tartibga soluvchi huquqiy normalar tizimi. S.h.ning manbalariga Konstitutsiya, davlat oliy va mahalliy vakillik idoralariga saylov to'g'risidagi qonunlar kiradi; fuqarolarning saylanadigan idoralar tashkil etishida ishtirok etish huquqlari, ya'ni ularning tarkibini saylashlari (faol saylov huquqi) va saylanishlari (passiv saylov huquqi) ma'nosida ham «saylov huquqlari» atamasi ham ishlatiladi.

SAYLOV TSENZI – saylov huquqini amalga oshirish yoki olish uchun Konstitutsiya yoki saylov qonunlari bilan belgilanadigan shart. Turli mamlakatlarning Konstitutsiyaviy amaliyotida quyidagi S.s. ma'lum: yoshi fuqaroligi, ma'lumoti, o'troqligi, mulkdorligi, jinsi, irqi, xizmat mavqeyi, tili. Mulkdorlik, jinsiy, irqchilik saylov senzi doimo kamsitish xarakterida va demokratik saylov tamoyillariga ziddir. Qolgan S.s.lar kamsitishini nazarda tutmaydi, biroq ba'zan undan shu maqsadda foydalanilishi mumkin.

SAQLA – ehtiyotkorlik bilan asra. Qadimiy turkiy tilda ehtiyotkor, sergak ma'nolarini anglatadi.

SAQLANISH – saqla – turkiy, ehtiyotkorlik bilan asra. Qadimgi turkiy tilda ehtiyotkor, sergak ma'nolarini anglatadi.

SALOMAT – arabcha, tinch-omon ma'nosi bilan hosil qilingan bo'lib, arab tilida tinchlik, bexatarlik, sog'lomlik kabi ma'noni, o'zbek tilida sog'lom, eson-omon kabi ma'nolarini anglatadi.

SAMARALI – samara – arabcha, meva (hosil) berdi ma'nosini anglatuvchi so'zdan hosil bo'lgan bo'lib, arab tilida meva, ho'l meva ma'nosini anglatadi, o'zbek tilida natija ma'nosini ham anglatadi.

SANA – arabcha, yil ma'nosini anglatib, o'zbek tilida biror voqeya sodir bo'lgan yil, oy, kun ma'nosini anglatadi.

SIYO SIY – arabcha, siyosat bilan bog'liq, siyosat sohasidagi kabi ma'nolarni anglatadi.

SIYO SIY BOSH PANA – xalqaro huquqiy normalar va ma'lum bir davlatlar tomonidan tegishli huquqiy normalar asosida o'z davlatida boshqa bir davlat fuqarosiga yashash va joylashish huquqini berish.

SIYO SIY BOSH PANA OLISH HUQUQI – shaxslarga nisbatan belgilangan o'ziga xos huquq. Bu huquq demokratik davlatlar tomonidan e'tirof etiladi va Konstitutsiyaviy tarzda qayd qilinadi.

SIYO SIY INSTITUTLAR – deyilganda jamiyatning qaror topgan davlat tashkiloti muassasalari va undagi lavozimlar tarkibi tushuniladi. Ular muayyan siyosiy faoliyatni amalga oshiradilar.

SIYO SIY LAYO QATSIZLIK – ma'lum bir davlat fuqarosi mustaqil tarzda o'z siyosiy huquq va erkinliklarini amalga oshirish Konstitutsiya yoki tegishli qonunlar bilan kafolatlanganligi.

SIYO SIY MADANIYAT – umumiy madaniyatning muhim turi, jamiyat a'zolari, millat, ijtimoiy guruhlar va qatlamlar hamda har bir fuqaroning davlatning ichki va tashqi siyosatini tushuna bilish qobiliyati, tahlil qila olish darajasi va siyosiy vaziyatga qarab, mustaqil ravishda o'z xatti-harakatlarini belgilash hamda ularni amalga oshirish madaniyati.

SIYO SIY PARTIYA (lot. pars, partis – qism, guruh; eski o'zbekchasi arabchadan firqa – guruh, to'da) – umumiy g'oya asosida odamlarni ixtiyoriy ravishda uyushtiruvchi turg'un tashkilot, fuqaroviy jamiyat bilan davlatni bir-biriga bog'lovchi eng muhim vositalardan biri, hozirgi zamon huquqiy demokratik davlati hayotining zaruriy omillaridan biri.

SIYO SIY PARTIYALAR – jamiyatning muayyan ijtimoiy tabaqalari faol namoyandalarini birlashtiruvchi, siyosiy hayotda bevosita ishtirok qilish orqali o'z manfaatlarini ifodalovchi siyosiy tashkilot.

SIYO SIY TUZUM – davlat ichki tuzilish jihatlarining o'zaro aloqalari va ta'sirining eng muhim, doimiy xususiyatlarini ifodalovchi ijtimoiy siyosiy munosabatlarning majmuasi, yig'indisi. U siyosiy hokimiyatni, umuman davlat muassasalari tizimini va ularning asosiy tashkiliy shakllarini belgilab beradi. Siyosiy tuzum har bir mamlakatning mavjud shart-sharoitlarini inobatga olib belgilanadi. Siyosiy tuzum odatda, mamlakat Konstitutsiyasida va shu asosda chiqarilgan boshqa qonuniy hujjatlarda mustahkamlab qo'yiladi.

SIYO SIY HUQUQ VA ERKINLIKLAR - fuqarolarga ma'lum bir davlat Konstitutsiyasi va qonunlari asosida beriladigan huquqlar. Siyosiy huquq va erkinliklar fuqarolarga davlat hokimiyatini amalga oshirishda ma'lum kafolatlar yaratishning shakli hisoblanadi.

SIR – arabcha, maxfiy gapdan, ishdan xabardor qildi ma'nosi bilan hosil qilingan bo'lib, maxfiy gap, ish narsa kabi ma'nolarni anglatadi.

SIFAT – arabcha, aniqladi, tasvirladi ma’nosi asosida hosil qilingan bo’lib, arabcha belgi-xususiyat, belgi ma’nosini anglatuvchi so’zlar turkumi ma’nolarini anglatadi.

SODIR – arabcha, yuzaga chiqdi ma’nosi bilan yasalgan bo’lib, yuzaga chiqqan, voqyelikka aylangan ma’nosini anglatadi.

STATUS (lot.) – huquq subyektlarining huquq va majburiyatlari majmuini ifoda etuvchi, huquq normalari bilan belgilangan holat.

STATUT (ingl.) – 1) Buyuk Britaniya, AQSh Kongressi va boshqa bir qator anglo-sakson huquqiy tizimiga mansub mamlakatlar parlamenti qonunchilik aktlarining nomlanishi; 2) xalqaro huquqda ko’pincha u yoki bu xalqaro organ faoliyati haqidagi qoida bo’lib, ko’p tomonlama xalqaro bitimlar shaklida namoyon bo’ladi.

SUVEREN TENGLIK KONSTITUTSIYAVIY PRINTSIPI – o’zga davlatlar xususiyatini e’tirof etish, ularning mustaqilligini hurmat qilish, o’z siyosiy, iqtisodiy va madaniy tizimini erkin tanlash va rivojlantirish, o’z qonun va ma’muriy qoidalarini o’rnatish huquqiga ekanligini bildiradi.

SUVERENITET (fransuzcha souverainite – oliy hokimiyat) – davlatning boshqa davlatdan, uning ichki va tashqi ishlari hamda tashqi munosabatlaridan to’la mustaqilligi. 1) Davlat suvereniteti – hozirgi davlatshunoslik fanida davlatning ichki va tashqi siyosatdagi to’la mustaqilligi sifatida talqin qilinadi; 2) xalq suvereniteti – xalqning to’la hukmronligi, xalq hokimiyati, xalq boshqaruvi ma’nolarini anglatadi.

SUD – muayyan davlat qonuni bilan mustahkamlangan protsessual tartibda jinoiy, fuqarolik, ma’muriy va boshqa kategoriyadagi ishlarni ko’rib chiqish va hal etishni amalga oshiruvchi davlat organi.

SUD HOKIMIYATI – davlat faoliyatini, uning vazifa va maqsadlarini amalga oshirishda hokimiyatlarning bo’linishi qoidasi asosida tarkib topuvchi hamda alohida davlat muassasalari orqali o’z vazifalarini bajaradi.

SUDNING DAXLSIZLIK HUQUQI – sud hokimiyati ifodachisi sifatida sudyalarning daxlsizligi; sudya tegishli organlar roziligisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, qamoqda saqlanishi, majburiy olib kelinishi mumkin emas.

SO’Z – turkiy, nimanidir anglatish, ko’rsatish, ifodalash uchun xizmat qiladigan eng kichik nutq birligi.

TABAQA – arabcha, asli berkitdi, o’radi ma’nosini anglatuvchi so’zdan hosil qilingan, arab tilida qatlam, etaj, bosqich, sinf kabi ma’nolarni anglatadi; o’zbek tilida eshik, deraza kabilarning har bir ochilib-yopiladigan qismi ma’nosini, shuningdek aholining ijtimoiy toifasi ma’nosini anglatish uchun ishlatiladi.

TABIATNI MUHOFAZA QILISH – qulay ekologik sharoitni yaratish, saqlash va yaxshilashga qaratilgan davlat va jamoat chora-tadbirlari tizimi.

TABIATNING HUQUQIY MUHOFAZASI – tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan yuridik normalarda qayd etilgan, inson hayot sharoitini yaxshilashga yo’naltirilgan davlat chora-tadbirlari majmui.

TABIY – arabcha, asli qanday bo’lsa, shunday ma’nosini anglatadi.

TABIY BOYLIKLAR – jamiyatning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida xo'jalikda foydalaniladigan hamda imkoniyatning yashashi uchun zarur bo'lgan, uni o'rab turgan tabiiy muhitning barcha tabiat komponentlari, energiya manbalari. T.b.lariga Quyosh energiyasi, yerning ichki issiqligi, suv, yer, mineral boyliklar, o'simliklar, tuproqlar, hayvonot dunyosi kiradi.

TABIY HUQUQ – davlat va huquq nazariyasida inson tabiatidan kelib chiquvchi va shu tufayli muayyan davlatning qonunlar orqali tan olishga yoki tan olmasligiga bog'liq bo'lmagan prinsiplar, qoidalar, huquq va qadriyatlar majmuasini bildiruvchi tushuncha.

TADBIR – arabcha, chorasini ko'rdi ma'nosi bilan hosil qilingan bo'lib, arab tilida biror ishni ruyobga chiqarish uchun amalga oshiriladigan xatti-harakat, chora ma'nosini anglatadi.

TAJOVUZ – arabcha, chegaradan o'tdi ma'nosi bilan hosil qilingan bo'lib, arab tilida o'tish, me'yordan oshish, qonunni buzish kabi ma'nolarni anglatadi, o'zbek tilida boshqa bir mamlakatni bo'ysundirish maqsadida qurol kuchi bilan bostirib kirish ma'nosini anglatadi.

TAQDIR – arabcha, nazarda tutdi ma'nosi bilan hosil qilingan, arab tilida ehtimol, nazarda tutish ma'nosida, o'zbek tilida oldindan belgilab qo'yilgan ko'rgulik, yozmish ma'nosini anglatadi.

TALAB – arabcha, izladi ma'nosi bilan hosil qilingan, arab tilida izlash, qat'iy iltimos, so'rov ma'nolarini anglatadi.

TALQIN – arabcha, tushuntirdi ma'nosi bilan hosil qilingan. Aniq bayon qilish, tushuntirish ma'nosini anglatadi; bu so'z diniy mundarija bilan diniy va'z ma'nosini anglatish uchun ham ishlatiladi.

TANLA – turkiy, ko'p narsa orasidan hohlaganini belgila. Asli biror bir belgisiga ko'ra ajrat, takror ma'nolarini anglatadi.

TARAQQIYO'T – arabcha, yuksalish, o'sish ma'nosini anglatadi. T. rivojlanishning oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga yo'nalgan shakli, uning yuksalishi. Adabiyotlarda T.ni ko'pincha rivojlanish bilan aynanlashtirib qo'yiladi, aslida u rivojlanishning bir yo'nalishidir. Shuningdek, T.ni ayrim adabiyotlarda faqat jamiyatdagi rivojlanish ma'nosida qo'llashadi, bu ham bir yoqlama yondashuvdir.

TARAQQIYPARVAR – arabcha, tarbiyala, parvarishla ma'nosini anglatuvchi so'zdan hosil bo'lgan; taraqqiyot uchun kurashuvchi ma'nosini anglatadi.

TARQATISH – ajralib, turli tomonga ket. Qadimiy turkiy tilda soch ma'nosini anglatadi.

TARTIB – arabcha, ma'lum qoidaga binoan, belgi-xususiyatiga ko'ra joylashtirdi ma'nosini anglatuvchi so'zdan yasalgan bo'lib, ma'lum qoidaga binoan, belgi-xususiyatiga ko'ra joylashtirilgan holat ma'nosini anglatadi.

TASDIQLASH – tasdiq – arabcha rostgo'y bo'ldi ma'nosi asosida hosil qilingan, arab tilida ishonch, to'g'riligini aytish ma'nosini anglatadi, o'zbek tilida to'g'riligini aytish ma'nosini anglatadi.

TAFOVUT – arabcha, farqli bo'ldi ma'nosini anglatuvchi so'zdan hosil qilingan, farq, o'ziga xos xususiyat ma'nosini anglatadi.

TASHQI SIYO SATNING ASOSIY PRINTSIPLARI – davlatning xalqaro munosabatlaridagi asosiy yo'nalishini qamrab oluvchi tashqi siyosiy tushuncha.

TASHKILOT – arabcha, birlashma, muassasa ma'nosini anglatadi.

TA'QIB – arabcha, ketidan keldi ma'nosi bilan hosil qilingan bo'lib, bildirmasdan kuzatish ma'nosini anglatadi.

TA'LIM – arabcha, o'qitdi, o'rgatdi ma'nosini anglatuvchi so'zdan hosil qilingan, o'qish-o'rganish, kuzatish orqali hosil qilingan bilim-ko'rikmalar kabi ma'nolarini anglatadi. T. – bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. T. jarayonida ma'lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi.

TA'LIMOT – arabcha, ilmiy-nazariy qarashlar majmui ma'nosini anglatadi.

TA'MINLANGAN – ta'minla – arabcha, kerakli narsalarni yetkazib ber ma'nosini anglatadi.

TA'MINOT – arabcha xavf-xatarsiz bo'ladi, kerakli narsalarga ega bo'ladi, ma'nosini anglatishdan hosil qilingan bo'lib, kerakli narsalarni yetkazib berish ma'nosini anglatadi.

TA'TIL – arabcha, to'xtatdi ma'nosi asosida hosil qilingan bo'lib, o'zbek tilida maktablarda o'qish to'xtagan kunlar ma'nosini anglatadi. U so'zdan tashkilot tomonidan o'z xodimlariga beriladigan uzoq muddatli dam olish kunlari ma'nosini anglatadi.

TEKIN – qadimgi turkiy tilda evaziga Hech narsa talab qilinmaydigan, bepul ma'nosini anglatadi.

TENG – qadimiy turkiy tilda, o'lchami, hajmi, miqdori kabi jihatlari baravar ma'nosini anglatadi.

TENG HUQUQLI FUQARO – Konstitutsiyaning asosiy tamoyillaridan va demokratiya elementlaridan biri.

TERI – turkiy, tananing tashqi qoplamasi, charm. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatadi.

TEXNIKA (techne – mahorat, san'at) – moddiy boylik olish hamda odamlar va jamiyatning ehtiyojlarini qondirish maqsadida inson atrofdagi tabiatga ta'sir qilishga imkon beradigan vositalar va ko'nikmalar majmui. Asosiy vazifasi – inson muhitini yengillashtirish va mehnat unumdorligini oshirish.

TIBBIY – arabcha, davoladi ma'nosi bilan hosil qilingan bo'lib, davolash bo'yicha ma'nosini anglatadi.

TIBBIY XIZMATDAN FOYDALANISH HUQUQI – insonning ijtimoiy huquqlari toifasidagi va Konstitutsiya bilan belgilangan huquqi.

TIL SUVERENITETI – O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili to'g'risida»gi 1989-yil 21-oktyabr qonunida ta'riflanishicha, «millatning buyuk yutug'i va ajralmas belgisi». Qonunga binoan, «qaysi til ona tili bo'lishidan qat'i nazar O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi barcha fuqarolar tengdir».

TIL SENZI – saylash huquqiga ega bo'lish uchun muayyan davlatning rasmiy (davlat) tilini (yoxud rasmiy tillardan birini yoxud barcha rasmiy tillarni) bilishlarini talab etuvchi qoida. Bir qator ko'p millatli davlatlarda (ba'zan

savodlilik senzi shaklida) tarqalgan. Ba'zan umumiy T.s.dan tashqari kvalifikasiya qilingan T.s. belgilanadi.

TILI – og'iz bo'shlig'ida pastki jag'ga yopishgan, ta'm-maza bilishga, nutq tovushlarini hosil qilishga xizmat qiladigan a'zo. Qadimiy turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatadi. Gapir ma'nosini anglatadi.

TINCh - turkiycha, tashvishdan, xatardan holi, osoyishta. Qadimiy turkiy tilda harakatdan, faoliyatdan to'xta ma'nosidan hosil qilingan.

TINChLIK VA INSONIYaTGA QARShI JINOYatLAR – eng og'ir xalqaro jinoyatlar. Xalqaro harbiy tribunal ustavi kvalifikasiyasi bo'yicha, agressiv urushni rejalashtirish, unga tayyorgarlik ko'rish, bunday urushni ochi shva olib borish yoki xalqaro shartnomalar, bitimlar, ahdlashuvlarni buzgan holda urushda biron-bir tarzda qatnashish tinchlikka qarshi jinoyat hisoblanadi. BMT Bosh Assambleyasining 1947-yil 3-noyabrdagi rezolyusiyatsiga ko'ra, urushni targ'ib qilish ham shunday jinoyat hisoblanadi. Xalqaro huquqqa ko'ra, tinchlikka qarshi jinoyat uchun javobgarlikka tortish muddatini qo'llash mumkin emas.

TINChLIK ShARTNOMASI – xalqaro kelishuv, shartnoma. T.sh.ga asosan, urushni tugatish, tinchlikni mustahkamlash, davlatlararo chegaralar o'rnatish va o'zgartirish, masalalari, tashqi siyosiy va iqtisodiy masalalar o'zaro kelishib olinadi.

TINChLIK, xalqaro tinchlik – xalqlar va davlatlar o'rtasida zo'rlik ishlatmasdan tashqi siyosat olib borishga, o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarishga va odatda, xalqaro shartnomalarda mustahkamlab qo'yilgan majburiyatlarga rioya etishga asoslanadigan munosabatlar: davlatlar o'rtasida uyushtirilgan qurolli kurashning yo'qligi.

TINChLIKKA QARShI JINOYatLAR – xalqaro jinoyatlarning og'ir turi.

TINChLIKKA TAHDid – har bir muayyan holatda BMT Xavfsizlik Kengashi tomonidan diskretion shaklda belgilanadigan va ushbu organning BMT Ustavi VII bobiga asosan, xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash uchun qanda choralar ko'rilishi kerakligi haqida tavsiyalar yoki qarorlar qabul qilish uchun asos bo'ladigan vaziyat.

TINCh-TOTUV YaShAShNING BESH PRINTSIPI (hindcha pancha shila) – 1) hududiy butunlikni va mustaqillikni o'zaro hurmat qilish; 2) hujum qilmaslik; 3) bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik; 4) tenglik va o'zaro manfaatdorlik; 5) tinch-totuv yashash.

TIRIKChILIK – tirik – yashab turgan, o'lmagan. Qadimiy turkiy tilda yasha, hayot kechir ma'nosini anglatadi.

TOAT – arabcha, itoat qilish ma'nosida, o'zbek tilida Ollohga sihinish ma'nosini anglatadi.

TOZA ATROF-MUHITDAN FOYDALANISH HUQUQI – insonning davlat tomonidan konstitusion tarzda ta'minlanadigan huquqi.

TOMON – taraf, qadimiy turkiy tilda yo'nalish ma'nosini anglatadi.

TOPISH – top – qadimiy turkiy tilda qidirgan narsa yokikishini aniqla ma'nosini anglatadi.

TOTALITARIZM (lot. totalitare – yaxlit, to'liq) – jamiyat hayotining og'ir vaziyatida tarixiy zaruriyat tufayli bir shaxs, ijtimoiy sinf yoki guruhning yakkahokimligiga so'zsiz bo'ysuniga asoslangan, vaqtincha va o'tkinchi siyosiy tartib, davlatni boshqarish shakllaridan biri.

TUB YeRLIK XALQLAR – bu ibora 1957-yilda Xalqaro mehnat tashkilotining 107-sonli «Mustaqil mamlakatlarda qabilaviy va yarim qabilaviy hayot kechirayotgan tub yerlik va boshqa aholini himoya qilish va birlashtirishi to'g'risida» konventsiya qabul qilinishi munosabati bilan xalqaro-huquqiy muomalaga kirgan.

TUG'ILADI – tug' – g'adimiy turkiy tilda bolani dunyoga keltir ma'nosini anglatadi.

TUG'ILGAN JOYNI TANLASH – bola tug'ilganda beriladigan fuqarolikni olish va belgilash prinsiplaridan biri.

TUZILISH – tuz – qadimiy turkiy tilda qismlarni ma'lum tartibda yaxlitla, tartibga solib yarat ma'nosini anglatadi.

TUR – qadimiy turkiy tilda xil, ko'rinish.

TURAR JOY DAXLSIZLIGI – mazkur holat konstitusion prinsip bo'lib, har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalani va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega.

TO'LA – qadimgi turkiy tilda hajmi to'liq egallangan.

TO'LIQ – to'l – bo'sh joyi qolmay egallagan. Qadimiy turkiy tilda asli ma'lum bir bo'shliqni egalla ma'nosini anglatadi.

UZLUKSIZ – eski o'zbek tilida orada uzilish bo'lmagan holda ma'nosini anglatadi.

UY – yashashga, ishlashga xizmat qiladigan qurilma, bino, xona.

UY-JOY HUQUQI – turar joy fondidan foydalanishga oid munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisi.

UY-JOYGA EGALIK HUQUQI – insonning Konstitutsiyaviy va ijtimoiy huquqi.

UMUM E'TIROF ETILGAN XALQARO PRINTSIPLAR – zamonaviy xalqaro huquqning mazmunini ifodalovchi va uning vazifalarini amalga oshirish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan asosiy umumiy va majburiy normalar.

UMUMJAHON – umum – arabcha so'z bo'lib, barchaga umumiy bo'ldi ma'nosida, arab tilida umumiylik, barcha kabi ma'nolarini anglatadi. Jahon – so'zi olam so'zining tojikcha muqobili. Olam arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilida butun borlik, barcha insonlar, hayvonlar, o'simliklar dunyosi, yorug' va qorong'i dunyo ma'nolarini anglatadi.

UNITAR DAVLAT (fransuzcha uniitaire, lotincha unitas – birlik, yaxlit, birlashgan, bir butunni tashkil qiluvchi) – tashkil qiluvchi qismlari davlat maqomiga ega bo'lgan davlat Bunday davlatda yagona Konstitutsiya, yagona fuqarolik, yagona oliy qonun chiqaruvchi, yagona boshqaruv va sud organlari mavjud bo'ldi.

URUSH QONUNLARI VA UDUMLARI – urushlarni olib borish bilan bog'liq masalalar bo'yicha davlatlararo munosabatni tartibga soluvchi xalqaro huquqiy normalar va prinsiplar yig'indisi.

URF-ODAT VA RASM-RUSUMLAR – kishilar turmushiga singib ketgan, doim takrorlanib turadigan xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari va ko'nikmalar. Urf-odat va rasm-rusumlar har bir millatda o'ziga xos tizimni tashkil qiladi, millat tomonidan turmush tarzining zaruriy sharti deb qabul qilinadi.

USUL – arabcha, joriy bo'ldi, singishib ketdi ma'nosi bilan hosil qilingan bo'lib, asos, rioya qilinadigan qoida ma'nosi bilan hosil qilingan bo'lib, asli amal qilinadigan tartib qoidalar ma'nosini anglatadi, o'zbek tilida amalga oshirish yo'li, tartibi ma'nosini anglatish uchun ishlatiladi.

USHLANISHI – ushla – barmoqlar bilan tut. Qadimiy turkiy tilda kaft ma'nosini anglatadi. Asli hovuchga ol ma'nosini bildirgan bo'lib, keyinchalik barmoqlar bilan tut ma'nosi o'sib chiqqan.

UYUSHMA – to'dalash, birlash. Qadimiy turkiy tilda to'pla, to'dala ma'nosini anglatadi.

FAVQULODDA HOLAT – Konstitutsiyaviy huquqning institutlaridan biri. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining, korxonalarining, muassasalarning va tashkilotlarning alohida ish rejimi.

FAOLIYAT – arabcha, ish-amal bilan shug'ullanish, ish-harakat jarayoni kabi ma'nolarini anglatadi.

FARZANDLIKKA OLISH SIRI – qonun bilan himoya qilinadigan bolani farzandlikka olish fakti va holatlari haqidagi ma'lumotlar.

FEDERATSIYA (lot. foederare – ittifoq bo'lib mustahkamlash) – davlat tuzilishi shakllaridan biri. Federativ davlatlar murakkab tuzilishga ega davlatlar deb ham yuritiladi. Chunki, federativ davlat, odatda, davlatlarning o'z siyosiy mustaqilligini ixtiyoriy ravishda va muayyan doirada cheklash yo'li bilan yagona ittifoqqa birlashuvi natijasida yuzaga keladi.

FIKR – arabcha, fikrlash jarayonining mahsuli ma'nosida, o'zbek tilida taklif, maslahat, niyat kabi ma'nolarini anglatadi.

FIKR VA VIJDON ERKINLIGI – kishilarning shaxsiy huquqlaridan biri bo'lib, individning har qanday mafkuraviy nazoratdan xoli ekanligi, har bir kishi ma'naviy qadriyatning o'ziga ma'qulini tanlab olishga egalik huquqi. Fikr va vijdon erkinligi insonning mutlaq huquqi bo'lib, uni cheklashga hech kim haqli emas.

FILIATSIYA (lot. - o'g'il) – Konstitutsiyaviy huquqda tug'ilgan zahoti fuqarolikka ega bo'lish. F. tartibida fuqarolikka «qon huquqi» yoki «yer huquqi» prinsiplari asosida erishiladi. Birinchi holda, bola qayerda tug'ilganidan qat'i nazar, ota-onasining fuqaroligini oladi. Ikkinchida – bola ota-onasining fuqaroligidan qat'iy nazar, o'zi tug'ilgan hudud tegishli bo'lgan davlatning fuqarosi bo'ladi.

FOYDALANISH – foyda – arabcha, foydali bo'ldi ma'nosini anglatuvchi so'zdan yasalgan bo'lib, biror kishi yoki narsadan tegadigan naf, xarajatni chiqarib

tashlagandan keyin qoladigan daromad, qarz oluvchi qarz beruvchiga to'laydigan qo'shimcha haq ma'nosini anglatadi.

FUQARO – arabcha, qashshoqlar ma'nosini bildiradi, o'zbek tilida biror mamlakatning doimiy aholisi ma'nosini anglatadi. **F.** – 1) muayyan davlatga (Konstitutsiyaviy va xalqaro huquqda) huquqiy asosda tegishli bo'lgan shaxs. **F.** muayyan huquqiy layoqatga, huquqlar, erkinliklarga va majburiyatlarga ega; 2) fuqarolik huquqining subyekti fuqarolik huquqiy munosabatining ishtirokchilari turlaridan biri (fuqarolik huquqida).

FUQAROLAR HIMOYASI – aholi va tashkilotlarni harbiy harakatlar chog'ida yoki ushbu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan himoya qilish maqsadida tashkil etiladigan tadbir.

FUQAROLARNING ASOSIY HUQUQLARI – fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan huquq, erkinlik va burchlarning joriy etilishi, ularning qonuniy huquq va manfaatlarini davlat tomonidan qo'riqlanishida o'z aksini topadi va ular uch guruhga bo'linadi: 1) ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar; 2) siyosiy huquq va demokratik erkinliklar; 3) uy-joy daxlsizligi va shaxsiy huquqlar.

FUQAROLARNING BURCHLARI – yuridik burchlar huquq subyekti fuqaroga tegishli munosib axloq normalaridir. Fuqaro o'z burchini qonunga binoan va huquqning majburiyatli subyekti sifatida bajaradi.

FUQAROLIGI BO'LMAGAN SHAXSLAR – O'zR hududida yashayotgan, O'zR fuqarosi yoki chet davlat fuqaroligiga mansubligini isbotlaydigan dalillari bo'lmagan shaxslardir.

FUQAROLIK – shaxsning aniq bir davlatga siyosiy va huquqiy mansubligi. Aniq bir davlat fuqaroligini qabul qiluvchi shaxs. Mazkur davlat qonunlari va farmonlarini bajarish majburiyatini oladi. **F.** – shaxsning muayyan davlat qaramog'ida bo'lish, shu davlatga, mamlakat ichida ham, uning tashqarisida ham mansub ekanligi, shu mansublikning huquqiy hujjatlar yordamida tasdiqlanganligi.

FUQAROLIK JAMIYATI – Konstitutsiyaviy huquq nazariyasida ijtimoiy hayotning huquq va demokratiyaga asoslangan zaruriy va oqilona usuli; insonga uning iqtisodiy va siyosiy borlig'ining shakllarini erkin tanlash huquqi kafolatlanadigan, inson huquqlari qaror topadigan mafkuraviy plyuralizm ta'minlanadigan ijtimoiy tuzum.

FUQAROLIK MAS'ULIYATI – jamiyatning demokratik rivojlanishi jarayonida erishgan g'alaba, yutuq va muvaffaqiyatlariga fuqarolarning ongli munosabati, yutuqlarni yanada ko'paytirish va ulardan foydalanishda faol qatnashishi.

FUQAROLIK NIHOHI – davlat hokimiyatining tegishli idoralarida machit (cherkov) ishtirokisiz rasmiylashtirilgan nikoh. Ba'zan fuqarolik nikohini amaldagi nikoh deb ham ataydilar.

FUQAROLIK HUQUQLARI (SHAXSIY HUQUQLAR) – insonga tug'ilganidan tegishli bo'ladigan va uning muayyan davlatga qarashli ekanligiga bog'liq bo'lmagan tabiiy va ajralmas asosiy huquq va erkinliklarining yig'indisi.

FUQAROLIK HUQUQLARINI HIMOYA QILISH - fuqarolik huquqi institutlaridan biri. O'zRda buzilgan yoki munozarali fuqarolik huquqini himoya

qilish prosessual qonunchilikda belgilanishi bo'yicha sudlovga tegishliligiga qarab sud yoki xo'jalik sudi tomonidan amalga oshiriladi.

FUQAROLIK TSENZI – Konstitutsiya va saylov haqidagi qonun bilan belgilangan talab bo'lib, unga ko'ra, saylovchi yoki davlatning saylanadigan lavozimiga nomzod Ushbu davlatning fuqarosi bo'lishi kerak.

FUQAROLIKNI OLISH – shaxsning O'zRning «Fuqarolik to'g'risida»gi qonun talablari asosida fuqarolikni olish. Shu qonunning 12-moddasida O'zR fuqaroligini olishning quyidagi asoslari qayd etilgan: 1) tug'ilganda; 2) O'zR fuqaroligiga qabul qilinishi natijasida; 3) O'zRning xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan boshqa asoslar bo'yicha.

FUQAROLIKNI OLISH HUQUQI – shaxsning tug'ilishi bilan fuqarolikka mansubligining vujudga kelishi. O'zRning 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan «Fuqarolik to'g'risida»gi qonunning 13-moddasiga asosan, tug'ilgan paytda otanasini O'zR fuqarosi bo'lganlar O'zR hududida yoxud O'zRdan tashqarida tug'ilgan bo'lishidan qat'iy nazar, O'zR fuqarosi hisoblanadi.

FUQARONI VAFOT ETGAN DEB E'LON QILISH – agar fuqaroning qayerda turganligi haqida uning yashash joyida uch yil mobaynida ma'lumot bo'lmasa, busharti, u o'lim xavf solib turgan yoki muayyan baxtsiz hodisadan halok bo'lgan deb taxmin qilish uchu nasos bo'ladigan vaziyatlarda bedarak yo'qolgan bo'lib, uning qayerdaligi haqida olti oy mobaynida ma'lumotlar bo'lmasa, manfaatdor shaxslarning arizasiga muvofiq, sud uni vafot etgan deb e'lon qilishi mumkin.

FUQARONING ISMI – shaxsning ijtimoiy hayotda va fuqarolik muomalasida individuallasuvi vositasi. Ism huquqi fuqaroning 1966 yildagi fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga muvofiq ajralmas huquqi hisoblanadi.

FUQARONING MUOMALA LAYOQATI – «O'zRning fuqaroligi to'g'risida»gi 1992-yil 2-iyul qonunida belgilanganidek, fuqaroning o'z harakati bilan fuqarolik huquqlarini olish va amalga oshirish, o'zi uchun fuqarolik majburiyatlarini yaratish va ularni bajarish qobiliyati.

XABEAS DATA (lot.) – bir qator mamlakatlarning Konstitutsiyaviy huquqida fuqarolarning shaxsiy huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning eng yangi yuridik vositalaridan biri.

XALQ – arabcha, yaratdi, yuzaga keltirdi ma'nosini anglatuvchi so'zdan hosil qilingan bo'lib, asli yaratilgan jonli-jonsiz narsalar ma'nosini anglatadi, o'zbek tilida ma'lum bir sohada birgalikda yashovchi odamlar, aholi, odamlar to'pi kabi ma'nolarini anglatadi.

XALQARO – arabcha, xalqlar orasidagi, dunyodagi kabi ma'nolarini anglatadi.

XALQARO IQTISODIY HUQUQ – xalqaro ommaviy huquqning umumiy tarmog'i, xalqaro iqtisodiy munosabatlar bilan xalqaro huquq subyektlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normalar yig'indisidan iborat. X.i.h. munosabatlari murakkab tizimga ega. Ular turli mamlakatlarning jismoniy va

yuridik shaxslari o'rtasidagi munosabatlar kabi davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni ham qamrab oladi.

XALQARO KONVENTSIYALAR (ShARTNOMALAR) – ko'p tomonlama xalqaro shartnomalarning keng tarqalgan nomlaridan biri. Xalqaro konvensiyalarning o'zga nomdagi xalqaro shartnomalardan farqi yo'q. Ko'pgina xalqaro konvensiyalar iqtisodiy, yuridik va gumanitar xarakterdagi maxsus masalalar bo'yicha tuziladi.

XALQARO SANKTSIYA – amaliyotda quyidagi ahamiyatga ega bo'lgan termindir. 1) xalqaro huquq normalarining elementlaridan biri hisoblanib, huquqni buzgan davlat uchun yaxshi oqibatlarga olib kelmaydi; 2) xalqaro tashkilotlar tomonidan, masalan BMT tomonidan amalga oshiriladigan majburlov choralari; 3) xalqaro hamjamiyat tomonidan qo'llaniladigan xalqaro huquqiy javobgarlikning o'ta siyosiy shakli va hokozolar.

XALQARO SUD – BMTning asosiy sud organi. 1945-yilda tashkil topgan. Gaaga shahrida joylashgan (Niderlandiya). Uning maqomi, vazifasi va huquqlari nizomida belgilangan. Xalqaro sud 15 nafar saylanadigan a'zodan iborat.

XALQARO TASHKILOTLAR – muayyan maqsadlarni amalga oshirish uchun xalqaro shartnoma asosida tuzilgan, tegishli organlarga ega bo'lgan, a'zo davlatlarning huquq va majburiyatlariga ega bo'lgan hamda xalqaro huquqqa binoan ta'sis etilgan davlatlarning uyushmasidir. X. T. – mustaqil davlatlar yoki milliy jamiyatlar (assotsiatsiyalar)ning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy maqsadlarga erishishi uchun tuzilgan birlashmalar, mamlakatlar o'rtasida ko'p tomonlama hamkorlik qilishning eng muhim turlaridan biri.

XALQARO TASHKILOTLARNING SHARTNOMALARI – xalqaro huquq manbalaridan biri. Xalqaro tashkilotlar o'zaro yoxud bir yoki bir necha davlatlar bilan shartnoma tuzadi. Xalqaro tashkilotlarning shartnomaviy huquqiy layoqati o'z xususiyatiga ko'ra davlatlarning shartnomaviy huquqiy dlayoqatidan keskin farq qiladi.

XALQARO TERRORIZM – odamlarning behuda xaloq bo'lishiga olib keluvchi, davlatlar va ular vakillarining normal diplomatik faoliyatini buzuvchi hamda xalqaro aloqalar bilan uchrashuvlarni, shuningdek, davlatlar o'rtasidagi transport aloqalarini amalga oshirishni qiyinlashtiruvchi xalqaro miqyosdagi ijtimoiy xavfli qilmishlar yig'indisi.

XALQARO TILLAR – hozirgi zamon xalqlari, davlatlari orasidagi munosabatlarda eng ko'p ishlatiladigan tillar. Xalqaro tillar bilan BMTning rasmiy tillari orasida farq bor.

XALQARO TINCHLIK VA XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH – xalqaro huquq normalariga rioya qilgan holda davlatlar va xalqaro tashkilotlarning tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan Amaliy faoliyat.

XALQARO TRIBUNALLAR – xalqaro jinoyatlarni sodir etishda aybdor bo'lgan jinoyatchilar va davlatlarni sud qilish uchun tuziladigan xalqaro organlar.

XALQARO HAMKORLIK – davlatning xalqaro maydondagi faoliyati asosiy yo'nalishlaridan biridir. X.h. har qanday davlat uchun hayotiy zaruratdir. Yer yuzida hozir 200 dan ortiq davlatlar bor. Ularning har birida me'yorida hayot kechirish va o'zaro hamkorlik qilishga ehtiyoj mavjud. Xalqaro hamjamiyat

xalqaro huquqning o'zagini tashkil etuvchi umum e'tirof etgan prinsiplar va qoidalarning majmuasini ishlab chiqqan. Davlatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlik ana shu prinsiplar asosida amalga oshiriladi.

XALQARO HUQUQ - xalqaro huquq munosabatlarida xalqlarning (davlatlar) huquq va majburiyatlari, normalashgan tizim. Bunda xalqlar (davlatlar) shu huquqiy tizimning subyekti hisoblanadi. X. H.– xalqaro ommaviy huquq. «Xalqaro huquq» tushunchasi xalqaro ommaviy huquqni bildiradi. Xalqaro ommaviy huquq – xalqaro munosabatlarda qatnashadigan va ishtirok etadigan davlatlar (subyektlar)ning yuridik munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga soladi. Xalqaro ommaviy huquq – davlatlar o'rtasidagi xalqaro munosabatlarning bazaviy xalqaro prinsiplarini belgilab beradi.

XALQARO HUQUQ KOMISSIYASI – BMT Bosh Assambleyasining yordamchi muassasasi bo'lib, u Bosh Assambleyaning 174 (11) sonli rezolyusiyasiga asosan tashkil etilgan. Mazkur muassasa «xalqaro huquq sohasida tan olingan nufuzga ega bo'lgan» 34 nafar xalqaro huquqshunosdan iborat.

XALQARO HUQUQIY SHARTNOMALAR – xalqaro huquqning bir tarmog'i. Amaldagi vakillar asosida bo'lgan huquqiy munosabatlarning normativ negizini tashkil etadi, hamda xalqaro miqyosda amalga oshiriladigan munosabatlarning vujudga kelishi va yo'qolishini ta'minlaydi.

XALQARO HUQUQNING ASOSIY PRINTSIPLARI – ma'lum tarixiy bosqichda xalqaro hayotning eng asosiy masalalari bo'yicha xalqaro munosabatlar subyektlarining umum qabul qilgan va mujassamlashtirilgan axloq normalari.

XALQARO SHARTNOMA - xalqaro shartnomalarda davlatlar asosiy tomonlar hisoblanadi. Xalqaro shartnomalar (davlatlar) xorijiy davlatlar yoki xalqaro birlashmalarning o'zaro kelishuvchi natijasida yozma ravishda tuziladi.

XALQARO SHARTNOMA HUQUQI – xalqaro huquqning shartnomalarni tuzish, amalga oshirish va to'xtatish shartini belgilab beruvchi tarmog'i. Hozirgi vaqtda BMT doirasida 1969-yilgi Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konventsiyasi amal qilmoqda.

XALQARO SHARTNOMALARNI QAYD QILISH – xalqaro shartnomalarni qayd qilish BMT kotibiyatida amalga oshiriladi. BMTda qayd etilgan shartnomalar maxsus BMT axborotnomalarida nashr qilinadi.

XALQARO SHARTNOMANI DENONSATSIYA QILISH (fr. denoncer) – ikki tomonlama xalqaro shartnoma amal qilishni to'xtatish yoki ko'p tomonlama xalqaro shartnomadan chiqishning keng tarqalgan usuli.

XALQLARNING (MILLATLARNING) O'Z HUQUQLARINI O'ZLARI BELGILASH HUQUQI – 1) davlat va huquq nazariyasi, konstitusion huquq, xalqaro huquq nuqtai nazaridan ilmiy jihatdan o'rganiladigan tushuncha. Shunga ko'ra, x.o'h.o'b.h. deganda mustaqil huquqiy tushuncha sifatida – xalqlarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy yo'nalishlarida mustaqil tarzda o'z huquqlarini belgilash tushuniladi; 2) ma'lum bir davlat miqyosida mavjud milliy davlat tizimiga birlashgan xalqlarning huquqini konstitusion tarzda belgilash.

XALQLARNING O'Z TAQDIRINI O'ZLARI BELGILASH PRINTSIPI – xalqaro huquqning hozirgi zamon asosiy imperativ prinsiplaridan biri. U to'liq ravishda «Xalqlarning o'z huquq va erkinliklarini hamda taqdirini

o'zlari hal qilish prinsipi» (BMT Nizomi 1-modda, 2-band) deb ataladi. Inson huquqlari bo'yicha 1966-yildagi Paktning 1-moddasida quyidagicha yozilgan: «Hamma xalqlar o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga ega». Shu orqali ular o'zlarining siyosiy maqomini iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishini o'zlari belgilaydilar. Bu prinsipning kelib chiqishi XVIII asrdagi Frantsiya va Amerikada bo'lib o'tgan inqiloblarning ildiziga borib taqaladi, chunki bu inqiloblarda davlat hokimiyatining birdan bir manbai xalq (millat) suvereniteti deb e'lon qilingan edi.

XIZMAT – arabcha, mehnat faoliyatini ado etdi ma'nosi bilan hosil qilingan bo'lib, mehnat faoliyati ma'nosini anglatadi.

XOLIS – arab tilida haqiqiy, betaraf kabi ma'nolarni, o'zbek tilida betaraf, barchaga bir xil, odilona baho beradigan ma'nosini anglatadi.

XOS – arabcha, alohida xususiyatli bo'li ma'nosidan hosil qilingan, biror kishi yoki narsaning o'ziga tegishli, o'zidagina mavjud ma'nosini anglatadi.

XUSUSAN – arabcha, shular orasidan ma'nosini anglatadi.

XUSUSIY – arabcha, ma'lum bir shaxsga tegishli, shaxsiy kabi ma'nolarini anglatadi.

XUSUSIY MULK – ayrim kishilarga tegishli, fuqaro foyda olish maqsadida foydalanadigan mulk turi. Mulkdan foydalanib, daromad olish maqsadida ishlab chiqarish, fuqaroning o'z mehnati bilan yoki boshqa birovlarini yollash yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. Xususiy mulkchilik mulkni o'zlashtirish, o'z mol-mulkiga xususiy tarzda egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidan iboratdir.

TSENZ (lot. – ro'yxatdan o'tkazaman) – 1) Qadimgi Rimda fuqarolarni ularning ijtimoiy-siyosiy, harbiy va qaramlik holatini ko'rsatgan holda ro'yxatdan o'tkazish; 2) O'rta asrlarda G'arbiy va Markaziy Yevropada dehqonlar qaramligi, obrok; 3) saylov senzi; 4) statistik ro'yxatga olish.

TSIVILIZASIYA (lot. civilis – fuqaroviy, ijtimoiy) – jamiyatning o'z taraqqiyoti jarayonida yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarining, ularni yanada ko'paytirib hamda takomillashtirib borish usullarining majmui.

ChEGARA – bir joyni boshqa bir joydan ajratuvchi yer, had. Asli biror narsaning tugash nuqtasi.

ChET EL FUQAROLARI (ChET ELLIKLAR) – mazkur davlatning fuqarosi bo'lmagan va boshqa davlatning fuqarosi ekanligi to'g'risida tegishli dalillari bo'lgan shaxslar. Chet el fuqarolarining huquqiy holati o'z davlatining milliy qonunchiligi va tuzilgan xalqaro shartnomalar hamda kelishuvlar bilan belgilanadi.

ShAKL – arabcha, ko'rinish berdi ma'nosi bilan hosil qilingan bo'lib, ko'rinish ma'nosini anglatadi.

ShAROIT – arabcha, talab-takliflar bildirdi ma'nosi bilan hosil qilingan, arab tilida bildirilgan talab takliflar ma'nosini anglatadi. O'zbek tilida biror ishni amalga oshirish uchun zarur vaziyat ma'nosini anglatadi.

ShAFQAT – arabcha, rahmdil bo’ldi ma’nosi bilan hosil qilingan bo’lib, rahmdillik ma’nosini anglatadi.

ShAXS – arabcha, kimligini aniqladi ma’nosi bilan hosil qilingan, ma’lum bir kishi ma’nosini anglatadi. Sh. – alohida individ, mohiyatan yaxlit ijtimoiy-axloqiy olam. U o’zida inson mohiyatini, uning mavjudot sifatidagi qadriyatini mujassam etadi. Sh. ijtimoiy-gumanitar fanlarda o’z yo’nalishi, tadqiqot obyekti va maqsadi nuqtai nazaridan turlicha talqin etiladi.

ShAXS DAXLSIZLIGI (O’zbekiston Respublikasida) – har bir kimsaning tug’ilganidan boshlab tan olinadigan uzviy huquqi. Sh.d. jismoniy, axloqiy va ma’naviy jihatlariga ega. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga va boshqa bir qator xalqaro huquqiy hujjatlarga binoan, sh.d. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-bo’limida batafsil ifodalangan va qonunlar bilan barchaga teng ravishda kafolatlangan. Sh.d.ni hamma shaxslarga, shu jumladan, ajnabiy mamlakatlardagi O’zbekiston fuqarolariga nisbatan ta’lim davlat zimmasidadir. Biror huquq va erkinlikdan sud qarorisiz mahrum etishga yoxud ularni cheklashga hech kim haqli emas.

ShAXSIY – arabcha, shaxsning o’ziga tegishli ma’nosini anglatadi.

ShAXSIY DAXLSIZLIK – har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas.

ShAXSIY HUQUQ VA ERKINLIKLAR – ijtimoiy va huquqiy maqomidan qat’iy nazar, insonga tug’ilganidan mansub bo’lgan asosiy huquqlar.

ShAXSNI KO’CHIRISH – majburiy tarzda shaxsni bir mamlakatdan ikkinchisiga ko’chirish va u yerda uning mehnatidan foydalanish.

ShAXSNING HUQUQIY HOLATI – fuqaroning huquqiy holati (maqomi). Huquq subyekti sifatida davlat tomonidan tan olingan va kafolatlangan. Huquq, erkinlik, majburiyatlarni hamda manfaatlarning qonun bilan ta’minlanishi.

ShAXSNING HUQUQIY HOLATI (O’zbekiston Respublikasida) – shaxsning jamiyat, davlat va boshqa shaxslar bilan bo’ladigan o’zaro munosabatlardagi real ahvolini ko’rsatuvchi holati. U shaxsning yuridik jihatdan mustahkamlab qo’yilgan va jamiyatda tutgan o’rnini belgilaydigan huquqlari, erkinliklari, majburiyatlari yig’indisidir. Sh.h.h. Konstitutsiya va unga muvofiq chiqarilgan boshqa qonun hujjatlarida mustahkamlanadi.

ShA’N – arab tilida 5 ma’noni anglatuvchi bu so’z o’zbek tiliga yuksak qadr-qimmat, obro’-e’tibor ma’nosi bilan qabul qilingan.

ShA’N, QADR-QIMMAT VA ISHCHANLIK OBRO’SINI HIMOYA QILISH – nomoddiy farovonlikni ta’minlash usuli. Fuqaro o’zining sha’ni, qadr-qimmatini yoki ishchanlik obro’siga putur yetkazuvchi ma’lumotlar yuzasidan, basharti bunday ma’lumotlarni tarqatgan shaxs ularning haqiqatga to’g’ri kelishini isbotlay olmasa, sud yo’li bilan radiya berilishini talab qilishga haqli.

EGA – qadimiy turkiy tilda egalik qiluvchi, ixtiyorida bor ma’nosini anglatadi.

EZGU – turkiy, yaxshi, oliyjanob. Qadimgi turkiy tilda yaroqli bo’l, munosib bo’l ma’nosini anglatadi.

EKOLOGIK TANGLIK XAVFI – XX asr davomida texnikaning rivoji, xalq xo'jaligini va kundalik turmushni kimyolashtirish, yer yuzida aholi sonining keskin ko'payishi oqibatida tabiat bilan inson o'rtasidagi muvozanatning buzilishi, yer, suv va havoning inson hayotiga zararli darajada ifloslanishi natijasida paydo bo'ladi.

EKSTERRITORIALLIK (lot. ex – tashqarida, territorialis - hududda) – to'liq immunitetga egalik, ya'ni shaxsni (yoki muassasani) ushbu shaxs (yoki muassasa) o'zi fuqarosi bo'lgan davlat hududida joylashgan (yoki millat, agar shap jismoniy shaxslar to'g'risida bormayotgan bo'lsa), deb hisoblash asosida biron bir davlat yurisdiksiyasidan ozod bo'lish.

EKSTRADITSIYA (lot.) – bir davlatdan boshqa bir (xorijiy) davlatga o'z fuqarosini (yoki xorijlik fuqaroni berish). Hozirgi Konstitutsiyalar qoida tariqasida, o'z fuqarolarini xorijiy davlatlarga berishni so'zsiz man qiladi.

ELChI – davlatning o'zaro diplomatik aloqalarida faoliyat ko'rsatuvchi diplomatik vakolatxonalar boshlig'i.

ELChIXONA – suveren davlatning boshqa suveren davlat hukumati qoshidagi diplomatik vakolatxonasi, shu vakolatxona joylashgan bino. Bu vakolatxonani elchi boshqaradi. U o'z davlatining rasmiy vakili hisoblanib, diplomatik unvonlardan biriga ega bo'ladi.

EMIGRANTLAR (lot. - ko'chiriluvchi) – o'zi fuqaro bo'lgan yoki doimiy yashash uchun boshqa davlatga ko'chib ketayotgan shaxslar.

ERK – turkiy, ozodlik, huquq. Qadimgi turkiy tilda asli kuch-qudrat ma'nosini anglatadi, erkinlik ma'nosi keyin yuzaga kelgan.

ERKAK – turkiy, erkak jinsiga mansub. Qadimiy turkiy tilda er jinsiga mansub kishi ma'nosini anglatuvchi so'zdan yasalgan.

ERKIN – turkiy so'z bo'lib, moneliksiz, ozod holda ma'nosini anglatadi.

ERKIN HARAKAT QILISH VA JOYLASHISH HUQUQI – insonning shaxsiy huquqlaridan biri. Har bir kishining ma'lum bir qonunlarga rioya qilgan holda davlatning istagan yerida yashashi, bo'lishi va davlatning u chetidan bu chetiga erkin harakat qilish huquqiga egaligi.

ERKINLIK VA SHAXSIY DAXLSIZLIK HUQUQI – fuqarolarning davlat tomonidan Konstitutsiyaviy tarzda kafolatgan huquqi.

E'LON – arabcha, xabarni ma'lum qildi, ma'nosi bilan hosil qilingan, rasman ma'lum qilingan xabar ma'nosini anglatadi.

E'TIBOR – arabcha, ibrat qozondi ma'nosi bilan hosil qilingan, alohida diqqat bilan yoshdoshish, nufuz, obro' kabi ma'nolarini anglatadi.

E'TIQOD – arabcha, bog'ladi ma'nosini anglatadi, o'zbek tilida qattiq ishonch, Allohga kuchli ishonch bilan sig'inish kabi ma'nolarini anglatadi.

E'TIQOD ERKINLIGI – kishi ongida chuqur o'rnanib qolgan va amalga oshirilishi shaxsning kundalik ehtiyojiga aylangan intilishi, xatti-harakati va dunyoqarashlar tizimi.

YuRIDIK KAFOLATLAR – fuqarolar va tashkilotlarning subyektiv huquqlarini muhofaza qilishning qonunda mustahkamlangan vositalari, ularni

amalga oshirish usullari hamda qonunchilikni ta'minlash va huquqiy tartibni, shaxsni, jamiyat va davlat manfaatlarini muhofaza qilish vositalari.

YuRISDIKTSIYa (lot. – sudlov, huquq, so'zlash) – tegishli davlat organlarining huquqiy yelishmovchiliklarni va huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni hal etish, ya'ni shaxs yoki boshqa huquq subyekti harakatlarini ularning qonuniyligi nuqtai nazaridan baholash, huquqbuzarlarga nisbatan yuridik sanksiyalar qo'llash vakolatlarining qonunda belgilangan majmuasi.

YaKDILLIK PRINTSIPI – BMT Ustavida mustahkamlangan BMT Xavfsizlik Kengashi qarorlarni qabul qilish tartibi bo'lib, unga ko'ra barcha masalalar bo'yicha qaror qilish uchun, xavfsizlik Kengashi barcha doimiy a'zolarining mos keladigan ovozlarini ham hisobga olganda, kamida 9 ovoz bo'lishi kerak.

YaLPI – turkiy so'z bo'lib, umumiy ma'nosini anglatadi, qadimiy turkiy tilda eniga yoki yoniga keng ma'nosini ifodalagan. Dastlab keng ma'nosini anglatgan bo'lib, barchasini qamrab olgan, umumiy ma'no shu ma'no asosida yuzaga kelgan.

YaRATISH – turkiy, yarat, vujudga keltir. Qadimiy turkiy tilda vujudga kelgan ma'nosidan hosil qilingan.

YaXShI – turkiy, ijobiy sifatga ega, kishiga yoqadigan, ma'qul bo'ladigan. Qadimiy turkiy tilda didga, hohishiga mos tush, ma'qul bo'l ma'nosini ifodalovchi so'zdan hosil qilingan.

YaShASH – turkiy – umr ko'r, hayot kechir. Qadimiy turkiy tilda bir yilga teng umr ma'nosidan yasalgan.

YaShASH HUQUQI – insonning eng asosiy, ham tabiiy, ham ijtimoiy huquqi. Xalqaro huquq hamda demokratik davlatlar Konstitutsiyalarida himoyaga olinadi.

YaShIRIN – o'zgalarga bildirmay, maxfiy. Qadimiy turkiy tilda o'zga ko'rmaydigan joyga qo'y ma'nosini anglatadi.

YaShIRIN OVOZ BERISH – ovoz beruvchining istak bildirishini nazorat qilishga yo'l qo'ymaydigan ovoz berish turi

O'ZBEKISTON – «O'zbekiston Respublikasi» va «O'zbekiston» iboralari bir ma'noga ega. O'zbekiston – Markaziy Osiyoning o'rta qismida joylashgan mustaqil mamlakat. Shimoliy katta qismi mo'tadil, janubiy cheka qismi subtropik mintaqaga mansub. Iqlimi ham mo'tadil iliq, keskin kontinental. Hududi 447,4 ming kv. km. Aholisi 23,8 million kishi (1997). Ma'muriy jihatdan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Andijon, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Namangan, Samarqand, Sirdaryo, Surxondaryo, Toshkent, Farg'ona, Xorazm, Qashqadaryo viloyatlaridan va Toshkent shahridan iborat ma'muriy hududlarga bo'lingan. Poytaxti – Toshkent shahri.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FUQAROLIGI – insonning O'zbekiston davlati bilan barqaror huquqiy aloqasi bo'lib, ularning o'zaro huquqlari, majburiyatlari va bir-birlari oldidagi mas'uliyati yig'indisida namoyon bo'ladi.

O'ZGARTIRISH – o'zgar – boshqa holatga o't, boshqacha tus ol. Eski o'zbek tilida asli boshqa bo'l, ajral ma'nosini bildiradi.

O'ZINI-O'ZI HIMOYA QILISH – bu ibora xalqaro huquqda BMT Ustavida «o'zini-o'zi himoya qilish» iborasi mazmunidan farq qilish uchun qo'llanilgan bo'lib, hududning yaxlitligi buzilgan davlatning o'z hududining yaxlitligini tiklash uchun urinish bo'lib hisoblanadi.

QADR – arabcha, xizmatlarini munosib baholadi ma'nosi bilan hosil qilingan, hurmat-izzat ko'rsatishga loyqlik, ahamiyatini, qiymatini yo'qotmaganlik ma'nosini anglatadi.

QADRIYATLAR – borliq va jamiyat, narsalar, voqyealar, hodisalar, inson hayoti, moddiy va ma'naviy boyliklarning ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha. Qadriyatlar bilan bog'liq masalalar hayotning eng asosiy mavzulari bo'lib hisoblanadi.

QAMALISHI – qamal – tashqi olam bilan aloqani uzish darajasidagi qurshov. Qadimiy turkiy tilda ham qurshovga ol, tutqun qil ma'nosini anglatadi.

QAMOQQA OLISH – jinoyat prosessida jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergov qilish va suda ishni ko'rish davrida ehtiyot chorasi tariqasida ozodligini majburiy cheklash (tergov hibsonasida) tarzidagi ehtiyot choralardan biri.

QARAMLIK – mamlakat va hududlarni bosib olish yoki boshqa xil yo'llar bilan ularning ustidan boshqa davlat va guruhlarining hukmronligi o'rnatilishi oqibatida davlat hokimiyatining oliylik va suverenlik belgilaridan mahrum bo'lish. Qaram davlatlar metropoliya davlatlariga siyosiy, iqtisodiy va huquqiy jihatdan qaramlik zanjirlari bilan bog'langan bo'ldilar.

QARILIK – qari – qadimgi turkiy tilda keksay, qartay ma'nosini anglatadi.

QARSHI - turkiy, fikri, maqsadi, manfaati aksincha; ro'para; biror harakatga javoban amalga oshiriladigan. Qadimgi turkiy tilda bu so'z ro'para bo'l, o'zaro janjallash, dushmanlash kabi ma'nolarni anglatuvchi so'zdan yasalgan.

QATNASHISH – qatnash – biror ish-harakatda, muhokamada ishtirok et. Eski o'zbek tilida aralastir, qo'sh ma'nosini anglatadi.

QAT'I NAZAR – arabcha, o'zbek tilida keskin uzish ma'nosini anglatib, hisobga olmagan holda ma'nosini anglatadi.

QIYMAT – arabcha, narx qo'ydi, baholadi ma'nosi bilan hosil qilingan bo'lib, narx, baho ma'nosini anglatadi.

QIYNALADIGAN – qiyna - ozor ber, azobla. Eski o'zbek tilida qadimiy turkiy tildagi jazo, qiynoq ma'nosini anglatgan so'zdan yasalgan.

QIYNOQ – qiyna – turkiy, ozor ber, azobla. Eski o'zbek tilida, qadimiy turkiy tilda jazo, qiynoq ma'nosini anglatadi.

QIMMAT – arabcha qiymat so'zi bilan hosil qilingan, narxi baland, narx ma'nosini anglatadi.

QOBILIYAT – arabcha, layoqatli ma'nosi anglatuvchi so'z bo'lib, layoqat, iste'dod kabi ma'nolarini anglatadi.

QOIDA – arabcha, amaliyotga kiritdi ma'nosi bilan hosil qilingan bo'lib, o'zbek tiliga amal qilinadigan tartib, me'yor ma'nosini bilan qabul qilingan.

QONIQARLI – qoniq –ma’lum bir hatti-harakatdan to’liq qanoat hosil qil. Eski o’zbek tilida «ma’lum bir xatti-harakatdan qanoat hosil qil» ma’nosini anglatadi.

QONUN – arabcha, hamma bajarishi majburiy qaror-qoida chiqardi ma’nosi bilan yasalgan, hamma bajarishi majburiy qaror-qoida ma’nosini anglatadi. Oliy yuridik kuchga ega bo’lgan, davlatning qonun chiqaruvchi muassasi tomonidan yoki aholi tomonidan to’g’ridan-to’g’ri, referendum o’tkazishning talablariga muvofiq qabul qilingan va o’zida qonunning amal qilish hududi, muddati va shaxslar doirasida huquqiy munosabatlar subyektlari faoliyatining umumiy namunasini mujassamlashtirgan normativ-huquqiy hujjat.

QONUNCHILIK – 1) davlat tomonidan o’z funksiyalarini amalga oshirishning asosiy usullaridan biri bo’lib, davlat hokimiyati organlari tomonidan qonunlar chiqarishda ifodalanadi; 2) ijtimoiy munosabatlarni to’la tartibga soluvchi huquqiy normalar yig’indisi yoki ijtimoiy munosabatlarning bir ko’rinishi. O’zbekiston Respublikasida Q. tushunchasi qoida bo’yicha, O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, respublika qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va O’zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlarini qamrab oladi.

QULLIK – ekspluatasiyaning tarixan dastlabki va eng qo’pol shakli, unda qul ishlab chiqarish qurollari qatorida, o’z xo’jayini – quldorning mulki hisoblanadi.

QURB – arabcha, yaqinlik, qarindoshlik ma’nosini anglatib, o’zbek tilida kuch-quvvat, imkoniyat ma’nolarini anglatadi.

QURISH – turli narsalardan yig’ib, birlashtirib bunyod qil. Qadimiy turkiy tilda to’pla ma’nosini anglatadi.

QO’RQUV – turkiy, qo’rq – qo’rquv his et ma’nosini anglatadi. Qadimgi turkiy tilda qo’riqla ma’nosini anglatadi.

G’AMXO’R – arabcha, qayg’uni tarqatuvchi ma’nolarini anglatadi.

G’OYA – arabcha, maqsadni belgiladi ma’nosi bilan hosil qilingan bo’lib, arab tilida chek-chegara, poyon, maqsad, intilish, xom-xayol, bayroq ma’nolarini anglatadi; o’zbek tilida bu so’z ma’lum maqsadni ko’zlovchi fikr, ideya ma’nosini anglatish uchun ham ishlatiladi.

HAYoT – arabcha, yashadi ma’nosi bilan hosil qilingan bo’lib, yashash, fiziologik mavjudlik ma’nosini anglatadi.

HAQLI – haq-haqiqat, chin bo’ldi ma’nosi bilan hosil qilingan, arab tilida chin, haqiqat ma’nosini anglatadi.

HARAKAT – arabcha qimirla, jil ma’nosini anglatgandan hosil qilingan bo’lib, qimirlash, jilish ma’nosini anglatadi.

HIMOYA – arabcha, tajovuzdan saqladi ma’nosi bilan hosil qilingan. Tajovuzdan, hujumdan qo’riqlash ma’nosini anglatadi.

HOKIMIYA – arabcha, hokimlik idoralari, boshqaruv idoralari ma’nosini anglatadi.

HOKIMIYATLAR TAQSIMLANISHI TAMOYILI – davlat boshqaruvini demokratik asosda tashkil etishning asosiy tamoyili, kishilarning erkin ravnaq topishi va qonun ustivorligini ta'minlashning nihoyatda muhim sharti.

HOLAT – arabcha, aniq bir hol, situatsiya ma'nosini anglatadi.

HUDUD – arabcha, asli chegaralar ma'nosini bildiradi.

HUDUDUIY BOSH-PANA - siyosiy sabablarga ko'ra, ta'qib qilishdan boshqa sabablar asosida muayyan davlatning hududida yashirinish uchun imkon berish. Xorijlik fuqaroga yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxsga doimiy yashash uchun ruxsat berish hududiy boshpana berishni anglatmaydi.

HUJAYRA – arabcha, alohida xona, yacheyka, kletka ma'nosini anglatadi.

HUKM – arabcha, bajarilishi majburiy qaror chiqardi ma'nosi bilan hosil qilingan bo'lib, jazolash yoki oqlash haqida chiqarilgan qat'iy qaror ma'nosini anglatadi.

HUQUQ – arabcha, haq so'zining ko'plik shakli bo'lib, «kishilar orasidagi muomala munosabatlarni tartibga solishda asosga olinadigan qonun-qoidalar» ma'nosini anglatadi. Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy munosabatlarda o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi norma.

HUQUQ TIZIMI – huquqning ichki tuzilishi (tuzilmasi), tarkibi bo'lib, u huquqning qanday qismlardan iborat ekanligini va qismlar o'rtasidagi munosabatlar hamda nisbatni ko'rsatadi.

HUQUQBUZARLIK – jamiyatda o'rnatilgan va qonun asosida belgilangan tartib yoki umuman ijtimoiy yashash qoidalarini buzish.

HUQUQIY DAVLAT – davlat va huquq nazariyasi va Konstitutsiyaviy huquq nuqtai nazaridan, davlatning Konstitutsiyaviy huquqiy mavqeyini belgilaydi, ya'ni davlatning quyidagi prinsiplar asosida faoliyat yurgizishi va amal qilishni shart qilib qo'yadi: xalq suverenitetini ta'minlash; inson huquq va erkinliklarini davlat tomonidan ta'minlash; Konstitutsiya talablariga rioya etilishi; boshqa qonun va qonun osti aktlariga nisbatan Konstitutsiyaning ustivorligi kabilar.

HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLAT – jamiyat taraqqiyoti va davlat shakllarining rivojlanishi jarayonida yuzaga kelgan, davlatni tashkil qilishning eng mukammal shakli va mazmuni. Huquqiy demokratik davlat uchun kurash bundan to'rt-besh asr muqaddam boshlanib, faqat XX asrning ikkinchi yarmida haqiqatga aylana boshladi.

HUQUQIY MADANIYAT – umum madaniyatning muhim qismi bo'lib, quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: 1) davlat tomonidan xalq va jamoat birlashmalari nuqtai nazarlarini ham ifodalovchi huquqiy siyosatning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi; 2) yuksak darajada rivojlangan yuridik fanlarning mavjudligi huquqiy madaniyatning muhim qismidir; 3) keng va faol huquqiy ong huquqiy madaniyatning bir qismi bo'lib, u davlat va huquqiy voqeyliklar haqidagi g'oyalar, qarashlar, his-tuyg'ular, fikrlar, kayfiyatlar tizimidir; 4) huquqiy madaniyat – bu insonlarning davlat va huquq haqidagi muhim bilimlarni egallab olish darajasidir; 5) ilgari erishilgan va to'plangan barcha huquqiy tajriba, huquqiy yodgorliklar va ularning ommaga tarqatilishi huquqiy madaniyatga kiradi; 6)

amaldagi me'yoriy huquqiy hujjatlar: Konstitutsiya, kodekslar, farmonlar, qarorlar va boshqa huquqiy manbalar huquqiy madaniyatning asosini tashkil etadi.

HUQUQIY ONG – davlat va huquq nazariyasi tomonidan o'rganiladigan huquqiy tushuncha. Jamiyat a'zolarining mavjud huquqiy munosabatlar va huquqqa bo'lgan dunyoqarashi. Bu albatta individual yoki guruhii nuqtai nazardan ko'rib chiqilishi lozim. Individual h.o. – yakka shaxsning mavjud huquqiy ongi. Guruhii h.o. – ma'lum bir guruhlarining dunyoqarashi.

HUQUQIY TIZIMLAR – har bir davlat o'zining milliy huquq tizimiga ega. Hozir jahonda 200 taga yaqin huquq tizimi mavjud. Ular har biri o'z xususiyatiga ega. Shu bilan birga ularning umumiyliigi, o'xshashlik belgilari ham ko'p. Ba'zilar vujudga kelishi va rivojlanishining umumiyliigi bilan xarakterlansa, boshqalari manbalari, huquq me'yorlarining ifodalanish shakllarining o'xshashligiga ega. Ba'zi huquq tizimlarida tuzilishining o'xshashligi kuzatilsa, ba'zilar umumii tartibga solish prinsiplariga ega. Shuningdek, atamalar, yuridik kategoriyalar va tushunchalar, huquq me'yorlarining bayon qilinishi va tizimlashtirish taxminan bir xil bo'lgan huquq tizimlari ham uchraydi.

HUKUMAT – arabcha, o'z hukmini o'tkazdi ma'nosi bilan hosil qilingan bo'lib, hokimiyatning oliii ma'muriyati ma'nosini anglatadi.

HURMAT – arabcha, ehtirom ko'rsatdi ma'nosi bilan hosil qilingan bo'lib, ehtirom ma'nosini anglatadi.

INSON HUQUQLARI KURSI BO'YICHA TEST SAVOLLARI

1. BMT qaysi yillarni «Inson huquqlari o'n yilligi» deb e'lon qildi?
 - *A) 1995-2000 yillar
 - B) 1996-2000 yillar
 - V) 1997-2000 yillar
 - G) 1998-2000 yillar
2. O'quv fanining markaziy obyekti:
 - *A) inson huquqlarini barcha turfa jihatlarini o'rganish
 - B) insonning adolatli fuqaroviy jamiyatda erkin rivojlanish imkoniyatlari
 - V) inson sha'nining ajralmas xususiyatlari
 - G) inson huquqlari buzilishi holatlarini oldini olish
3. Inson huquqlari o'quv fanining o'rganish usullari
 - *A) sistemali, tarixiylik, qiyosiy, mantiqiy
 - B) sistemali, mantiqiy
 - V) sistemali, qiyosiy
 - G) sistemali, tarixiylik, qiyosiy
4. Inson huquqlari o'quv fani qaysi ijtimoiy fanlar tizimidan o'rin olgan?
 - *A) iqtisod nazariyasi, falsafa, sosiologiya, siyosatshunoslik, huquqshunoslik
 - B) iqtisod nazariyasi, falsafa, sosiologiya, siyosatshunoslik, matematika
 - V) iqtisod nazariyasi, falsafa, sosiologiya, siyosatshunoslik, fizika
 - G) iqtisod nazariyasi, falsafa, sosiologiya, siyosatshunoslik, biologiya
5. Inson huquqlari BMTning nechta xalqaro-huquqiy aktlarida mustahkamlangan?
 - *A) 70 tadan ortiq
 - B) 80 tadan ortiq
 - V) 90 tadan ortiq
 - G) 60 tadan ortiq
6. Inson huquqlari o'quv fanini o'rganishning umumiy asosini nimalar tashkil etadi:
 - *A) inson huquqlariga oid umuminsoniy qadriyatlar va jahon andozalari; inson huquqlari bo'yicha sharq falsafasi; o'zbek milliy mafkurasi; tarixiy-huquqiy meros
 - B) inson huquqlariga oid umuminsoniy qadriyatlar va jahon andozalari; inson huquqlari bo'yicha sharq falsafasi; o'zbek milliy mafkurasi; tarixiy-huquqiy meros
 - V) inson huquqlariga oid umuminsoniy qadriyatlar va jahon andozalari; inson huquqlari bo'yicha sharq falsafasi
 - G) inson huquqlariga oid umuminsoniy qadriyatlar va jahon andozalari; tarixiy-huquqiy meros
7. Inson huquqlarining «Uchinchi avlodi» – nima deb ataladi?
 - *A) «Hamjihatlik huquqlari»
 - B) «Hamkorlik huquqlari»
 - V) «Siyosiy huquqlari»
 - G) «Madaniy huquqlari»

8. Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi qachon qabul qilingan?
- *A) 1789-yil
 - B) 1790-yil
 - V) 1791-yil
 - G) 1788-yil
9. Nechanchi yilda Oliy Majlisning huquqlari bo'yicha vakili lavozimi ta'sis etildi?
- *A) 1995-yil 23-fevral
 - B) 1995-yil 24-fevral
 - V) 1995-yil 25-fevral
 - G) 1995-yil 26-fevral
10. Amir Temur davlatni necha toifaga bo'lib boshqargan?
- *A) 12
 - B) 13
 - V) 15
 - G) 14
11. Farobiyning qaysi asarida inson huquqlari haqida gapiriladi?
- *A) Fozil odamlar odamlar
 - B) Temur tuzuklari
 - V) Jamiyatni o'rganish haqida kitob
 - G) Davlat arboblari haqidagi hikmatlar
12. Islomda insonning haq – huquqlari nechaga bo'lingan?
- *A) 10
 - B) 5
 - V) 7
 - G) 13
13. Ombudsman institutu O'zbekistonda kim tomonidan saylanadi?
- *A) parlament tomonidan
 - B) prezident tomonidan
 - V) fuqarolar tomonidan
 - G) Deputatlar tomonidan
14. O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlis huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringgi institutining vazifalari?
- *A) amaldagi qonun hujjatlarini demokratiya va inson huquqlari sohasidagi xalqaro me'yorlarga muvofiqligini o'rganish
 - B) O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlarini demokratiya va inson huquqlari sohasidagi xalqaro me'yorlar va standartlarga muvofiqligi yuzasidan takliflar ishlab chiqish
 - V) inson huquqlari sohasidagi xalqaro huquqiy me'yorlarning O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga joriy etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish
 - G) Barchasi to'g'ri
15. O'zbekiston Respublikasi qachon BMT ga a'zo bo'lgan?
- *A) 1992- yil 2 - mart
 - B) 1993-yil 3- sentyabr
 - V) 1992-yil 12-mart

- G) 1991-yil 4-may
16. “Birlashgan Millatlar” tushunchasi birinchi marta qachon va kim tomonidan qoʻllanilgan?
- *A) AQSh Prezidenti Franklin Ruzvelt tomonidan 1942-yil 1-yanvar
 - B) Fransiya Prezidenti tomonidan 1945- yil 9-maydan
 - V) Cherchil tomonidan 1945-yil 9-maydan
 - G) M.S. Garbachov tomonidan 1969-yil 29-avgust
17. BMT Nizomining muqaddimasida nimalar bayon etilgan?
- *A) Barcha xalq va davlatlarning BMT ga birlashishi sabablari, tamoyillari va maqsadlari
 - B) tashkilotning maqsad va tamoyillari
 - V) tashkilotning tarkibi va aʼzolari
 - G) tashkilotning vazifa vakolatlari ovoz berish tartibi
18. BMT ning nechta organi mavjud?
- *A) 6
 - B) 7
 - V) 10
 - G) 5
19. Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi qachon qabul qilingan?
- *A) 1948-yil 10-dekabr
 - B) 1945-yil 12-may
 - V) 1948-yil 9-may
 - G) 1947- yil 28-iyun
20. Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasining tuzilishi
- *A) Muqaddima va 30 ta modda
 - B) Muqaddima va 40 ta modda
 - V) Muqaddima va 50 ta modda
 - G) Muqaddima va 60 ta modda
21. 1966-yil BMT bosh assambleyasi tomonidan qanaqa paktlar qabul qilindi?
- *A) Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro paktlar hamda fuqarolik va siyosiy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro paktlar
 - B) Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro pakt
 - V) Fuqarolik va siyosiy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro pakt
 - G) Madaniy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro pakt
22. BMT Bosh Assambleyasi fuqarolik va siyosiy huquqlar toʻgʻrisidagi 2 Fakultativ Protokolni qachon qabul qildi?
- *A) 1989 yil 20 noyabr
 - B) 1989 yil 21 noyabr
 - V) 1989 yil 22 noyabr
 - G) 1989 yil 23 noyabr
23. BMTning asosiy maqsadi nima?
- *A) Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasida qayd qilingan barcha huquq va erkinliklarni samarali amalga oshirish va ularga rioya qilishni taʼminlashdan iborat

B) Inson huquqlari Umumjahon Deklarasiyasida qayd qilingan barcha huquq va erkinliklarni samarali amalga oshirish

V) Inson huquqlari Umumjahon Deklarasiyasida qayd qilingan barcha huquq va erkinliklarga rioya qilishni ta'minlashdan iborat

G) Jahonda tinchlik o'rnatish

24. Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti qachondan boshlab shunday deb atalgan?

*A) 1994

B) 1995

V) 1996

G) 1997

25. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qachon qabul qilingan?

*A) 1992 yil 8 dekabr

B) 1992 yil 9 dekabr

V) 1993 yil 8 dekabr

G) 1992 yil 10 dekabr

26. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining nechanchi bobi shaxsiy huquq va erkinliklarga bag'ishlangan?

*A) 7-bobi

B) 8-bobi

V) 9-bobi

G) 10-bobi

27. Siyosiy huquqlar nimalarni belgilab beradi?

*A) har bir shaxsning jamiyatning siyosiy hayoti va munosabatlarida qanday ishtirok qilishini belgilab beradi

B) har bir shaxsning saylovlarda qanday ishtirok qilishini belgilab beradi

V) har bir shaxsning siyosiy partiyalarga a'zo bo'lishini belgilab beradi

G) har bir shaxsning namoyish va mitinglarda qanday ishtirok qilishini belgilab beradi

28. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining nechanchi moddalarida insonning siyosiy huquqlari belgilab berilgan?

*A) 32-35-moddalari

B) 33-36-moddalari

V) 34-37-moddalari

G) 35-38-moddalari

29. Iqtisodiy huquqning mohiyati?

*A) muayyan ijtimoiy boylikka nisbatan huquqqa ega bo'lishdir

B) mulkdor bo'lish

V) bankda omonatini saqlash

G) bilim olish

30. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining nechanchi moddalari insonning madaniy-ma'naviy huquqlariga daxldor:

*A) 41-42-moddalari

- B) 43-45-moddalari
- V) 44-46-moddalari
- G) 42-45-moddalari

31. Gugo Grosiyning qaysi asarida inson va fuqaro majburiyatlari mavzusi ochib beriladi?

- *A) «Urush va tinchlik huquq to'g'risida»
- B) «Urush va tinchlik»
- V) «Siyosatnoma»
- G) «Zafarnoma»

32. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining nechanchi bobi fuqarolarning burchlariga bag'ishlangan?

- *A) 10-bobi
- B) 11-bobi
- V) 12-bobi
- G) 13-bobi

33. Huquqiy kafolatlarni qanday turlarga ajratish mumkin?

- *A) siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy va boshqalar
- B) siyosiy, ma'naviy, g'oyaviy va boshqalar
- V) siyosiy, mafkuraviy, ijtimoiy va boshqalar
- G) siyosiy, milliy, g'oyaviy va boshqalar

34. Inson huquqlari bo'yicha vakil kimga ma'ruza tayyorlaydi?

- *A) parlament va Prezidentga
- B) parlament va xalqqa
- V) parlament va Oliy sudga
- G) parlament va Konstitusiyaviy sudga

35. «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi Qonun qachon qabul qilingan?

- *A) 1995 yil 30 avgust
- B) 1995 yil 31 avgust
- V) 1996 yil 30 avgust
- G) 1997 yil 30 avgust

36. Inson huquqlari Umumjahon Deklarasiyasi necha moddadan iborat?

- *A) 30 modda
- B) 40 modda
- V) 50 modda
- G) 60 modda

37. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro pakt qachon qabul qilingan?

- *A) 1966 yil 19 dekabrda
- B) 1966 yil 20 dekabrda
- V) 1966 yil 21 dekabrda
- G) 1966 yil 22 dekabrda

38. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro pakt qachon qabul qilingan?

- *A) 1966 yil 19 dekabrda

- B) 1967 yil 19 dekabrda
- V) 1968 yil 19 dekabrda
- G) 1969 yil 19 dekabrda

39. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining ikkinchi bo'limi qanday nomlanadi?

- *A) Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari erkinliklari va burchlari
- B) Inson va fuqarolarning shaxsiy huquqlari erkinliklari
- V) Inson va fuqarolarning ijtimoiy huquqlari erkinliklari
- G) Inson va fuqarolarning madaniy huquqlari erkinliklari va burchlari

40. Mustaqillik Deklarasiyasi qachon qabul qilingan?

- *A) O'zbekiston SSR Oliy Sovetining ikkinchi sessiyasida 1990 yil 20 iyunida
- B) O'zbekiston SSR Oliy Sovetining ikkinchi sessiyasida 1991 yil 20 iyunida
- V) O'zbekiston SSR Oliy Sovetining ikkinchi sessiyasida 1992 yil 20 iyunida
- G) O'zbekiston SSR Oliy Sovetining ikkinchi sessiyasida 1993 yil 20 iyunida

41. O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida oliy kengash bayonoti qachon qabul qilingan?

- *A) O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida 1991 yil 31 avgustda
- B) O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida 1990 yil 31 avgustda
- V) O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida 1992 yil 31 avgustda
- G) O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida 1993 yil 30 avgustda

42. O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni necha moddadan iborat?

- *A) 17 modda
- B) 18 modda
- V) 19 modda
- G) 20 modda

43. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi amaldagi qonun hujjatlari monitoringi institutini tashkil etish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Kengashining qarori qachon qabul qilingan?

- *A) 1996 yil 3 dekabrda
- B) 1996 yil 4 dekabrda
- V) 1996 yil 5 dekabrda
- G) 1996 yil 6 dekabrda

44. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazini tuzish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni qachon qabul qilingan?

- *A) 1996 yil 31 oktyabr

- B) 1997 yil 31 oktyabr
- V) 1998 yil 31 oktyabr
- G) 1999 yil 31 oktyabr

45. Inson huquqlari to'g'risidagi qonunchilik o'z taraqqiyotidav necha bosqichni bosib o'tgan?

- *A) 3 bosqichni
- B) 4 bosqichni
- V) 5 bosqichni
- G) 6 bosqichni

46. «Inson huquqlari» o'quv fanini o'rganishdan ko'zlangan asosiy maqsad?

*A) Inson huquqlari madaniyatining shakllanishida umuminsoniy va milliy qadriyatlarni mustahkamlashdan iborat

B) Inson huquqlari madaniyatining shakllanishida qadriyatlarni mustahkamlashdan iborat

V) Inson huquqlari madaniyatining shakllanishida urf-odatlarini mustahkamlashdan iborat

G) Inson huquqlari madaniyatining shakllanishida ma'naviyatni mustahkamlashdan iborat

47. «Inson huquqlari» o'quv fanida Inson huquqlarining qaror topish qonuniyatlari va ularning rivojlanishi tarixiy taraqqiyotning murakkab jarayonlari bilan bog'liq holda o'rganiladi – bu qaysi usul?

- *A) tarixiylik
- B) sistemalilik
- V) ilmiylik
- G) ko'rgazmalilik

48. «Inson huquqlari» o'quv fani necha qismdan iborat?

- *A) 3
- B) 4
- V) 5
- G) 6

49. Inson huquqlarini to'la amalga oshirish mezoni

- *A) mahalla
- B) oila
- V) maktab
- G) jamoat birlashmalari

50. Inson huquqlarining «birinchi avlodi» qaysilari

- *A) fuqarolik va siyosiy huquqlar
- B) fuqarolik va shaxsiy huquqlar
- V) fuqarolik va madaniy huquqlar
- G) fuqarolik va iqtisodiy huquqlar

INSON HUQUQLARI KURSI BO'YICHA MUSTAQIL ISH TOPSHIRIQLARI

1. Inson huquqlari fani bo'yicha krossvord tuzish.
2. Inson huquqlari fanidan yakuniy nazorat variantlarini tuzish (30 ta varinat).
3. Inson huquqlari fani bo'yicha esse yozish.
4. Inson huquqlari fani bo'yicha rasmlar albomi tayyorlash.
5. Inson huquqlari fani bo'yicha 50 ta termin izohi bilan.
6. Inson huquqlari fani bo'yicha kurs ishi mavzulari tuzish. (30 ta mavzu rejasi bilan)
7. Inson huquqlari fani bo'yicha tadbirlar rejasi tuzing (sentyabr-iyun).
8. Inson huquqlari fani bo'yicha Prezidentimiz fikrlari 50 ta.
9. Inson huquqlari fani bo'yicha maqollar to'plash. 50 ta.
10. Inson huquqlari fani bo'yicha tafakkur gulshani (hikmatli gaplar). 50 ta.
11. Inson huquqlarifani bo'yicha test tuzish 36 ta.
12. Inson huquqlari fani bo'yicha adabiyotlar ro'yxatini tuzish. (O'qituvchilar uchun 100 ta)
13. Inson huquqlari fani bo'yicha bayram ssenariysi 5 ta
14. Inson huquqlari fani bo'yicha hadislar yozish 50 ta
15. Inson huquqlari fani bo'yicha sxemalar, jadvallar, slaydlar tayyorlash.
16. Inson huquqlari fani bo'yicha 100 ta termin va ularning ruscha, inglizcha tarjimasi.

HUJJATLAR

INSON HUQUQLARI UMUMJAHON DEKLARATSIYASI

1948 yil 10 dekabr

Insoniyat oilasining hamma a'zolariga xos qadr-qimmat va ularning teng, ajralmas huquqlarini tan olish erkinlik, adolat va yalpi tinchlik asosi ekanligini e'tiborga olib;

inson huquqlarini mensimaslik va uni paymol etish, insoniyat vijdoni qiynaladigan vahshiyona ishlar sodir etilishiga olib kelganini, kishilar so'z erkinligi va e'tiqodiga ega bo'ladigan hamda qo'rquv va muhtojlikdan xoli sharoitda yashaydigan dunyoni yaratish insonlarning ezgu intilishidir deb e'lon qilinganligini e'tiborga olib;

inson oxirgi chora sifatida zulm va istibdodga qarshi isyon ko'tarishga majbur bo'lishining oldini olish maqsadida inson huquqlari qonun kuchi bilan himoya etilishi zarur ekanligini e'tiborga olib;

xalqlar o'rtasida do'stona munosabatlarni rivojlantirishga ko'maklashish zarurligini e'tiborga olib;

Birlashgan Millatlar xalqlari insonning asosiy huquqlariga, shaxsning qadr-qimmatiga, erkak va ayolning teng huquqliligiga o'z e'tiqodlarini Nizomda tasdiqlaganliklari hamda yanada kengroq erkinlikda ijtimoiy taraqqiyot va turmush sharoitlarini yaxshilashga ko'maklashishga ahd qilganliklarini e'tiborga olib;

a'zo bo'lgan davlatlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlikda inson huquqlari va asosiy erkinliklarini yalpi hurmat qilish va unga rioya qilishga ko'maklashish majburiyatini olganligini e'tiborga olib;

mazkur huquqlar va erkinliklarning xarakterini yalpi tushunish ushbu majburiyatlarning to'liq ado etilishi uchun katta ahamiyatga ega bo'lishini e'tiborga olib

BOSH ASSAMBLEYA

Mazkur inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi barcha xalqlar va barcha davlatlar bajarishga intilishi lozim bo'lgan vazifa sifatida e'lon qilar ekan, toki har bir inson va jamiyatning har bir tashkiloti doimo Ushbu Deklaratsiyani nazarda tutgan holda maorif va ta'lim yo'li bilan bu huquq va erkinliklarning hurmat qilinishiga ko'maklashishi, milliy va xalqaro taraqqiyparvar tadbirlar orqali ham uning bajarilishi ta'minlanishiga, Tashkilotga a'zgo bo'lgan davlatlar xalqlari o'rtasida va ushbu davlatlarning yurisdiksiyasidagi hududlarda yashayotgan xalqaro o'rtasida yoppasiga va samarali tan olinishga intilishlari zarur.

1 - modda

Hamma odamlar o'z qadr-qimmatini hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin bir- birlariga nisbatan birodarlarcha ruhda munosabatda bo'lishlari kerak.

2 - modda

Har bir inson irqi, terisining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mol-mulki, tabaqasi yoki boshqa holatidan qat'i nazar ushbu Deklaratsiyada e'lon qilingan barcha huquq va barcha erkinlikka ega bo'lishi zarur.

Bundan tashqari inson, mansub bo'lgan mamlakat yoki hududning siyosiy, huquqiy yoki xalqaro maqomidan, ushbu hudud mustaqilmi, vasiymi, o'z-o'zini idora qiladimi yoki boshqacha tarzda cheklanganligidan qat'i nazar biror bir ayrimachilik bo'lmasligi kerak.

3 – modda

Har bir inson yashash, erkin bo'lish va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga egadir.

4 – m o d d a

Hech kim qullikda yoki erksiz holatda saqlanishi mumkin emas; qullik va qul savdosining barcha ko'rinishlari taqiqlanadi.

5 – m o d d a

Hech kim qiynoqqa yoki shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmani xo'rovchi muomala va jazoga duchor etilmasligi kerak.

6 – m o d d a

Har bir inson qayerda bo'lishidan qat'i nazar, o'zining huquqli subyekt sifatida tan olinishiga haqli.

7 – m o d d a

Barcha odamlar qonun oldida tengdir va Hech bir tafovutsiz qonun bilan teng himoya qilinish huquqiga egadir. Barcha odamlar Ushbu Deklaratsiyaga zid bo'lgan har qanday kamsitishdan va shunday kamsitishga undaydigan har qanday g'alamislikdan teng himoya qilinish huquqiga egadir.

8 – m o d d a

Har bir inson unga Konstitutsiya yoki qonun orqali berilgan asosiy huquqlari buzilgan hollarda nufuzli milliy sudlar tomonidan bu huquqlarning samarali tiklanishi huquqiga ega.

9 – m o d d a

Hech kim asosiz qamalishi, ushlanishi yoki quvg'in qilinishi mumkin emas.

10 – m o d d a

Har bir inson o'z huquq va burchlarini belgilash va unga qo'yilgan jinoiy aybning qanchalik darajada asosli ekanligini aniqlashi uchun to'liq tenglik asosida uning ishi oshkora va adolat talablariga rioya qilingan holda mustaqil va xolis sud tomonidan ko'rib chiqilishi huquqiga ega.

11 – m o d d a

1. Jinoyat sodir etganlikda ayblangan har bir inson himoya uchun barcha imkoniyatlar ta'minlangan holda, ochiq sud majlisi yo'li bilan uning aybi qonuniy tartibda aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanishga haqlidir.

2. Hech kim, sodir etilgan vaqtda milliy qonunlar yoki xalqaro huquqlarga ko'ra jinoyat deb topilmagan xatti-harakati yoki faoliyatsizligi uchun jazoga hukm qilinishi mumkin emas. Shuningdek, jinoyat sodir etilgan vaqtda qo'llanishi mumkin bo'lgan jazoga nisbatan og'irroq jazo berilishi mumkin emas.

12 – m o d d a

Hech kimning shaxsiy va oilaviy hayotiga o'zboshimchalik bilan aralashish, uy-joy daxlsizligiga, uning yozishmalaridagi sirlarga yoki uning nomus va sha'niga o'zboshimchalik bilan tajovuz qilinishi mumkin emas. Har bir inson xudi shunday aralashuv yoki tajovuzdan qonun orqali himoya qilinish huquqiga ega.

13 – m o d d a

1. Har bir inson har bir davlat doirasida erkin yurish va yashash joyi tanlash huquqiga ega.

2. Har bir inson har qanday mamlakatdan, xususan o'z mamlakatidan chiqib ketish va o'z mamlakatiga qaytib kelish huquqiga ega.

14 – m o d d a

1. Har bir inson ta'qib tufayli boshqa mamlakatlardan boshpana izlash va o'sha boshpanadan foydalanish huquqiga ega.

2. Bu huquqdan nosiyosiy jinoyat sodir etish uchun yoki Birlashgan Millatlar Tashkilotining maqsad va prinsiplariga xid xatti-harakat tufayli ta'qib paytida foydalanish mumkin emas.

15 – m o d d a

1. Har bir insonning fuqaro bo'lish huquqi bor.

2. Hech kim o'zboshimchalik bilan o'z fuqaroligidan yoki o'z fuqaroligini o'zgartirish huquqidan maxrum qilinishi mumkin emas.

16 - modda

1. Balog'at yoshiga yetgan erkaklar va ayollar irqi, millati yoki diniy belgilari bo'yicha hech qanday cheklashlarisiz nikohdan o'tishga va oila qurishga haqli. Ular nikohdan o'tishga, nikohda turgan vaqtlarida va bekor qilish vaqtida bir xil huquqdan foydalanadilar.

2. Nikohdan o'tayotgan har ikki tomonining erkin va to'liq roziligi asosidagina nikoh tuzilishi mumkin.

3. Oila jamiyatining tabiiy va asosiy xujayrasi sanaladi va jamiyat hamda davlat tomonidan himoya qilinishiga haqli.

17 - modda

1. Har bir inson yakka holda, shuningdek boshqalar bilan birgalikda mulkka egvlik qilish huquqiga ega.

2. Hech kim zo'ravonlik bilan o'z mulkidan mahrum etilishi mumkin emas.

18 - modda.

Har bir inson fikr, vijdon va din erkinligi huquqiga ega; bu huquq o'z dini yoki e'tiqodini o'zgartirish erkinligini va ta'limotda, toat – ibodat qilishda va diniy rasmiy – rusum hamda marosimlarni ommaviy yoki hususiy tartibda ado etish, o'z dini yoki e'tiqodiga yakka o'zi, shuningdek boshqalar bilan birga amal qilish erkinligini o'z ichiga oladi.

19 - modda

Har bir inson e'tiqod erkinligi va uni erkin ifoda qilish huquqiga ega; bu huquq hech bir to'siqsiz o'z e'tiqodiga amal qilish erkinligini hamda axbarot va g'oyalarni har qanday vosita bilan, davlat chegaralaridan qat'i nazar, izlash, olish va tarqatish erkinligini o'z ichiga oladi.

20 - modda

1. Har bir inson tinch yig'inlar o'tkazish va uyushmalar tuzish huquqiga ega.

2. Hech kim biror bir uyushmaga kirishga majbur qilinishi mumkin emas.

21-modda

1. Har bir inson bevosita yoki erkin saylangan va killar vositasi orqali o'z mamlakatini boshqarishda qatnashish huquqiga ega.

2. Har bir inson o'z mamlakatida davlat xizmatiga kirishda teng huquqga ega.

3. Halq idorasi hukumat hokimiyatining asosi bo'lishi lozim; bu idora davriy va soxtalashtirilmagan, yalpi va teng saylov huquqida, yashirin ovoz berish yo'li bilan yoki ovoz berish erkinligini ta'minlaydigan boshqa teng qiymatli shakllar vositasida o'tkaziladigan saylovlarda o'z aksini topishi lozim.

22 - modda.

Har bir inson jamiyat a'zosi sifatida milliy kuchharakatlar hamda halqaro hamkorlik vositasida va har bir davlatning tuzilishi, shuningdek, resurslariga muvofiq ijtimoiy ta'minotga va o'zining qadr- qimmatini saqlash, shaxsining erkin rivojlanishi uchun zarur bo'lgan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalardagi huquqini amalga oshirishga haqli.

23 – m o d d a

1. Har bir inson mehnat qilish, ishni erkin tanlash, adolatli va qulay ish sharoitiga ega bo'lish va ishsizlikdan himoya qilinish huquqiga ega.

2. Har bir inson Hech bir kamsitishsiz teng mehnat uchun teng haq olish huquqiga ega.

3. Har bir ishlovchi kishi o'zi va oilasi uchun insonga munosib yashashni ta'minlaydigan adolatli va qoniqarli daromad olishga, zarur bo'lganda ijtimoiy ta'minotning boshqa vositalari bilan to'ldiriluvchi daromad olish huquqiga ega.

4. Har bir inson kasaba uyushmalari tuzish va o'z manfaatlarini himoya qilish uchun kasaba uyushmalariga kirish huquqiga ega.

24 – m o d d a

Har bir inson dam olish va bo'sh vaqtga ega bo'lish, shu jumladan ish kunini oqilona cheklash huquqi va haq to'lanadigan mehnat ta'tili olish huquqiga ega.

25 – m o d d a

1. Har bir inson o'zining hamda oilasining salomatligi va farovonligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan turmush darajasiga ega bo'lish, jumladan kiyim-kechak, oziq-ovqat, tibbiy xizmat va zarur ijtimoiy xizmatga ega bo'lishiga hamda ishsizlik, kasallik, nogironlik, bevalik, qarilik yoki unga bog'liq bo'lmagan sharoitlarga ko'ra tirikchilik uchun mablag' bo'lmay qolgan boshqa hollarda ta'minlanish huquqiga ega.

2. Onalik va bolalik alohida g'amxo'rlik va yordam huquqini beradi. Barcha bolalar, nikohda yoki nikohsiz tug'ilishidan qat'i nazar bir xil ijtimoiy himoyadan foydalanishi kerak.

26- m o d d a

1. Har bir inson ta'lim olish huquqiga ega. Ta'lim olishda Hech bo'lmaganda boshlang'ich va umumiy ta'lim tekin bo'lishi lozim. Boshlang'ich ta'lim majburiy bo'lishi kerak. Texnik va hunar ta'limi hammaning qurbi yetadigan darajada bo'lishi, oliy ta'lim esa har kimning qobiliyatiga asosan hamma uchun yetarli imkoniyat doirasida bo'lmog'i kerak.

2. Ta'lim inson shaxsini to'la barkamol qilishga va inson huquqlari hamda asosiy erkinliklariga nisbatan hurmatni kuchaytirishga qaratilmog'i lozim. Ta'lim barcha xalqlar, irqiy va diniy guruhlar o'rtasida bir-birini tushunish, xayrixohlik va

do'stlikka xizmat qilishi hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining tinchlikni saqlash borasidagi faoliyatiga yordam berishi kerak.

3. Kichik yoshdagi bolalari uchu nota-onalar ta'lim turini tanlashda imtiyozli huquqqa egadirlar.

27 – m o d d a

1. Har bir inson jamiyatning madaniy hayotida erkin ishtirok etishga, san'atdan bahramand bo'lishga, ilmiy taraqqiyotda ishtirok etish va uning samaralaridan foydalanish huquqiga ega.

28 – m o d d a

Har bir inson ushbu Deklaratsiyada bayon etilgan huquq va erkinliklar to'liq amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ijtimoiy va xalqaro tartib bo'lishi huquqiga egadir.

29 – m o d d a

1. Har bir inson hamiyat oldida burchlidir, faqat ush holatdagina uning shaxsi erkin va to'liq kamol topishi mumkin.

2. Har bir inson o'z huquqi va erkinliklaridan foydalanishda o'zgalarning huquq va erkinliklarini demokratik jamiyatda yetarli darajada bo'lishini hamda hurmat qilinishini ta'minlash, axloq, jamoat tartibi umum farovonligining odilona talablarini qondirish maqsadidagina qonunda belgilangan cheklanishlarga rioya etishi kerak.

3. Ushbu huquq va erkinliklarni amalga oshirish Birlashgan Millatlar Tashkilotining maqsad va prinsiplariga hech zid bo'lmasligi kerak.

30 – m o d d a

Ushbu Deklaratsiyadagi hech bir narsa, biror bir davlat, kishilar guruhi yoki alohida shaxslarga mazkur Deklaratsiyada bayon etilgan huquq va erkinliklarni yo'q qilishga yo'naltirilgan faoliyat bilan shug'ullanish yoki harakat qilish mumkin deb talqin etilmasligi kerak.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASI IKKINCHI BO'LIM

INSON VA FUQAROLARNING ASOSIY HUQUQLARI, ERKINLIK LARI VA BURCHLARI

V bob

UMUMIY QOIDALAR

18 – m o d d a . O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart.

19 – m o d d a . O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchalari bilan o'zaro bog'liqdirlar. Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ularni sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga Hech kim haqli emas.

20 – m o d d a . Fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart.

VI bob

FUQAROLIK

21 – modda . O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o'rnatiladi.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega bo'lganlikdan qat'iy nazar, hamma uchun tengdir.

Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi.

Fuqarolikka ega bo'lish va uni yo'qotish asoslari hamda tartibi qonun bilan belgilanadi.

22 – modda. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida ham, uning tashqarisida ham o'z fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko'rsatishni kafolatlaydi.

23 – m o d d a. O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta'minlanadai. Ular O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalari bilan belgilangan burchlarni ado etadilar.

VII bob

ShAXSIY HUQUQ VA ERKINLIKLAR

24 – m o d d a . Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir.

25 – m o d d a . Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega.

Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas.

26 – m o d d a . Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uni aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi.

Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas.

Hech kimda uning roziligisiz tibbiy yoki ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emas.

27 – m o d d a. Har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalinishi va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega.

Hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari bironing turar joyiga kirishi, tintuv o'tkazishi yoki uni ko'zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas.

28 – m o d d a. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Respublika hududida bir joydan ikkinchi joyga ko'chish, O'zbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish huquqiga ega. Qonunda belgilangan cheklashlar bundan mustasnodir.

29 – m o d d a. Har kim fikrlash, soʻz va eʼtiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim oʻzi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi Konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir.

Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat sir va boshqa sirlarga taalluqli boʻlgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin.

30 – m o d d a . Oʻzbekiston Respublikasining barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslari fuqarolarga ularning huquq va manfaatlariga daxldor boʻlgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi lozim.

31 – m o d d a. Hamma uchun vijdon kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga eʼtiqod qilish yoki Hech qaysi dinga eʼtiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yoʻl qoʻyilmaydi.

VIII bob

SIYO SIY HUQUQLAR

32 – m o d d a. Oʻzbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda oʻz vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish oʻzini-oʻzi boshqarish, referendumlar oʻtkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yoʻli bilan amalga oshiriladi.

33 – m o d d a . Fuqarolar oʻz ijtimoiy faolliklarini Oʻzbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yigʻilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga egadirlar. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtai nazaridagina bunday tadbirlar oʻtkazilishini toʻxtatish yoki taqiqlash huquqiga ega.

34 – m o d d a. Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar.

Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini Hech kim kamsitishi mumkin emas.

35 – m o d d a. Har bir shaxs bevosita oʻzi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega.

Arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda koʻrib chiqilishi shart.

IX bob

IQTISODIY VA IJTIMOIIY HUQUQLAR

36 – m o d d a. Har bir shaxs mulkdor boʻlishga haqli. Bankka qoʻyilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi.

37 – m o d d a . Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda koʻrsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanih huquqiga egadir.

Sud hukmi bilan tayinlangan jazoni oʻtash tartibidan yoki qonunda koʻrsatilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi.

38 – m o d d a. Yollanib ishlayotgan barcha fuqarolar dam olish huquqiga egadirlar. Ish vaqti va haq to'lanadigan mehnat ta'tilining muddati qonun bilan belgilanadi.

39 – m o d d a. Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega.

Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordam boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo'yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emas.

40 – m o d d a . Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega.

41 – m o d d a. Har Kim bilim olish huquqiga ega.

Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi.

Maktab ishlari davlat nazoratidadir.

42 – m o d d a. Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi.

Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi.

X bob

INSON HUQUQLARI VA ERKINLIKLARINING KAFOLATLARI

43 – m o d d a. Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi.

44 – m o d d a. Har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

45 – m o d d a. Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir.

46 – m o d d a. Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar.

IX bob

FUQAROLARNING BURChLARI

47 – m o d d a . Barcha fuqarolar Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan burchlarini bajaradilar.

48 – m o d d a . Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar.

49 – m o d d a. Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar.

Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir.

50 – m o d d a. Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar.

51 – m o d d a. Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'imlarni to'lashga majburdirlar.

52 – m o d d a . O'zbekiston Respublikasini himoya qilish – O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmat o'tashga majburdirlar.

CONSTITUTION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
PART TWO
BASIC HUMAN AND CIVIL RIGHTS,
FREEDOMS AND DUTIES

Chapter V
GENERAL PROVISIONS

Article 18. All citizens of the Republic of Uzbekistan shall have equal rights and freedoms, and shall be equal before law without discrimination of sex, race, nationality, language, religion, social origin, convictions, individual and social status.

Privileges may be granted solely by law and must conform to the principles of social justice.

Article 19. A citizen of the Republic of Uzbekistan and the state shall be bound by mutual rights and mutual responsibility. Citizens' rights and freedoms, established by the Constitution and laws, shall be inalienable and no one shall have the right to deprive or limit them without a court.

Article 20. The exercising of rights and freedoms by a citizen must not encroach on the lawful interests, rights and freedoms of other persons, the state and society.

Chapter VI
CITIZENSHIP

Article 21. In the Republic of Uzbekistan, a uniform citizenship shall be established on the entire territory of the Republic.

Citizenship in the Republic of Uzbekistan shall be equal for all regardless of the grounds of its acquisition.

A citizen of the Republic of Karakalpakstan shall at the same time be a citizen of the Republic of Uzbekistan.

The grounds and procedure for acquiring and forfeiting citizenship shall be defined by law.

Article 22. The Republic of Uzbekistan shall guarantee legal defence and protection to all its citizens both on the territory of the Republic of Uzbekistan and abroad.

Article 23. Foreign citizens and stateless persons, during their stay on the territory of the Republic of Uzbekistan, shall be guaranteed the rights and freedoms in accordance with the norms of the international law. They shall perform the duties established by the Constitution, laws and international agreements of the Republic of Uzbekistan.

Chapter VII
PERSONAL RIGHTS AND FREEDOMS

Article 24. The right to life is an inalienable right of every human being. Infringement against it shall be regarded as the gravest crime.

Article 25. Everyone shall have the right to freedom and personal inviolability. No one may be arrested or taken into custody except for lawful ground.

Article 26. Everyone, accused to perform a crime, shall be considered not guilty unless his guilt is not established by legal order and public legal proceeding, in which case all possibilities to protect him are secured.

No one may be subject to torture, violence, other cruel or humiliating treatment on human dignity.

No one may be subject to medical or scientific experiments without his consent.

Article 27. Everyone shall be entitled to protection against encroachments on his honour, dignity, interference in his private life, inviolability of his home.

No one shall have the right to enter a home, carry out a search or an examination, violate the privacy of correspondence and telephone conversations except for the case and order prescribed by law.

Article 28. A citizen of the Republic of Uzbekistan shall have the right to free movement in the territory of the Republic, as well as to free entry to and exit from it except for the restrictions specified by law.

Article 29. Everyone shall be guaranteed freedom of thought, speech and convictions. Everyone shall have the right to seek, obtain and disseminate any information except that which is directed against the existing constitutional system and some other instances specified by law.

Freedom of opinions and their expression may be restricted by law if any state or other secret is involved.

Article 30. All state bodies, public associations and officials in the Republic of Uzbekistan shall allow citizens access to documents, resolutions and other materials relating to their rights and interests.

Article 31. Freedom of conscience shall be guaranteed to all. Everyone shall have the right to profess or not to profess any religion. A compulsory imposition of religion shall be impermissible.

Chapter VIII

POLITICAL RIGHTS

Article 32. Citizens of the Republic of Uzbekistan shall have the right to participate in the management of public and state affairs, both directly and through their representatives. Such participation shall be exercised by way of self-government, holding referendums and democratic formation of state bodies.

Article 33. Citizens shall have the right to engage in public life by holding rallies, meetings and demonstrations in accordance with legislation of the Republic of Uzbekistan. The bodies of authority shall have the right to suspend or ban such undertakings exclusively on the grounds of security.

Article 34. Citizens of the Republic of Uzbekistan shall have the right to join trade unions, political parties and other public associations, and to participate in mass movements.

No one may infringe on the rights, freedoms and dignity of individuals constituting the minority opposition in political parties, public associations and mass movements, as well as in representative bodies of authority.

Article 35. Everyone shall have the right, both individually and collectively, to submit applications and proposals, and to lodge complaints with competent state bodies, institutions or public representatives.

Applications, proposals and complaints shall be considered in the procedure and within the time-limit specified by law.

Chapter IX

ECONOMIC AND SOCIAL RIGHTS

Article 36. Everyone shall have the right to own property. The privacy of bank deposits and the right to inheritance shall be guaranteed by law.

Article 37. Everyone shall have the right to work, free choice of work, fair conditions of labour and protection against unemployment in the procedure specified by law.

Any forced labour shall be prohibited except for punishment under the sentence of a court or some other instances stipulated by law.

Article 38. Citizens, working on hire, shall be entitled to a paid rest. The duration of working hours and paid labour leave shall be specified by law.

Article 39. Everyone shall have the right to social security in old age, in the event of disability and loss of the bread-winner, as well as in some other cases specified by law.

Pensions, allowances and other kinds of welfare may not be lower than the officially fixed minimum subsistence wage.

Article 40. Everyone shall have the right to quality medical care.

Article 41. Everyone shall have the right to education. The state shall guarantee free secondary education. Schooling shall be under the state supervision.

Article 42. Everyone shall be guaranteed the freedom of research and engineering work, the right to enjoy cultural achievements.

The state shall promote cultural, scientific and technical developments of the society.

Chapter X

GUARANTEES OF HUMAN RIGHTS AND FREEDOMS

Article 43. The state shall provide the rights and freedoms of citizens set by the Constitution and laws.

Article 44. Everyone shall be entitled to legally defend his rights and freedoms, and shall have the right to appeal any unlawful action of state bodies, officials and public associations.

Article 45. The rights of minors, the disabled and the single elderly shall be protected by the state.

Article 46. Women and men shall have equal rights.

Chapter XI DUTIES OF CITIZENS

Article 47. All citizens shall perform the duties established by the Constitution.

Article 48. Citizens shall be obliged to observe the Constitution and laws, and to respect the rights, freedoms, honour and dignity of others.

Article 49. It is the duty of citizens to protect the historical, spiritual and cultural heritage of the people of Uzbekistan.

Cultural monuments shall be protected by the state.

Article 50. Citizens shall be obliged to take care of the environment.

Article 51. Citizens shall be obliged to pay taxes and local fees prescribed by law.

Article 52. Defence of the Republic of Uzbekistan is the duty of every citizen of the Republic of Uzbekistan. Citizens shall be obliged to perform military or alternative service in the procedure prescribed by law.

ALBANIYA RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASI
21 OKTYABR 1998 YIL
IKKINCHI BO'LIM
INSONNING ASOSIY HUQUQ VA ERKINLIKLARI

I bob

UMUMIY PRINSIPLAR

15 – m o d d a

1. Insonning asosiy huquq va erkinliklari ajralmas, majburiy va mustahkam, ular umumiy huquqiy tartibotga tayanadilar.

2. . . .

16 – m o d d a

1. Alban fuqarolari uchun Konstitutsiyada ko'rsatilgan asosiy huquq va erkinliklar Albaniya Respublikasi territoriyasidagi chet elliklar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga bir xilda amal qiladi.

2. . . .

17 – m o d d a

1. Ushbu Konstitutsiyada nazarda tutilgan huquq va erkinliklarni chegaralash faqat jamoatchilik fikri asosida qonuniy tartib bilan yoki boshqalarning huquqini himoya qilish maqsadida o'rnatiladi.

2. . . .

18 – m o d d a

1. Qonun oldida barcha tengdir.

2. . . .

3. . . .

19 – m o d d a

1. Har bir tug'ilgan bolaning ota-onasidan biri alban fuqarosi bo'lsa, bola alban fuqaroligini oladi.

2. . . .

20 – m o d d a

1. Ozchilik millat vakillari qonun oldida tenglik asosida barcha huquq va erkinliklardan foydalanadilar.

2. . . .

I bo'lim

SHAXSNING HUQUQ VA ERKINLIKLARI

21 – m o d d a

Insonning hayoti qonun bilan qo'riqlanadi.

22 – m o d d a

1. So'z erkinligi kafolatlanadi.

2. . . .

3. . . .

4. . . .

23 – m o d d a

1. Axborotni tarqatish huquqi kafolatlangan.

2. . . .

3. . . .

24 – m o d d a

1. Vijdon erkinligi va diniy e'tiqod kafolatlanadi.

2. . . .

3. . . .

25 – m o d d a

Hech kim qiynoqqa solinishi, jazolanishi yoki shafqatsiz, isnon qadr-qimmatini kamsituvchi tarzda munosabatga yo'liqtirilishi mumkin emas.

26 – m o d d a

Hech kimni mehnat qilishga majburlash mumkin emas, sud hukmi, harbiy xizmat burchi, harbiy yoki favqulodda holatlar asosida chiqarilgan qarorlar, shuningdek insonlar hayoti yoki sog'lig'iga xavf tug'diruvchi tabiiy ofatlar bundan mustasno.

27 – m o d d a

1. Hech kimni ozodlikdan mahrum qilish mumkin emas, istisnolar qonun bilan belgilangan holatlar va tadbirlarda bo'lishi mumkin.

2. . . .

3. . . .

28 – m o d d a

1. Ozodlikdan mahrum etilgan har qanday shaxs, unga tushunarli tilda bu choraning sababi va unga nisbatan qo'yilayotgan ayb to'g'risida zudlik bilan ma'lumotga ega bo'lishi kerak.

29 – m o d d a

1. . . .

2. . . .

3. Proteksionist jinoyat qonuni orqaga qaytish kuchiga ega.

30 – m o d d a

Har bir shaxs uning aybi sud hukmi bilan uzil-kesil isbotlanmaguncha aybdor hisoblanmaydi.

31 – m o d d a

Jinoyat jarayonida har kim quyidagi huquqlarga ega:

a)

b) o'zining himoyasiga tayyorgarlik ko'rish uchun keraklicha vaqt va imkoniyatga ega;

s)

d)

ye)

32 – m o d d a

1. Hech kim o'ziga va oilasiga qarshi guvohlik berishga, shuningdek o'zining aybini tan olishga majbur qilinmaydi.

33 – m o d d a

1. Har bir shaxs uni ayblashlaridan oldin, o'z fikrini tinglashlarini talab qilish huquqiga ega.

34 – m o d d a

Hech kim bir jinoyat uchun qayta ayblanishi, ishi esa qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, yuqori turuvchi sudning qaroriga ko'ra, qonunda nazarda tutilgan tartibda ko'rib chiqish bundan mustasno.

35 – m o d d a

1. Hech kimni qonun bilan belgilangan hollardan tashqari, ommaviy tarzda o'z shaxsiy hayoti to'g'risida ma'lumot berishga majbur qilish mumkin emas.

36 – m o d d a

Yozishmalar, shuningdek boshqa har qanday aloqa vositalari erkinligi va siri kafolatlanadi.

37 – m o d d a

1. Uy-joy daxlsizligi kafolatlanadi.

2. . . .

3. . . .

38 – m o d d a

1. Har kim o'ziga yashash joyi tanlash va mamlakat hududida erkin ko'chib o'tish huquqiga ega.

39 – m o d d a

1. Hech bir alban fuqarosi mamlakat hududidan chiqarib yuborilishi mumkin emas.

40 – m o d d a

Chet el fuqarolari qonunga muvofiq, Albaniya Respublikasidan boshpana olish huquqiga ega.

41 – m o d d a

1. Xususiy mulkchilik huquqi kafolatlanadi.

42 – m o d d a

1. Konstitutsiya va qonun bilan tan olingan erkinlik, mulkchilik va huquqlar qonundan tashqarida buzilishiga yo'l qo'yilmaydi.

2. . . .

43 – m o d d a

Har kim sud hukmidan norozi bo'lib yuqori turuvchi sudga shikoyat qilish huquqiga ega, Konstitutsiyada o'zga narsa nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

44 – m o d d a

Har kim, agar unga davlat organlarining noqonuniy xatti-harakatlari, harakat yoki harakatsizligi tufayli zarar yetkazilgan bo'lsa, qonun asosida reabilitasiya qilinishi va (yoki) ozod bo'lishi mumkin.

III bo'lim

SIYOSIY HUQUQ VA ERKINLIKLAR

